

Bosh ilmiy-metodik
markaz

2022

O'quv-uslubiy majmua

**UNIVERSITET 3.0 MODELI VA
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MASALALARI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH
BOSH ILMIV - METODIK MARKAZI**

“Ta’lim sifati menejmenti” yo‘nalishi uchun

**“UNIVERSITET 3.0 MODELIV VA TA‘LIM SIFATINI
TA‘MINLASH MASALALARI”**

moduli bo‘yicha

O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ta’lim sifati menejmenti” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **R.Nurimbetov** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
N.Xaqnazarova-Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchi: **M.A.Maxkamova** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2022 yil “24” dekbardagi 6/4-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	5
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	20
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	30
IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI.....	130
V. GLOSSARIY.....	148
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	162

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim milliy tizimining sifati oshishiga, bu borada Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari diplomlarini o'zaro tan olishga, o'qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi 1999 yil 19 iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublika Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmon va Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Bugungi kunda respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida o'zining ijobiy natijasini bergan universitet 3.0 konsepsiyasi asosida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, ilmiy tadqiqot va ularning natijalarini tijoratlashtirish jarayonlarini tashkil etish va ta'lim sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari, o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, bu boradagi ishlarni respublikada rivojlantirishga qaratilgan ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni bayon etilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarining oliy ta'lim muassasalarida «Universitet 3.0» konsepsiyasi asosida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish haqidagi bilimlarini rivojlantirish, Scopus, ScienceDirect, Web of Science xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda ilmiy va innovatsion faolligini oshirish borasidagi bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshirish.

Modulning vazifalari:

- “Universitet 3.0” konsepsiyasi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlarini tahlil qilish;
- “Universitet 3.0” konsepsiyasi asosida ilmiy-pedagogik faoliyatni hamda o'quv jarayonining uslubiy ta'minotini tahlil qilish;
- universitet 3.0 modeli asosida talabalarning mustaqil, ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlarini rejalashtirish;
- universitet 3.0 modelini joriy etish borasidagi normativ-huquqiy hujjat sifatida qonun va qonun osti hujjatlarini tahlil etish;
- tinglovchilarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, ilmiy-tadqiqot va tijoratlashtirish faoliyatini amalda qo'llash ko'nikmasi va malakalarini shakllantirish;
- tinglovchilarda akademik va innovatsion-tadbirkorlik madaniyatni shakllantirish..

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Universitet 3.0 modeli va ta'lim sifatini ta'minlash masalalari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida”gi, “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi mazmuni va mohiyati;

- O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi, vazifasi va uning metodologik asoslarini;

- ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari;

- ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirish ob'ektlari, innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish usullari;

- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasi mazmuni;

- zamonaviy universitetlarda texnologiyalar va loyiha boshqaruvi, fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi komponentlari;

- xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari va ularning tavsiflari, ilmiy maqolalarga qo'yilgan talablar, maqolani tayyorlash, chop ettirish tartiblari haqidagi **bilimlarga ega bo'lishi**;

- O'zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida”gi, “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish;

- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

- fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish;

- o'z-o'zining tadqiqotchi sifatida nashr faolligini rivojlantirish;

- xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda ilmiy maqolalarni chop etish **ko'nikma va malakalarini egallashi**;

- O'zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida”gi, “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida

ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida o‘z-o‘zining ilmiy-pedagogik va innovatsion faoliyatini olib borish;

- oliy ta‘lim muassasalarida «Universitet 3.0» konsepsiyasi asosida ta‘lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish;
- o‘z-o‘zini innovator-tadqiqotchi sifatida rivojlantirish;
- Scopus, ScienceDirect, Web of Science xalqaro ilmiy-texnik ma‘lumotlar bazalaridagi jurnallarda ilmiy maqolalarni chop etish va o‘z ilmiy faolligini takomillashtirish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Universitet 3.0 modeli va ta‘lim sifatini ta‘minlash masalalari” moduli ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutilgan:

- ma‘ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotli va elektron-didaktik texnologiyalardan;

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida va aqliy hujum, videousul, SWOT, “KWHL”, “W1H”, SCAMPER, “VEER” texnologiyasi, loyiha, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Universitet 3.0 modeli va ta‘lim sifatini ta‘minlash masalalari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Ta‘lim sifati innovatsion menejmenti”, “Ta‘lim sifatini ta‘minlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini jalb etish”, “Ta‘lim sifatini ta‘minlashda xalqaro tajribalar” va “Ta‘lim sifati monitoringi va nazorati” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda oliy ta‘lim muassasalari rahbar va professor-o‘qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahorat darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni

Mazkur modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ularni tijoratlashtirish faoliyatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni yaratish, zamonaviy oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish orqali akademik tadbirkorlik va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	<p>Tadbirkorlik universitetlari - universitet 3.0 konsepsiyasining zamonaviy rivojlanish bosqichlari.</p> <p>O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Universitetlarning paydo bo'lishi va universitet konsepsiyasi evolyusiyasi. Tadbirkorlik universiteti - universitet 3.0 konsepsiyasining zamonaviy rivojlanish bosqichi sifatida. Yangi avlod universitetlari.</p>	2	2	
2.	<p>Universitet 3.0 modelida bilimlarni tarqatish, generatsiyalash va tijorlashtirish uchun axborot tizimlarini loyihalashtirish asoslari.</p> <p>Texnologiyalarni tijorlashtirish modellari. Transfer texnologiyalar: transfer markazlari va texnologiyalarni tijorlashtirishni informatsion qo'llab-quvvatlash. Universitet 3.0 modelida bilimlarni tarqatish, generatsiyalash va tijorlashtirish uchun axborot tizimlarini loyihalashtirish.</p>	2	2	
3.	<p>Oliy ta'limda sifat menejmenti tizimining joriy etilishi va rivojlanish strategiyasi.</p> <p>Ta'limni boshqarishning zamonaviy paradigmalari. Ta'limda sifat menejmenti tizimi. Oliy ta'limda sifat menejmenti tizimining joriy etilishi va rivojlanish strategiyasi. OTM</p>	2	2	

	bitiruvchilari sifatini oshirish muammolari va yechimlari.			
4.	Tadbirkorlik universiteti - universitet-3.0 konsepsiyasini shakllantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Ta'lim muassasining ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritishi uchun ta'sir etadigan muhim tashqi va ichki omillarni tahlil etish. Oliy ta'limning marketing muhitini baholash va prognoz qilish uchun STEP-tahlilini qo'llash.	2		2
5	Universitet 3.0 modeli asosida "Ilmiy maktablar, transfer va innovatsiyalar" bo'yicha oliy ta'lim muassasasi ichki muhiti tahlili. Oliy ta'lim muassasasi ichki muhiti tahlilini amalga oshirish. Oliy ta'lim muassasasining maqsadlarini amalga oshiradigan komponentlar yig'indilari. Oliy ta'lim muassasasi faoliyatini strategik rejalashtirish doirasida ichki muhitni tahlil etish. SWOT- tahlilini qo'llash orqali ichki muhit keltirib chiqaradigan tahdidlar, xavflar, risklarni aniqlash.	4		4
6.	Universitet-3.0 modeli asosida OTM mavjud muammolarini hal etish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish. Universitet-3.0 modeli asosida OTM kuchli tomonlarni yanada kuchaytirish hamda ojiz tomonlarni yo'qotish Universitet-3.0 modeli asosida OTMga tashqi qulay ta'sirlarni kuchaytirish borasida amalga oshiriladigan ishlar. Universitet-3.0 modeli asosida tashqi xavflar, tahdidlar va risklarga qarshi turish.	4		4
	Jami:	16	6	10

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: TADBIRKORLIK UNIVERSITETLARI - UNIVERSITET 3.0 KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

(2 soat)

O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Universitetlarning paydo bo'lishi va universitet konsepsiyasi evolyusiyasi. Tadbirkorlik universiteti - universitet 3.0 konsepsiyasining zamonaviy rivojlanish bosqichi sifatida. Yangi avlod universitetlari.

2-MAVZU: UNIVERSITET 3.0 MODELIDA BILIMLARNI TARQATISH, GENERATSIYALASH VA TIJORATLASHTIRISH UCHUN AXBOROT TIZIMLARINI LOYIHALASHTIRISH ASOSLARI.

(2 soat)

Texnologiyalarni tijoratlash tirish modellari. Transfer texnologiyalar: transfer markazlari va texnologiyalarni tijoratlash tirishni informatsion qo'llab-quvvatlash. Universitet 3.0 modelida bilimlarni tarqatish, generatsiyalash va tijoratlash tirish uchun axborot tizimlarini loyihalash tirish.

3-MAVZU: *OLIIY TA'LIMDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINING JORIY ETILISHI VA RIVOJLANISH STRATEGIYASI.* (2 soat)

Ta'limni boshqarishning zamonaviy paradigmalari. Ta'limda sifat menejmenti tizimi. Oliy ta'limda sifat menejmenti tizimining joriy etilishi va rivojlanish strategiyasi. OTM bitiruvchilari sifatini oshirish muammolari va yechimlari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: TADBIRKORLIK UNIVERSITETI - UNIVERSITET-3.0 KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH CHORA-TADBIRLARINI ISHLAB CHIQUISH. (2 soat)

Ta'lim muassasining ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritishi uchun ta'sir etadigan muhim tashqi va ichki omillarni tahlil etish. Oliy ta'lim muassasi faoliyatini takomillashtirish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish. Oliy ta'limning marketing muhitini baholash va prognoz qilish uchun STEP-tahlilini qo'llash.

2-MAVZU: UNIVERSITET 3.0 MODELİ ASOSIDA “ILMIY MAKTABLAR, TRANSFER VA INNOVATSIYALAR” BO‘YICHA OLIY TA’LIM MUASSASASI ICHKI MUHITI TAHLILI. (4 soat)

Oliy ta’lim muassasi ichki muhiti tahlilini amalga oshirish. Oliy ta’lim muassasasining maqsadlarini amalga oshiradigan komponentlar yig‘indilari. Oliy ta’lim muassasi faoliyatini strategik rejalashtirish doirasida ichki muhitni tahlil etish. **SWOT-** tahlilini qo‘llash orqali ichki muhit keltirib chiqaradigan tahdidlar, xavflar, risklarni aniqlash.

3-MAVZU: UNIVERSITET-3.0 MODELİ ASOSIDA OTM MAVJUD MUAMMOLARINI HAL ETISH BORASIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH. (4 soat)

Universitet-3.0 modeli asosida OTM kuchli tomonlarni yanada kuchaytirish hamda oqiz tomonlarni yo‘qotish Universitet-3.0 modeli asosida OTMga tashqi qulay ta’sirlarni kuchaytirish borasida amalga oshiriladigan ishlar. Universitet-3.0 modeli asosida tashqi xavflar, tahdidlar va risklarga qarshi turish.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
9. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevral “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5349-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabr “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni.

20. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyul «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida» gi O‘RQ-630-sonli Qonuni.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6097-sonli Farmoni.

Sh. Maxsus adabiyotlar:

22. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2018.-B.23.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

24. Aleksunin V. A. Marketing v otraslyax i sferax deyatelnosti: ucheb.posobie. – M.: Marketing, 2007. –516 s.

25. Badeeva, Ye.A. (2012), Universitetskoe planirovanie v ramkax protsessnogo podxoda: monografiya, Moskva: Izdatelskiy dom Akademii Yestestvoznaniya. [xttp://econom.kxsu.ru](http://econom.kxsu.ru) [Dostup 24 marta 2010 g.]

26. Balmasova T.A. «Tretya missiya universiteta» –novyy vektor razvitiya? // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2016. – № 8-9. – S. 48-55.

27. Vatagina M.V. Strategicheskie napravleniya v razvitii marketingovoy deyatelnosti vuzov// Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta MVD Rossii№2(42)2009. S.113-116.

28. Veretennikova, O. B., Drantusova, N. V., Klyuev, A. K., Kortov, S. V., Maydanik, V. I., Malysheva, L. A., Popova, L. N. (2008), Razrabotka strategii

obrazovatel'nogo uchrejdeniya: metodicheskie rekomendatsii, Yekaterinburg: Universitetskoe upravlenie: praktika i analiz.

29. Vissema Yoxan G. Universitet tretego pokoleniya: upravlenie universitetom v perehodnyy period. – M.: Sberbank, 2016. – 422 s.

30. Gafurov I.R., Vasilev V.L., Kashbieva R.R. Innovatsionnye klasterы i sotsialno-ekonomicheskoe razvitie regionov: analiz metodicheskix podxodov. – M.: «Ankil», 2012. – 292 s.

31. Golovko N.V., Zinevich O.V., Ruzakina Ye.A. Universitet tretego pokoleniya: B. Klark i Y. Uisema // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2016. – № 9. – S. 40-47.

32. Kakim doljen byt universitet budущеgo? – URL: <http://indicator.livejournal.com/24905.xml>. Dvijenie imidjey. Rossiyskie vuzы krepnut v borbe // Poisk. – 2016. – № 25(1411). – S. 6.

33. Kargin D.B. Predprinimatelskoe obrazovanie, predprinimatelskiy universitet, kommersializatsiya texnologiy. Astana, 2016: <http://www.enu.kz/downloads/materials/Kargin.Predprinimatelskoe.obrazovanie.pdf>.

34. Kasatkina Ye. A. Gradoboev V. V. Mesto benchmarkinga v mejdunarodnoy konkurentnoy srede // Nauchnaya elektronnyaya biblioteka «KIBERLENINKA». — 2012. — № 6–1

35. Klaus Shvab «Chetvertaya promyshlennaya revolyusiya»: E. Moskva. 2016. 48 s.

36. Konstantinov G.N., Filonovich S.R. Chto takoe predprinimatelskiy universitet // Voprosы obrazovaniya. – 2007. – № 1. – S. 49-62.

37. Krasinskaya L.F. Modernizatsiya, optimizatsiya, byurokratizatsiya...Chto ojidaet vysshuyu shkolu zavtra? // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2016. – № 3. – S. 73-82.

38. Xagurov T.A. Vysshe obrazovanie: mejdru sluzheniem i uslugoy // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2011. – № 4. – S. 47-57.

39. Lagutina Ye. Ye., Leongardt V. A., Shaposhnikov V. A. Professionalnoe obrazovanie po spetsialnosti «marketing» kak tovar v sisteme marketinga // Vestnik YuUrGU. – 2010. – № 7. – S. 98–101.

40. Nikolaeva Ye.M., Щelkunov M.D., Ivshina O.Ya. Fenomenologiya potrebitelstva. Lichnostnoe i institutsionalnoe izmereniya. – Kazan: Izd-vo Kazanskiy un-t, 2014. – 160 s.

41. Samoylenko K.A. Perspektivy razvitiya innovatsionnopredprinimatelskix universitetov: http://ir.znau.edu.ua/bitstream/123456789/1983/1/Nauk_chut_2014_3_177182.pdf.

42. Tazarbekov K.A. K razrabotke « Dorojnoy karty transformatsii universiteta «Turan» v innovatsionno-predprinimatelskiy universitet». Tezisy.- almaty: Universitet «Turan», 2016. -36 s.

43. Pasport prioritetnogo proekta «Vuzы kak sentry prostranstva sozdaniya innovatsiy». – URL: <http://government.ru/media/files/nTUmegFLNj5Uqtac57yWG1EtMG9ABe.pdf>

44. Shuklina Z. N., Eshonov R. R., Xadanovich N. V. Vыbor instrumentov i strategiy benchmarkinga v riskovoy konkurentnoy srede // Molodoy uchenyy. — 2017. — №12. — S. 387-392. — URL

45. Щелkunov M.D., Nikolaeva Ye.M. Obrazovanie v XXI veke: pered lisom novыx vыzovov. – Kazan: Kazan. gos. un-t, 2010. – 156 s.

46. Щелkunov M.D. Universitety pered lisom globalных vыzovov: rossiyskiy put // Poisk. Alternativы. Vыbor. – 2016. – № 3. – S. 48-59.

47. Щелkunov M.D., Nikolaeva Ye.M., Fursova V.V. Na puti k mejdunarodnomu priznaniyu: Kazanskiy federalный universitet kak sub’ekt globalnogo prostranstva vыsshego obrazovaniya. – Kazan: Izd-vo Kazan. un-ta, 2016. – 140 s.

IV. Internet saytlar:

48. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

49. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

50. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

51. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.

52. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

“KWHL” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?.

“KWHL” metodi	
<p>1. Nimalarni bilaman: -</p>	<p>2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</p>
<p>3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -</p>	<p>4. Nimalarni bilib oldim:</p>

“W1H” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	

When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• xavflar

SWOT -tahlili

Strengths	Weakness
Opportunities	Threats

- **S**-kuchli tomoni
- **W**- kuchsiz tomoni

- **O**- imkoniyat
- **T**- tўsiqlar

«Keys-stadi» metodi.

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

«Keys metodi» ni amalga oshirish bosqichlari.

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish;

o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Test

Muammoli vaziyat

Tushuncha tahlili (simptom)

Amaliy vazifa

“SCAMPER” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo'yicha yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. SCAMPER "tez yugurish" degan ma'noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

SCAMPER



Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish.

SCAMPER savollari	SCAMPER savollari (yangi g'oyani ishlab chiqish)	Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o'zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	
E	Yana qanday holda	

	qo'llash mumkin	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	

"Loyiha" metodi.

Loyiha- tinglovchilarning muayyan muammoni yechishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishni ko'zda tutuvchi metoddir.



82

“VEER” texnologiyasi.

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

-boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o‘rganish jarayonida; uning asosiylarini anglab yetish:

-yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo‘yicha dalildan natajaga kelish.

FSMU texnologiyasi.

(F) - fikringizni bayon eting.

(S) - sababini ko‘rsating.

(M) - misol (dalil) keltiring.

(U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs- munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich.

-o‘qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

-o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi:

-mashg‘ulot davomida har bir talaba o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

2- bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'latadi.

3 - bosqich.

-Har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, O'qituvchi ularni kichik guruhlariga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlariga bo'lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi:

-o'qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi:

-o'qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4 - bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a'zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5- bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar:

Guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlash ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6 - bosqich.

-o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo'llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani

ma'qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

-ushbu treningda asosiy vazifa nimadan iborat va hokazolar.

III. НАЗАРИЙ МАТЕРИАЛЛАР

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: TADBIRKORLIK UNIVERSITETLARI - UNIVERSITET 3.0 KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI (2-soat)

Reja:

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari.
- 1.2. Universitetlarning paydo bo‘lishi va universitet konsepsiyasi evolyusiyasi.
- 1.3. Tadbirkorlik universitetlari - universitet 3.0 konsepsiyasining zamonaviy rivojlanish bosqichi sifatida.
- 1.4. Yangi avlod universitetlari.

Tayanch tushunchalar: ilm-fan, innovatsiya, innovatsion faoliyat, universitet, universitet konsepsiyasi, tadbirkorlik universitetlari, universitet-3.0, texnologiyalar transferi, xorijiy tajriba, fan, ishlab chiqarish, biznes, universitet, ilmiy muassasa, tijoratlashtirish, intellektual faoliyat natijasi, akademik tadbirkorlik, yangi avlod universitetlari.

1.1. O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”¹. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini ta’minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar,

¹ Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2018.-B.23.

ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi².

O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi - mamlakatimizda ilmiy salohiyatni oshirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini yaratish shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini chuqur va tanqidiy o'rgangan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqishdan iborat.

Bu borada hukumatimiz tomonidan ko'plab, farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabr "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to'g'risida» gi O'RQ-630-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrda "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-sonli Farmonidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi -oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qiladi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 4 bob va 9 paragrafdan iborat: **1-bob.** Umumiy qoidalar; **2-bob.** Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar; **3-bob.** Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari; **4-bob.** Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar o'z ichiga oladi. Konsepsiyaning 2-bobida Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolari: Jumladan:

- oliy ta'limning jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash sohasidagi muammolarni ya'ni respublika oliy ta'lim muassasalari xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 ta

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni 2018 y. 21.09.

o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga, ularning rasmiy veb-saytlari Webometrics xalqaro reytingining 1000 talik ro‘yxatiga kirmagan;

- ta‘lim dasturlari va talabalar bilimni baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmagan; mavjud talabalar turar joylari hamda ijtimoiy infratuzilma ob‘ektlari xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirilmagan;

- xorijiy fuqarolarni mamlakatimizda ta‘lim olishga keng jalb qilish borasidagi targ‘ibot ishlari, jumladan PR-loyihalar (O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari kunlarini tashkil qilish, taqdimotlar o‘tkazish va boshqalar) yetarli darajada tashkil qilinmagan, bu borada interaktiv virtual platforma mavjud emasligi keltirilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish bo‘yicha qator keng qamrovli vazifalar: oliy ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish; O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalarining flagmaniga aylantirish; respublikadagi kamida 10 ta oliy ta‘lim muassasasini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish; oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish; oliy ta‘lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish; oliy ta‘lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta‘minlash; oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish; xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta‘lim muassasalarida texnopark, foydali, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-

amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish; oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash; O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi «xab»ga aylantirish; oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish; talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish; oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash; ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrda "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonunning maqsadi ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir. Qonun 6 bob, 46 moddalardan iborat bo'lib, 1-bobi. Umumiy qoidalar, 2-bobi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini tartibga solish, 3-bobi. Ilmiy faoliyat va uning sub'ektlari, 4-bobi. Ilmiy faoliyatni tashkil etish va baholash, 5-bobi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirish hamda 6-bobi. Yakunlovchi qoidalarga qaratilgan.

"Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunning 3 moddasida ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy prinsiplari: ilmiy ijod va axborot erkinligi; samaradorlik va ijodiy raqobat; manfaatdorlik va rag'batlantirish; ilmiy ekspertizaning xolisligi; inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik kabilar belgilangan.

4-moddasida esa ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy yo'nalishlari etib quyidagi: ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda samaradorligiga erishish; ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va resurslarni maqsadli yo'naltirish; davlat ilmiy dasturlarini ishlab chiqish, asoslantirilgan tashabbus va loyihalarni qo'llab-quvvatlash; ilm-fanga intilish va uning jozibadorlik muhitini shakllantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, yosh iste'dod egalarini tayyorlab borish; intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish; ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirishni oqilona oshirib borish;

ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash hamda undan manfaatdorlikni oshirish; ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining axborot makoni bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash; ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan.

11-modda. Yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etishga qaratilgan bo'lib, unda tegishli davlat dasturlarini ishlab chiqish; ta'lim tashkilotida iste'dodlarni aniqlash, tanlash, tarbiyalash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar olib borish; tegishli yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktablar, maktab-internatlar, maxsus sinflar, markazlar va o'quv kurslari tashkil etish; ta'lim jarayonida egallangan bilimlarni kundalik turmush va kasbiy faoliyatda samarali qo'llay olishga qaratish; ta'lim oluvchilar o'rtasida turli tanlovlar uyushtirib borish va rag'batlantirish; chet el yetakchi ilmiy tashkilotlari va ta'lim muassasalariga magistratura va doktorantura dasturlarini o'tash, malaka oshirish, tajriba orttirishga yuborish orqali va boshqa shakllarda amalga oshirilishi hamda yosh olimlarning ilmiy tashkilotlar va ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlardagi ilmiy uyushmalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shuningdek ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalarida yosh olimlar va talabalarning ilmiy faoliyat yuritishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi ta'kidlangan. Qonunning 21 va 22 moddalari bevosita ilm-fan va ta'lim hamda ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligi qaratilgan:

21-modda. Ilm-fan va ta'limning uzviy bog'liqligi

- ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish;
- pedagog kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirib borish,
- «ustoz — shogird» maktab va an'alarini mustahkamlash, ilmiy izlanuvchilarning iqtidorli kelajak avlodini shakllantirish;
- ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab borish orqali ta'minlanadi.

22-modda. Ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligi

- innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratish hamda qo'llash uchun qulay muhitni shakllantirish;
- innovatsiyalarni joriy etishdan manfaatdorlikning tashkiliy-huquqiy tizimini takomillashtirib borish;
- tadbirkorlik sub'ektlari huzurida tegishli yo'nalishlarda ilmiy tashkilotlarning faoliyatini yo'lga qo'yish, ilmiy faoliyat yuritayotgan xorijiy hamkorlar bilan izchil va samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- innovatsion infratuzilmani (texnologiya parklari, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, venchur jamg'armalari, biznes-inkubatorlar va boshqalarni) rivojlantirish;

- xususiyl ilmiy tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish;
- innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;

23-modda. Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik asosida amalga oshirilishi, tayanch doktorantura va doktorantura doirasidagi ilmiy faoliyat ishlab chiqarishdan ajralgan holda olib borilishi hamda mustaqil izlanuvchilik doirasidagi ilmiy faoliyat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, 25-moddada ilmiy daraja olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ilmiy tashkilot va ta'lim muassasasi qoshida tegishli ixtisoslik bo'yicha tuzilgan ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashda himoya qilinishi va ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a'zolarining yarmidan ko'pi mazkur kengashni tuzgan, ilmiy tashkilot va ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan olimlardan iborat bo'lishi shartiligi hamda ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash jamoatchilik asosida faoliyat olib borishi va dissertatsiyaning tanlangan ixtisoslikka mosligi, ekspertizaning sifati va xolisligi, qabul qilingan qarorning asoslantirilganligi uchun mas'ul hisoblanadi deb ko'rsatiladi.

Mazkur qonunning 41-moddasida O'zbekiston Respublikasining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorligi milliy ilmiy maktablarning jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lishi, dunyo ilm-fani va texnologiyalari ilg'or yutuqlaridan milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yuksaltirishda foydalanish, chet el investitsiyalari, chet elik yetuk ilmiy va texnologiya markazlari, olimlar, mutaxassislarni mamlakatga jalb etish masalalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to'g'risida» gi O'RQ-630-sonli Qonuni qabul qilingan. Qonunning maqsadi-innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. U 6 bob, 39 moddalarni o'z ichiga olgan bo'lib, uning 1-bobi Umumiy qoidalar, 2-bobi Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish, 3-bobi Innovatsion faoliyatni amalga oshirish, 4-bobi Innovatsion infratuzilma, 5-bobi Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va 6-bobi Yakunlovchi qoidalarga qaratilgan. Qonunning 3-moddasida innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyat, texnologiyalar transferi va yangi ishlanmalar tushunchalariga quyidagicha ta'riflar keltiriladi:

- innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma;

- innovatsion infratuzilma — innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi ular birlashmalarining majmui;

- innovatsion loyiha — yangi ishlanmalar yaratish uchun bajarish muddatlarini, ijrochilarni, moliyalashtirish manbalarini va tegishli infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmui;

- innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat;

- texnologiyalar transferi — yangi ishlanmani u olinadigan (ishlab chiqariladigan) sohadan amalda qo'llash sohasiga o'tkazishga qaratilgan tadbirlar majmui;

- innovatsion ishlanma — mavjud o'xshash intellektual faoliyat natijalariga nisbatan yangi belgilarga ega bo'lgan, amalda qo'llash mumkin bo'lgan va amaliyotda undan foydalanganda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlay oladigan intellektual faoliyat natijasidir.

18-moddasida innovatsiyalari mahsulotga, jarayonga va marketingga oid innovatsiyalarga bo'lingan.

- mahsulotga oid innovatsiyalar — texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) ishlab chiqishga hamda joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar; tashkiliy innovatsiyalar

- jarayonga oid innovatsiyalar — texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish yoxud ta'lim usullarini ishlab chiqish va joriy etishga, shuningdek texnologiyalar transferini amalga oshirishga qaratilgan innovatsiyalar;

- marketingga oid innovatsiyalar — mahsulotlarning dizayni va qadoqlaridagi o'zgarishlarni qamrab oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan usullarni joriy etishga, mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotish va taqdim etishning yangi usullaridan foydalanishga, yangi narxlash strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsiyalar;

- tashkiliy innovatsiyalar — biznesni tashkil etish va yuritish, ish o'rinlarini tashkil etish va tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishning yangi yoki takomillashtirilgan usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar.

20-modda. Texnologiyalar transferining ustuvor yo'nalishlari va usullari, 21-modda. Texnologiyalar transferi mexanizmlari, 22-modda. Texnologiyalar transferini amalga oshirish cheklovlari, 23-modda. Texnologiyalar transferi uchun shartnoma tuzish va ro'yxatdan o'tkazish qoida belgilangan.

24-modda esa yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish yo'llari keltirilgan. Yangi ishlanmalarni qo'llagan holda yaratilgan tovarlarni (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish) realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish; ta'sischi yoki ta'sischilaridan biri ustav jamg'armasiga ulush sifatida intellektual mulk ob'ektini yoki texnologiyani kiritgan tashkilot bo'lgan tijorat tashkilotlarini tashkil etish; intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqlarini uchinchi shaxslarga o'tkazish va mazkur ob'ektlardan foydalanishga bo'lgan huquqni royalti ajratmalariga asoslangan litsenziya shartnomalarini tuzish yo'li bilan berish,. Shuningdek intellektual mulk ob'ektiga doir huquq egasining tashkilot ustav fondidagi ulushi miqdori ta'sischilarning o'zaro kelishuvi bo'yicha belgilanishi va davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan yoki davlat sirlari jumlasiga kiruvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish davlat sirlarini saqlash to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrda "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-sonli Farmoni e'lon qilindi. Konsepsiya 5 bob va 5 paragrafdan iborat. Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining strategik maqsadi- milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion va yuqori texnologik formatiga o'tish, mamlakatimizning raqobatdosh ustunliklarini ishga solish va to'g'ri safarbar etish, innovatsion mahsulotlar hajmini kengaytirish, jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan yo'nalishlarga investitsiyalarni yo'naltirish, aholi turmush darajasini bir necha bor yaxshilash, ijtimoiy sohadagi dolzarb masalalarning innovatsion yondashuvga hamda ilmiy tadqiqotlar va erishilgan natijalarga asoslangan ilmiy yechimini topish, xalqaro miqyosda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish shuningdek «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi va «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi qonunlar ijrosini ta'minlash hisoblanadi.

Konsepsiyang 2-bobida Ilm-fanni rivojlantirish zarurati, uning joriy holati va mavjud o'n to'qqizta muammolari ko'rsatilgan. 4-bob. Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish qaratilgan bo'lib, unda ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish shuningdek, ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish yo'llari belgilangan.

Ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida quyidagi ishlar: ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash; ilmiy faoliyat infratuzilmalari (ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari doirasida milliy

ilmiy laboratoriyalar tarmog‘i yaratish; ilm-fanni rivojlantirish uchun mahalliy va xorijiy olimlarga markazlarning asbob-uskunalar, tajriba-ishlab chiqarish bazalari va boshqa ilmiy resurslaridan foydalanishga keng imkon yaratilgandagina ilmiy tashkilotlar hamda muassasalar salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish.

Buning uchun ilmiy tashkilotlar huzurida ilmiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha jamoaviy foydalaniladigan ilmiy laboratoriyalar hamda GLP va GMP jahon standartlariga mos uskunalar bilan jihozlangan zamonaviy laboratoriya majmualari bosqichma-bosqich tashkil etilishi; ilmiy tashkilotlar, universitetlar tarkibida ilmiy-innovatsion klasterlar, innovatsiya markazlari, konstruktorlik ustaxonalari, biznes akseleratorlar, startup akseleratorlari tashkil qilinishi, hududiy markazlarda esa innovatsiya markazlari, yoshlar texnoparklari, texnologiyalar transferi markazlari, kichik ilmiy-ishlab chiqarish klasterlari hamda innovatsion poligonlar tashkil qilinishi; ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, mahsulotlar marketingi bilan shug‘ullanadigan alohida kompaniyalar tashkil etilib, ilm-fanga oid dasturlar doirasida yaratilgan yangi ishlanmalar marketingini yuritish va sheriklikda tijoratlashtirish majburiyatlari yuklanishi; xususiy sektor va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar, jumladan davlat boshqaruvi organlari ishtirokidagi jamg‘armalar tashkil qilinadi hamda yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi; rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, ilmiy ekspertiza jarayonida «manfaatlar to‘qnashuvi» omillarini cheklash maqsadida ilmiy loyihalar ekspertizasiga mas’ul tuzilma tashkil qilinib, muhokamalarga chet el mutaxassislarini jalb qilgan holda ekspertizaning to‘la interaktiv platforma orqali o‘tkazilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

1.2. Universitetlarning paydo bo‘lishi va universitet konsepsiyasi evolyusiyasi.

Universitetlar Yevropa O‘rta asrlarida XII-XIII asr oxirlarida "nimadir o‘qitishni istagan qobiliyatli odamlar va o‘rganishni istagan yoshlarning birlashishi natijasida" paydo bo‘lgan⁴. O‘rta asrlarda *universitas* atamasi (*lotincha* - "yaxlitlik", "butunlik")⁵ bir qator jamiyatlar va birlashmalar uchun ishlatilgan, ammo oliy ta‘lim tizimining rivojlanishi bilan atama ma‘lum bir maqsad uchun yaratilgan - bunday ittifoqqa mos keladigan barcha xususiyatlarga ega bo‘lgan ta‘lim uchun yaratilgan korporatsiyaning faqat bitta turiga beriladi.

Maktab ta‘limini takomillashtirish va cherkovga bevosita bog‘liq bo‘lmagan maktablarning paydo bo‘lishi universitetlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Monastirlarning ehtiyojlari uchun o‘quvchilarni o‘qitadigan monastir maktablaridan farqli o‘laroq, fuqarolik va cherkov ishlarida o‘qituvchilarga

⁴ Laurie, S. S. Lectures on the Rise and Early Constitution of Universities. London: Kegan Paul, Trench & Co., 1886. 326 p.

⁵ Латинско-русский и русско-латинский словарь / А. В. Подосинов [и др.]. М.: Флинта, 2015. 752 с.

o'qituvchi bo'lgan yepiskopal sobor maktablari va cherkovga aloqasi bo'lmagan shahar maktablari vaqt o'tishi bilan paydo bo'lib, o'quvchilarni fuqarolik va bozor ehtiyojlariga tayyorladilar. Shahar maktablari cherkov bilan bog'liq bo'lmaganligiga qaramay, ularda ruhoniylar dars berishardi. Keyinchalik maktablar universitetlarning paydo bo'lishi uchun asos bo'ldi.

Universitetlarning paydo bo'lishiga bir qator holatlar va sabablar, masalan shaharlarning rivojlanishi, jamiyatning fikrlash tarzidagi o'zgarish, davlat tomonidan universitetlarni tashkil etishning iqtisodiy foydalari tan olinishi, hukumatning ma'lumotli kadrlar paydo bo'lishidan manfaatdorligi va ta'lim olishni istagan qiziquvchilarning paydo bo'lishi kabi omillar yordam berdi. Oqibatda hamkorlik natijasida shahar va universitet o'zaro manfaatli foyda oldi. Shahar universitetni darslar uchun joylar va talabalar uchun infratuzilma bilan ta'minladi, universitet, o'z navbatida, shaharga yangi aholini jalb qildi va savdo rivojlanishiga hamda xizmat ko'rsatish sohasining kengayishiga sabab bo'ldi.

Dunyoviy hokimiyat uchun universitetlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlashning boshlang'ich maqsadi paydo bo'lgan boshqaruv davlat apparati uchun mutaxassislarni tayyorlash, universitet bergan hududning alohida holati va talabalarning tashrifidan qo'shimcha daromadlarni jalb qilish edi. Shaharlarning faol shakllanishi, bozor munosabatlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish hamda sanoatning izchil tashkil etilishi bilan shahar hokimiyati yangi mutaxassislarga keskin ehtiyoj sezdi. Qirol hokimiyatiga aristokratiyadan farqli o'laroq yangi intellektual elitani shakllantirish uchun shifokorlar, tilshunoslar, tarjimonlar va huquqshunoslar kerak edi. Cherkov dunyoviy hokimiyat bilan bir qatorda, o'z mavqeini va papa hokimiyatini mustahkamlash uchun ta'limni rivojlantirish va tarqatishda, shuningdek, bid'atlarga qarshi kurashishda, universitetlar va o'qituvchilarni moliyaviy hamda ma'muriy jihatdan qo'llab-quvvatladi. Universitet ta'limini rivojlantirishda cherkovning ishtiroki ularning o'z tuzilmalarida o'qimishli kadrlarga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq edi. Dunyoviy va cherkov hokimiyatining homiyligi tufayli talabalar barqaror ijtimoiy mavqega, soliqlar va yig'imlardan ozod qilish, ish tashlash va faqat shaharning ma'muriyatiga emas, balki o'zlarining professorlari va yepiskoplariga bo'ysunish huquqi kabi universitetlarning ommaviyligini oshirishga yordam beradigan ko'plab imtiyozlarga ega bo'ldilar.

Universitetlar talabalar tomonidan hududiy yoki til asosida tashkil etilgan birodarliklardan (qardoshliklardan) va professorlar tomonidan o'qitiladigan turli xil bilimlarga mos keladigan fakultetlardan iborat edi. Qonunlarga ko'ra, bir mehmon vatandoshining jinoyati uchun hibsga olinishi mumkin edi, ammo jamoat ichida talabalar ushbu qoidadan himoyalanihdilar.

Birodarliklar, shuningdek, talabalarga o'zlarining shaxsiyatini saqlashga va

tezroq moslashishga yordam berdi. **XIX** asrgacha fakultetlarga bo‘lish Aristotel tizimiga muvofiq amalga oshirilgan, to‘rtta klassik fakultet asosiy hisoblangan: ilohiyot, tibbiyot, huquq va liberal san‘at. Parij universitetida birinchi marta fakultetlar paydo bo‘lgan va xuddi shu fan bo‘yicha o‘qituvchilar guruhi bo‘lgan. 1231 yilda Papa Gregori **IX** buqasi imzolanganidan so‘ng, fakultetlarda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi - har bir fakultet o‘z qoidalari va ichki tartiblarini o‘rnatishi mumkin edi va boshqa fakultetning ishlariga aralasha olmasdi, fakultetlar boshida rahbarlar- dekanlar paydo bo‘ldi.

Butun Yevropada universitetlar yuqori tezlikda ochildi. Yevropadagi birinchi universitetlardan biri Boloniya universiteti bo‘lib, uning tashkil topgan sanasi 1088 yil deb nomlangan, u o‘z nizomini 1158 yilda qabul qilgan. 1150 va 1170 yillarning orasida Parij universitetiga asos solingan, undan keyin Oksford (1096 y.), Kembrij (1209 y.), Aresso (1215 y.) va boshqa shaharlarda universitetlar ochildi. **XIII** asr oxiriga kelib, Yevropada 20 ga yaqin universitet mavjud edi, **XIV** asrda ularning soni 45 ga yaqin edi. Turli mamlakatlar universitetlari tarixiy merosdan kelib chiqqan holda o‘z ixtisoslariga ega edilar. Masalan, ispan universitetlari tibbiyotni o‘rganishga ixtisoslashgan, arab tabiblaridan yig‘ilgan tajribani takomillashtirganlar, Italiya universitetlari esa huquqshunoslik sohasida kuchli bo‘lgan.

Vaqt o‘tishi bilan ikkita universitet modeli shakllandi - talabalar rahbarlik qilgan Boloniya universiteti va o‘qituvchilar hamda professorlar ustunlik qiladigan Parij universiteti.

Boloniya Universiteti Rim huquqini o‘rganuvchi huquqshunoslik maktabi negizida tashkil etilgan va O‘rta asrlarda huquqni o‘rganishning asosiy markazi edi. Boloniyada O‘rta asr tushunchasi va o‘qitish metodikasi shakllandi. Mashg‘ulotlar sikli huquqiy matnlarni o‘qish va sharhlash orqali rim va kanon qonunlarini o‘rgangan ma‘ruzalar va bahslardan iborat edi⁶. Bahslarda sud amaliyotining g‘ayrioddiy va munozarali pretsedentlari muhokama qilinardi, talabalar ziddiyatni va unga qarshi bo‘lgan dalillarni hal qilish usullarini taklif qilardilar, shundan so‘ng o‘qituvchi dalillarni tahlil qilib, hukm chiqarardi. Boloniya talabalari xususiy shaxslar va dunyoviy hokimiyatga maslahat beradigan huquqshunoslar (yuristlar) bo‘lishi bilan bir qatorda, ularning faoliyatining muhim qismini tashkil etuvchi va daromad olishga imkon beradigan vositachilar va sudyalardan tashqarida ham harakat qilganlar. **XIII** asrning boshlarida Boloniya Universitetida ikkita universitet tashkil topdi, ular faqat yuridik talabalardan iborat bo‘lib, bittasi Italiyadan kelgan talabalardan iborat - sitramontanlar ("Alp tog‘larining bu tomonida yashaydigan"), ikkinchisi - boshqa Yevropa

⁶ Суворов, Н. С. Средневековые университеты / Н. С. Суворов. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. 256 с.

mamlakatlardan kelgan ultramontanlardan ("tog'larning narigi tomonida yashaydiganlar") iborat edi. XIII – XIV asrlar oxirida Tibbiyot talabalarini (ular asosiy o'rinni egallagan), ritorika, matematika, fizika va notariuslarning kasb-hunarlarini birlashtirgan erkin san'at universiteti yaratildi⁷. Boloniya universitetlari faqat tashrif buyurgan talabalardan iborat edi - Boloniya aholisi universitetdan chiqarildi, bu esa universitetga avtonomiya va dunyoviy hokimiyatdan mustaqillikni ta'minladi.

"Shifokorlar kolleji" deb nomlangan o'qituvchilar uyushmalari bundan oldin universitet talabalarini tomonidan tashkil etilgan. Uchta kollej bor edi: Rim huquqi o'qituvchilari, kanon huquqi o'qituvchilari va tibbiyot hamda boshqa erkin san'at o'qituvchilari⁸.

Hay'atlar bo'lajak o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazishi va doktoranturaga nomzodlarni taklif qilishi mumkin edi. Talabalar universitetlaridan farqli o'laroq, faqat Boloniyaning fuqarosi hay'at a'zosi bo'lishi mumkin edi. Boloniya Universitetida barcha kuch talabalarning qo'lida edi, ya'ni ular amalda o'qituvchilarning ish beruvchilari bo'lib va ular kimning ma'ruzalarini tinglashlari kerak, kimning rahbarligi ostida o'qishni tanlashlari va shuningdek, o'qituvchilarning ish haqini belgilashlari mumkin edi.

O'rta asrlarda diniy va falsafiy ta'limning markaziga aylangan Parij universiteti Notr-Damdagi sobor maktabidan va Sankt-Jeneveva abbatligi va Sankt-Viktor abbatligidagi monastirlardan⁹ paydo bo'ldi. Ko'pgina universitetlar uchun namuna bo'lib xizmat qilgan Parij Universitetida menejment (boshqaruv) talabalarga emas, balki magistr'larga (o'qituvchilarga, menejer'larga) taqdim etildi.

1219 yilda cherkov ma'murlari (cherkov hokimiyati) talabalarni ilohiyotni o'rganishdan ko'ra ko'proq ishtiyoqi tufayli Parijda Rim huquqini o'qitishni taqiqladilar. Ko'p o'tmay, Boloniya universiteti huquqshunoslik sohasi va Parij Universiteti ilohiyot sohasida chiroq sifatida xizmat qiladi degan ishonch paydo bo'ldi¹⁰. Bizga ma'lumki, fakultet'larga birinchi bo'linish aynan Parij Universitetida paydo bo'ldi, keyinchalik ular bilan hamkorlikdan tashqari yangi tashkiliy model - kollej paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan boshqa shaharlarda kollejlari ochila boshladi va XIV asr boshlariga kelib ularning soni 25 tadan oshdi, shu tarzda ularning soni tez o'sib bordi. Dastlab, kollejlari to'lovga qodir emas talabalar uchun yotoqxonalar edi, ammo vaqt o'tishi bilan ular imtiyozli muassasalarga aylandi, ularda talabalar nafaqat yashabgina qolmay, balki o'qib, talabalar elitasini shakllantirdilar.

⁷ Суворов, Н. С. Средневековые университеты / Н. С. Суворов. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. 256 с.

⁸ Ле Гофф, Ж. Интеллектуалы в Средние века / Ж. Ле Гофф. СПб. Издательство СПбГУ, 2003. 160 с.

⁹ Суворов, Н. С. Средневековые университеты / Н. С. Суворов. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. 256 с.

¹⁰ Ле Гофф, Ж. Интеллектуалы в Средние века / Ж. Ле Гофф. СПб. Издательство СПбГУ, 2003. 160 с.

O'rta asr universitetlari tanlangan amaldorlarga ega bo'lgan demokratik tashkilotlar edi va dunyoviy hamda cherkov hokimiyatining homiyligi tufayli mavqei yanada oshdi. Shunga qaramay, V.Ryugg yozganidek, "ular ilm-fan cho'qqilarini zabt etishga tayyor emas edilar, chunki ular an'anaviy e'tiqodning to'plangan zaxirasini qanday saqlash kerakligi masalasida paydo bo'lgan davrda tug'ilganlar"¹¹.

XVI asrning boshlarida universitetlar soni sezilarli darajada o'sdi, ammo ularning maqomida yoki ta'limni tashkil etishda sezilarli o'zgarishlar bo'lmadi. O'zgarishlar faqat Uyg'onish davrining kelishi va insonparvarlik falsafasining paydo bo'lishi bilan boshlandi. Professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida qattiq masofa bo'lgan O'rta asr maktabining qoidalari o'rniga maxsus ta'lim va mutaxassislik bilimlari va havaskor olimlarni birlashtirgan yangi bilimlarni, gumanitar tadqiqotlarni birgalikda izlash tushunchasi keldi. Shu bilan birga, Yunonistonning yangi atamasi – akademiya nutqida ildiz otdi. Bosma matbuot ixtirosi ham yangi g'oyalarning tarqalishiga yordam berdi.

Ilm-fan va universitet ta'limini rivojlanishining navbatdagi bosqichi tabiatni aniq kuzatish bilan bog'liq. Rivojlanishning yangi to'lqini yangi bilimlarni ularga tegishli mavzularni o'rgatishning belgilangan tartibiga tahdid sifatida qabul qilgan universitetlarni chetlab o'tdi. Amaliy fanlar paydo bo'lishining natijasi universitetlar bilan bog'liq bo'lmagan mustaqil ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi edi. Bu davrda, shuningdek, cherkov ta'siri ostida universitetlarning soni ko'paya boshladi. Fransiya inqilobidan so'ng tugatilmagan universitetlarni almashtiradigan oliy maktablar, dastlabki politexnika va harbiy fakultetlar paydo bo'lgan. Innovatsiyalar O'rta asr yondashuvidan universitet ta'limining yangi bosqichiga o'tishni anglatardi, ayni paytda xususiy universitetlarning birinchi prototiplari paydo bo'ldi. Universitet modelini yangilash o'z navbatida yangi universitetlar va fakultetlarni yaratishga to'sqinlik qiluvchi mavjud universitetlarni, shuningdek, yangi fanlarni o'qitishni sezilarli darajada murakkablashtirdi. Vaqt o'tishi bilan an'anaviy universitetlar yangi fanlar va ilmiy usullarni qabul qila boshladilar va buning natijasida Germaniyada yangi universitet modeli paydo bo'ldi - Gumboldt¹². Keyinchalik tadqiqot universitetining prototipiga aylangan nemis klassik universitetining modeli hisoblandi.

Shunday qilib, sanoat davrining boshlanishidagi islohotlar natijasida o'rta asrdagi vrachlar, yuristlar, teologlar universitetlari - olimlar va muhandislarning tabiiy-ilmiy universitetiga aylandi.

Vilgelm fon Gumboldt(1767-1835 yy.) bugungi kunda klassik universitetning

¹¹ Ruegg W. A History of the University in Europe // EuropeanHistory Quarterly, 2008. №1. P. 185-187.


¹² Виссема, Й. Университет третьего поколения / Й. Виссема.М.: Олимп-Бизнес, 2016. 480 с.

4 ta funksiyalari to'g'risida quyidagilarni keltirib o'tgan: bilimlarni ishlab chiqish; bilimlarni to'plash va saqlash; bilimlarni uzatish; bilimlarni tarqatish.

XIX asrning oxirida universitetlarning ta'lim modeli birinchi ilmiy inqilob natijasida ilm va ta'limni birlashtiruvchi tadqiqot universitetlariga transformatsiya qilish jarayoni ro'y berdi.

K. Yaspers (1949 y.)ning fikricha, universitet vazifalarini uchtaga ajratish mumkin - tadqiqot, bilimlarni uzatish (ta'lim) va madaniyat.

Bugungi kunda universitetlarning 3 ta asosiy shakllarini ajratdilar. (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm. Universitetlarning 3 ta asosiy shakllari.

Ikkinchi ilmiy inqilob deb ataladigan davrda (XX asrning ikkinchi yarmida) bilimni “o‘zlashtirish” - klassik universitet o‘rniga yangi bilimlarni “yaratuvchi” noklassik universitet keldi.

XX asrning oxirlaridan boshlab insoniyat universitet evolyusiyasining navbatdagi modeli-tadbirkorlik modelini muhokama qilishmoqda.¹³

Tadqiqot universitetlari. 1809 yilda taniqli nemis diplomati Vilgelm fon Gumboldt Berlindagi ilmiy muassasalarning ichki va tashqi tashkiloti to'g'risida memorandumni e'lon qildi, unda keyinchalik klassik nemis ta'limi asosiga aylangan tamoyillar tasvirlangan¹⁴.

Universitet muxtoriyatga aylandi - davlat o'qituvchilar va olimlarga ta'sir

¹³ Тазарбеков К.А. К разработке « Дорожной карты трансформации университета «Туран» в инновационно-предпринимательский университет». Тезисы. - алматы: Университет «Туран», 2016. С. 4.

¹⁴ Дуда, Г. Введение к меморандуму Вильгельма фон Гумбольдта «О внутренней и внешней организации высших научных заведений в Берлине» // Университетское управление: практика и анализ. 1998. №3. С. 24-27.

ko'rsatmadi, ular o'qish va o'quv uslubini o'z xohishiga ko'ra tanlashlari mumkin edi, talabalar tanlash erkinligi ular olgan kasb doirasida o'quv kurslarini mustaqil tanlash bilan bog'liq edi. O'qitish sifati ham yaxshilandi - darslar uni yaxshi bajarganlar tomonidan emas, balki amaliy tadqiqotchilar va olimlar tomonidan olib borildi. O'qitish va tadqiqotning birligi tamoyili hamda mashg'ulotning yangi turi paydo bo'ldi - o'qituvchi va talabalar birgalikda ikkala tomon uchun ham qiziqadigan ilmiy yo'nalishlarni birgalikda o'rganadilar. Universitetlar ham davlat tomonidan moliyalashtirila boshlandi, natijada davlat tomonidan professorlar tayinlana boshlandi.

Gumboldt universiteti 1810 yilda Berlinda ochilgan. Uning mafkurasi faylasuf Shleermaxerning qarashlariga asoslanib shunday degan edi: "Universitetning vazifasi maktab va kollejlarda bo'lgani kabi, umumiy tan olingan va amaliy bilimlarni yetkazish emas, balki qanday qilib bu bilimlar olinishini o'rgatishdir; talabalarning ilmiy izlanishlarga qiziqishini uyg'otish va ularning barcha fikrlarida ilm-fanning asosiy qonunlarini inobatga olishlariga yordam berish"¹⁵. Gumboldt universiteti - bu "tadqiqot, ta'lim va bepul o'qitish g'oyasi"¹⁶.

Gumboldt universitetida zamonaviy ilmiy uslublar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar o'quv jarayonida asosiy rolni o'ynaydi. Ilmiy izlanishlar o'quv jarayoniga kiritildi, ularda professorlardan tashqari talabalar ko'proq ishtirok etdilar. Tadqiqotlar boshqa olimlar tomonidan olingan natijalarni o'rganish va zamonaviylashtirishga imkon beradigan oqilona yondashuvga, eksperimentlarga (tajribalarga), jiddiy dalillarga va muhokama qilish maydoniga tayandi. Ilmiy xulosalar faqat murakkablik va maqsadga muvofiqlik tamoyillariga asoslanishi kerak edi.

Birinchi akademik tadbirkorlikka o'tish 1862 yilda tuzilgan muhandislik ishiga ixtisoslashgan va mintaqaviy ehtiyojlar uchun hukumatdan yer oladigan Massachesuta texnologiya institutida (Etzkowitz, 2002) ro'y berdi. Keyinchalik akademik tadbirkorlik XX asrning boshida va o'rtalarida gumanitar fanlar yo'nalishlarida qo'llaniladigan Stenfordga o'tkazildi. Hozirgi davrda bunga o'xshagan jarayonlar butun dunyoda ro'y berishi natijasida qator universitetlar uchinchi - iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish missiyani amalga oshirishga harakat qilishmoqda. Bunga iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olish va mahalliy akademik va madaniy an'analarga bog'liq bo'lgan faollikni yanada jadallashtirish yo'li bilan erishiladi.

Xohlaganlar ilmiy yutuqlardan foydalanishlari mumkin edi, ularni tekshirish uchun erkin foydalanish mumkin va qisman jamiyat egalik qiladi, shu maqsadda

¹⁵ Ruegg W. A History of the University in Europe // EuropeanHistory Quarterly, 2008. №1. P. 185-187.

¹⁶ Ясперс, К. Идея университета / К. Ясперс. Минск: БГУ, 2006.159 с.

ular ixtisoslashtirilgan davriy nashrlarda va kitoblarda nashr etildi. Universitet ta'limining asosiy maqsadi fanni rivojlantirish va shakllantirish edi. Universitetlarning tarkibiy tuzilmasi ham o'zgardi, bitta fanga ixtisoslashgan fakultetlar ularning asosiga aylandi; hamjamiyat (birodarlik) va kollejlarda deyarli g'oyib bo'ldi.

Universitet modeliga ko'ra harbiy-texnik akademiyalar tashkil etila boshlandi, keyinchalik ular politexnika institutlariga aylantirildi, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan universitetlar ham ochildi. Shunday qilib, 20-asrning birinchi choragiga qadar olgan universitetlar, harbiy, politexnika, tijorat, tibbiy, veterinariya, qishloq xo'jaligi, ta'lim, siyosiy va musiqa sohalarida bilim berardi. Gumboldt universiteti nafaqat Yevropada, balki AQShda ham universitetlarni yaratish uchun namuna bo'ldi. Universitetlar tizimi 19-asrda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda shakllandi.

O'sha davr mualliflarining aksariyati nemis universitetlarining klassik modelini qo'llab-quvvatlab, "nemis universitetlari sivilizatsiyalashgan dunyodagi universitetlar uchun normaga aylandi"¹⁷, universitetda ilm-fan va fikr erkinligining ahamiyati ushbu modelning asosiy ustunligi hisoblanadi. Ammo bu modelga qarshi bo'lganlar ham bor edi, ular chet el modellarini takrorlashni to'xtatish va rus haqiqatlariga moslashtirilgan o'z modelini yaratish kerakligini ta'kidlashdi. 20-asrning birinchi choragida inqilobdan oldingi Rossiya universiteti Yevropaning eng qadimgi universitetlarining inqirozi bilan bog'liq bo'lgan inqirozni boshdan kechirdi. Germaniya universitetlari o'zgarishlarni qabul qilmaslik va fanni isloh qilishda hamda universitetni demokratlashtirish tarafdori bo'lganlikda ayblana boshladilar. Yevropa universitetlaridan farqli o'laroq, shu jumladan texnik fakultetlarni ham o'z ichiga olgan Amerika universitetlari keltirilgan.

Universitet 2.0 ning o'ziga xos xususiyatlari:

- asosiy maqsadlar ilmiy va tijorat maqsadlarida emas, balki ilm-fan taraqqiyoti yo'lida olib boriladigan tadqiqotlar;
- ilmiy nashrlar va kashfiyotlar soni bo'yicha universitetlarning reytingi;
- universitetlar o'rtasida raqobat ruhining yo'qligi;
- monointizomiy tadqiqotlar;
- ta'limning "elitizmi" ("elitarlilik") - faqat qobiliyatli va badavlat talabalar ma'lumot olishlari mumkin;
- universitet va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yo'qligi;
- milliy lashtirish - o'qitish davlat tilida olib boriladi;
- moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy shakli davlatdir.

¹⁷ Сперанский, Н. В. Кризис русской школы. Торжество политической реакции. Крушение университетов / Н. В. Сперанский. М.: Типолитография т-ва И.Н. Кушнерев и Ко, 1914. 271 с.

Klassik nemis universitetining modeli o'z davri uchun muvaffaqiyatli bo'lgan, ammo ma'lum bir paytda u tanqidga uchragan va bir qator sabablarga ko'ra zamonaviy talablar va tendensiyalarga mos kelmay qo'ygan. 20-asr o'rtalarida talabalar soni keskin ko'payib, bu budget mablag'larining ko'payishiga va universitet faoliyati ustidan davlat nazoratining kuchayishiga olib keldi, byurokratiya darajasini sezilarli ravishda oshirdi va o'qituvchilarning ilmiy izlanishlaridagi yo'nalishni tanlash erkinligini kamaytirdi. Talabalar sonining ko'payishi ham oliy ma'lumot darajasi va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, talabalar soni ko'payganiga qaramay, hammasi ham o'qishni tugatmadi. Globallashuv tufayli ingliz tili universitet muhitida lotin va milliy tillarning o'rnini bosadigan yangi universal tilga aylandi. Sayohat va aloqa xarajatlari narxining sezilarli darajada pasayishi natijasida talabalar harakati erkinligi va chet el universitetlarida o'qish imkoniyati oshdi. Talabalar va o'qituvchilarning harakatchanligi o'quv va yangi tadqiqotlar uchun mablag' ajratadigan turli xil fondlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Bu omillar, ayniqsa katta yoshdagi talabalar va yosh olimlar uchun kurashda universitetlararo raqobatning kuchayishiga olib keldi. Boloniya jarayoni, Sorbonna va Boloniya deklaratsiyalari ham ta'lim modeli va universitet tushunchasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Boloniya jarayonining asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish orqali Yevropada raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratish uchun yuqori darajadagi mutaxassislar va malakalarni tayyorlashdir. Boloniya deklaratsiyasini 1999 yilda Yevropa davlatlarining 29 vaziri imzolagan¹⁸, 2004 yilda kelishuvda ishtirok etgan davlatlar soni 40 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda Boloniya jarayonida 48 ta davlat qatnashmoqda.

Boloniya jarayonining asosiy maqsadlari va vazifalari¹⁹:

- Yevropa oliy ta'limining sifati va jozibadorligini oshirish;
- bakalavr, magistratura va aspiranturada bitiruvchilar uchun yagona malaka tizimini joriy etish va o'zaro tan olish;
- Yevropa oliy ta'lim hududini yaratish;
- talabalar va o'qituvchilarning harakatchanligini oshirish;
- kredit punktlari (**ECTS**) kredit tizimini yaratish va boshqalar.

Ta'lim dasturlari darajasini nazorat qilish va kerakli darajada ushlab turish uchun o'quv dasturlarining akkreditatsiyasi yaratildi, bu dasturning mazmuni va hajmining berilgan malaka bilan muvofiqligini baholash natijalari bo'yicha amalga oshiriladi. Akademik harakatchanlikni rivojlantirish uchun turli xil universitetlarda

¹⁸ History // European higher education area. 2015. URL: <http://www.ehea.info/pid34248/history.html> (дата обращения: 02.10.2017).

¹⁹ The Bologna Declaration of 19 June 1999 // European higher education area. 2015. URL: http://media.ehea.info/file/Ministerial_conferences/02/8/1999_Bologna_Declaration_English_553028.pdf (дата обращения: 02.10.2017).

o'qish natijalarini aniqlash va taqqoslash, shuningdek, kasbiy tayyorgarlikning sifati va darajasini aniqlashga imkon beradigan Transfer Kredit Birliklarining Yevropa tizimi (ECTS) yaratildi. Ikki bosqichli ta'lim tizimini yaratilishi Gumboldt universiteti modelida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Bu shuni ko'rsatdiki, bakalavr doirasida o'qituvchi tadqiqot qobiliyatini yo'qotadi, turli odamlar yana o'qitish va tadqiqotlar bilan shug'ullanadilar. Ilm-fan universitetlarni tark etadi - tadqiqotlar fondlar doirasida olib boriladi, olimlar konferensiyalar va simpoziumlarda nutq so'zlaydilar, tadqiqot natijalari ommaga ochiqdir. Universitet modelini rivojlantirishning yana bir omili yangi tadqiqot turlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bo'ldi. Dastlab, tadqiqotlar bitta ilmiy intizom doirasida olib borilgan, ammo vaqt o'tishi bilan ular ikki yoki undan ortiq fanlar, ko'p yo'nalishli tadqiqotlar birlashuvida o'zgartirildi va amalga oshirila boshlandi, texnologiya hamda loyihalashtirish, trans intizomiy tadqiqotlar bilan birlashtirildi. Fanlararo tadqiqotda turli sohalar va turli fakultetlar mutaxassislari loyihaning biron - bir sohasiga murojaat qilmasdan birgalikda ishlaydi. Klassik nemis universiteti modeli yangi turdagi tadqiqotlarni o'tkazish uchun mos emas edi, bu esa tashkiliy tuzilmani modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Tadqiqotga yangi turlar va yondashuvlarning rivojlanishi ilmiy guruhning sezilarli darajada o'sishi va ko'plab qimmatbaho zamonaviy uskunalardan foydalanish zarurati bilan bog'liq holda ularning narxini oshirdi. Tadqiqot xarajatlarining oshishi kelajakda universitetlarni nafaqat davlatdan, balki kompaniyalardan ham mablag' izlashga majbur qildi, bu esa kelajakda birgalikda hamkorlik uchun keng ufq ochadi. 20-asrning boshlarida universitetlar amaliy va innovatsion tadqiqotlarni o'tkazishga qiziqish bildirmadilar, ularning asosiy va yagona maqsadi faqat fundamental fan edi. Ammo, sanoat allaqachon rivojlanib bordi va yangi ixtirolar, kashfiyotlarga talab paydo bo'la boshladi, uni universitetlar qoniqtirmoqchi emas edi. Shu munosabat bilan sanoat korxonalarini va turli bo'limlar tomonidan yaratilgan ixtisoslashtirilgan amaliy tadqiqotlar institutlari faol ravishda ochila boshlandi. Ilg'or tadqiqotlari va kashfiyotlari bilan yangi institutlar ilm-fan va jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga moslashishni istamagan universitetlarning eskirgan modeli uchun jiddiy raqobatchilarga aylandi. Universitetlarning rivojlanishida yangi IT-kompaniyalar va ularda yuqori texnologiyali startaplarning paydo bo'lishi, ilmiy izlanishlar va bitiruvchilar uchun yangi ish joylari yaratilishi bo'ldi. Universitetlar va davlat ishsizlik muammosini kamaytiradigan, iqtisodiy rivojlanish va innovatsion salohiyatni oshiradigan texnologik klasterlarni yaratishga intilmoqda. Ko'pincha bunday kompaniyalar bitiruvchilar va talabalarning o'zlari tomonidan yaratiladi. Shu bilan birga, universitetlar va ishlab chiqarish kompaniyalari o'rtasida korporativ buyurtmalar va ishlanmalarning bir qismini ta'minlaydigan hamkorlik mashhurlik kasb etmoqda.

Universitet 2.0 ning funksiyalari ta'lim xizmatlari va ilmiy izlanishlarni taqdim etish bilan cheklangan, ixtirolarni tijoratlash tirish talab qilinmagan - bu amaliy tadqiqotlar va ilmiy-texnik ishlanmalar bilan bog'liq tashkilotlarning vazifasi edi.

1.3. Tadbirkorlik universiteti - universitet 3.0 konsepsiyasining zamonaviy rivojlanish bosqichi sifatida.

Universitet - bu fundamental va ko'pgina amaliy fanlar bo'yicha mutaxassislar tahsil oladigan oliy ta'lim muassasidir. Qoidaga ko'ra u ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib boradi. Ko'pgina zamonaviy universitetlar o'quv-ilmiy-amaliy kompleks sifatida faoliyat yuritadilar. Universitetlar o'z tarkibiga ilmiy bilimlar asoslarini tashkil etuvchi turli xil fanlar yig'indisini namoyon etuvchi bir nechta fakultetlarni birlashtiradi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi bozor tomonidan sezilarli darajadagi bosimga duch kelmoqda: davlat va nodavlat moliyalashtirish nisbati o'zgarmoqda, oliy ta'lim muassasalari borgan sari budjet mablag'larini kam miqdorda olib, ular homiylarni ko'proq faol ravishda jalb etish hisobiga moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashga, o'qish uchun to'lovlar miqdorini oshirishga, shuningdek o'z tadbirkorlik faoliyati va boshqa xo'jalik faoliyati turlari hisobiga mablag'lar topishga majbur bo'lmoqdalar.

Zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti bo'lib, bir vaqtning o'zida uchta yirik vazifalarni hal etishi lozim: ta'lim, ilmiy va innovatsion-tadbirkorlik. Bunday universitetlarda akademik ta'lim olish bilan bir qatorda bitiruvchilarning tadbirkorlik faolligini ham rag'batlantirish lozim, bu o'z navbatida universitetning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi bo'lishiga imkon yaratadi²⁰.

Tadbirkorlik universiteti tarixi Kaliforniyada (XX asrning 40 yillarining oxiri 50 yillarning boshlarida) Silikova (Kremli) vodiysini yaratish bilan boshlanadi. Buning asosiy maqsadi Massachuseta texnologik universiteti bilan biznes o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'lgan.

Yevropada birinchi tadbirkorlik shaklidagi birinchi universitet 1994 yildan Xalmers universiteti (Geteborg) hisoblanadi.

Birinchi marta "tadbirkorlik universiteti (institut)" iborasi britaniyalik tadqiqotchi Berton Klarkning "Tadbirkorlik institutlarini yaratish. Transformatsiyaning tashkiliy yo'llari" nomli kitobida qo'llanilgan. "Tadbirkorlik universiteti" konsepsiyasining muallifi bo'lib Stenford universiteti professori Genri

²⁰ Самойленко К.А. Перспективы развития инновационнопредпринимательских университетов: http://ir.znau.edu.ua/bitstream/123456789/1983/1/_Nauk_chut_2014_3_177182.pdf.

Iskovis hisoblanadi²¹.

Tadbirkorlik universitetining asosiy qirralari.

1. Tadbirkorlik universitetlari ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ulanadilar. P. Druker "tadbirkorlik na fanga, na san'atga taalluqli emas - bu aniq faoliyat, amaliyot" deb hisoblanagan.

Tadbirkorlik universitetining mazmun-mohiyatini hatto Y.Shumpeter (1883-1950 yy.) tomonidan aniqlangan quyidagi 4 ta jihat orqali ifodalash mumkin:

- yangiliklar (innovatsiyalar)ga intilish;
- tavakkalchilikni bilish;
- o'z kuchiga ishonish;
- o'z mustaqilligini his etish.

Tadbirkor "kreativ buzish" bilan shug'ullanadi va resurslarning yangi kombinatsiyalarini amalga oshiradi.

2. Tadbirkorlik universiteti o'z faoliyatini moliyalashtirishning ko'pkanalli tizimiga ega. Uning asosiy manbalari: 1) ta'lim xizmatlarini amalga oshirish; o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr ettirish va sotish; 3) mablag'larni biznesdan qo'shma tijorat loyihalarni jalb etish orqali topish; 4) mintaqaviy buyurtmalarni bajarishdan tushumlar; 5) davlat buyurtmalari; 6) bitiruvchilar; 7) xalqaro filantropik(homiylik, xayriya) tashkilotlar. Fandreyzing (turli maqsadlar uchun pul mablag'larini yig'ish). Endaument (xayriya investitsion fondi, universitet hamjamiyatini qo'llab-quvvatlovchi juda muhim dastak).

3. Tadbirkorlik universiteti doimiy ravishda yangi faoliyat turlari bilan shug'ullanish borasidagi ya'ni, raqobatchilikni kuchaytirish va faoliyatni diversifikatsiyalash, marketing xizmatini yaxshilash kabi tashabbuslar bilan chiqadi. Shuningdek, mavjud (nazorat qilinadigan) resurslar va innovatsiyalar doirasidagi imkoniyatlarni izlash, texnoparkli muhit va texnoparkcha tafakkur bilan shug'ullanadilar.

4. Tadbirkorlik universiteti o'zining ichki kuchiga(permanentli) mos holda chuqur transformatsiyasini amalga oshiradi. Tadbirkorlik universiteti-bu ambitions maqsadlar + samarali tashkiliy o'zgarishlardir. Tadbirkorlik tashkilotiga fan, ta'lim va innovatsiya o'rtasidagi yangi balans kerak bo'ladi.

Innovatsiyaviylik va loyihali yo'naltirilganlik ham ta'limni ham ilmiy tadqiqotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Natijada, professionalizm tushunchasining o'zgarishi ro'y beradi. Fanlararo jamoaviy ishlash uslubi tasdiqlanadi. Ilmiy tadqiqotlarda asosiy e'tibor asosan amaliy tadqiqotlarga va innovatsiyalarni ishlab chiqishga qaratiladi.

²¹ Тазарбеков К.А. К разработке « Дорожной карты трансформации университета «Туран» в инновационно-предпринимательский университет». Тезисы.- алматы: Университет «Туран», 2016. С. 5.

5. Tadbirkorlik universiteti xalqaro aloqalarni qo‘shgan holda tashqi muhit bilan o‘zaro xatti-harakatlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Tadbirkorlik universitetining hamkorlar bilan ko‘p tomonlama o‘zaro xatti-harakatlarini G.Iskovisning “Uchala spiral” tamoyili orqali ko‘rib chiqish mumkin: biznes, hukumat, universitet.

“Uchala spiral” modelining asosida G.Iskovisning quyidagi tasdiqlari yotadi:

1) biznes, hukumat va universitetning o‘zaro hamkorlikdagi tadbirkorlik faoliyatidagi imkoniyat tamoyili;

2) hukumat, biznes va ta’lim modelida ular bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, innovatsion iqtisodiyotda universitet bosh rolni o‘ynaydi.

3) ko‘rsatilgan sub’ektlar orasidagi o‘zaro munosabatlar borgan sari yaqinlashib, chegaralar bosqichma-bosqich yo‘qolib bormoqda.

Tadbirkorlik universiteti rolining ortishi bilimlarni “generatsiyalash” mexanizmni shakllantirish sifatida ularni amaliyotda qo‘llashgacha olib borishga qodirligi bilan izohlanadi. Bunda akselaratsion (kuchaytiruvchi) dasturlar, asosan yoshlardan iborat bo‘lgan yangi jamoalar muvaffaqiyatli star-up – startaplar (“jarayonning boshlanishi”), spin-off - spinoflar (“reklama, xabar jo‘natish”, “hamkorlikdagi natija”) -tijorat maqsadidagi takliflar uchun sho‘ba kompaniyalarni ajratish yo‘li bilan qayta tashkil etish muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda tadbirkorlik universitetlari global axborot jamiyatida va xalqaro aloqalarni mustahkamlashda, sivilizatsiyalararo sinagriya siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada yevropaliklar amerikaliklardan o‘rganishgan bo‘lishsa, bizlar ham amerikaliklar ham yevropaliklardan, ham xitoyliklardan ham o‘rganishimiz lozim.

Shunday qilib, tadbirkorlik universiteti – bu:

birinchidan, universitet-o‘z missiyasi doirasida tadbirkor;

ikinchidan, universitet-innovator. Uning sub’ektlari innovatsion, uning faoliyati innovatsion, uning mahsuloti innovatsion;

Tijorat texnologiyasini o'tkazish sub'ekti sanoat mulkining ob'ektlari (patentlar, foydali modellar, sanoat namunalari), nou-xau, texnik tavsiflar, texnologik va texnik bilimlar va boshqalar hisoblanadi. Tijorat texnologiyalarini uzatish shakllari qo'shma korxonalarini tashkil etish; texnik maslahatlarni o'tkazish; franchize savdosi; litsenziyalarni sotish va berish; nou-xau o'tkazish; muhandislik xizmatlarini ko'rsatish; lizing va boshqalar hisoblanadi. Texnologiyalar transferida ishlatiladigan shartnomaviy munosabatlarning boshqa turlari ham mavjud, masalan, oshkor etmaslik to'g'risidagi shartnoma (NDA), materiallar va namunalarni topshirish to'g'risidagi bitim, opsiya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish shartnomasi, qo'shma ixtiro shartnomasi va boshqalar, ularning ba'zilar quyida keltirilgan.

Oshkor etmaslik to'g'risidagi shartnoma (NDA) - bu savdo sirlari va shaxsiy ma'lumotlarning uchinchi tomonga tarqalishining oldini olish uchun ikkala

tomonga maxfiy ma'lumotlar va materiallar bilan almashish imkonini beradigan huquqiy kelishuv.

Variant (opsion) - xaridorning intellektual faoliyat natijalarini olishga bo'lgan qiziqishi to'g'risidagi guvohnoma bo'lib xizmat qiladi va ma'lum bir vaqt uchun litsenziya va intellektual mulk huquqini kichik miqdordagi haq evaziga saqlab qoladi.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish shartnomasi - ilmiy-tadqiqot va / yoki konstruktorlik ishlarini olib borish uchun universitet va uchinchi tomon kompaniyasi yoki jamg'armasi o'rtasida kelishuv.

Texnologiyalarni uzatilishidan ko'zlangan maqsadlarga va kutilayotgan natijaga qarab, kelishuvlarning turi va intellektual mulkni topshirish natijasi belgilanadi.

Texnologiyalarni uzatish murakkab va uzoq jarayondir, shuning uchun uzatishni boshlashdan oldin, texnologiya auditini o'tkazish orqali texnologiyaning potensialini baholash kerak - yangilikni (innovatsiyani) ob'ektiv baholash talab etiladi. Ko'pincha, texnologik auditning maqsadi mijozlarning barcha ixtirolarini kashf etish va ularning keyingi tijorat hamda o'tkazish imkoniyatlarini taqqoslashdir.

Texnologik auditni sifatli o'tkazish uchun, audit jarayonini tashkil qilishda buyurtmachining rahbariyatini jalb qilish talab etiladi, shuningdek, xodimlarni auditning vazifalari va vositalari to'g'risida xabardor qilishda ishtirok etish zarur. Universitet loyihalarining texnologik auditini tashkil etishda loyiha rahbari yoki loyiha amalga oshiriladigan laboratoriya rahbari ko'rsatma sifatida ishlaydi (yetakchi rol o'ynaydi).

Chet el tajribasiga ko'ra, texnologiya auditini texnologiyani ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan xodimlarning yozma so'rovidan boshlanishi kerak, shundan so'ng ma'lum xodimlarni suhbatga taklif qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ushbu bosqichdagi texnologik auditning maqsadi mijoz (buyurtmachi) xodimlarining keyingi suhbatlar o'tkazish bo'yicha asosiy ko'nikmalarini aniqlashdir. Suhbatdosh, o'z navbatida, munozarali masalalarni oydinlashtirish va aniqlashtirish uchun asosiy vakolatlarga ega bo'lishi kerak.

Loyihani baholashning ikkita asosiy usuli mavjud - LIFT (bog'lovchi innovatsiya, moliya va texnologiya) va TAME (texnologiya va bozorni baholash). LIFT metodologiyasi innovatsion loyihani tijoratlashtirish darajasini aniqlash uchun Yevropa Ittifoqining Tadqiqot va texnologik rivojlanish bo'yicha komissiyasining V doirasida ishlab chiqilgan. LIFT metodologiyasiga ko'ra, intervyu (suhbat) oldidan kompaniyaga loyiha bo'yicha so'rovnoma yuboriladi, so'ng natijalar batafsil tahlil qilinadi, ularning asosida savollar tayyorlanadi va

tashqi ekspertlar suhbatga taklif qilinadi. Shuningdek, kompaniya o'rganilayotgan loyiha bilan bog'liq hujjatlar to'plamini tayyorlaydi. Loyiha ikki guruhga bo'lingan holda, jozibadorlikni va mumkin bo'lgan xatarlarni ko'rsatadigan mezonlar bo'yicha baholanadi. Ko'pincha, loyihaning jozibadorligi baholashning o'nta omilini o'z ichiga oladi: bozor o'sishi hajmi va harakati, rentabellik, loyihani bozorda boshlash vaqti va boshqalar. Loyiha bilan bog'liq xavflarni baholash yigirmata omilga ko'ra amalga oshiriladi: loyihani ishlab chiqish bosqichi, bozorni o'rganish va marketing rejasining mavjudligi, moliyaviy barqarorlik, xodimlarning mavjudligi va malakasi, patent qidiruvi tozaligi va boshqalar. TAME metodologiyasi Lambic Innovation Ltd. tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy xususiyati sotishning mumkin bo'lgan bozorlarini baholashga qaratilgan. TAME baholashning besh bo'limini o'z ichiga oladi: yangi texnologiyaning mazmuni; mahsulotning kuchli va zaif tomonlari; intellektual mulk va bozorni baholash va boshqalar. Baholash ko'rsatkichlarining ta'rifi va texnologik audit metodologiyasini tanlash tadbirning maqsadlari, baholanadigan kompaniya sohasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. 2.2.1-jadvalda⁸³ tijoratlashtirish va texnologiyalarni o'tkazish imkoniyatlarini baholash mezonlariga misollar keltirilgan. Audit jarayonida aniqlangan barcha texnologiyalar uchun ballar hujayralarga kiritiladi.

2.2.1-jadval.

Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferi salohiyatini hisoblash matritsasi.

Tijoratlashtirish salohiyati		1- texnologiya	2-texnologiya
1	Tijorat ishlanmalari tannarxining anglanganligi		
2	Bitta emas, balki mahsulotlar oilasi yoki ilovalarni olish imkoniyati		
3	Bozorning mavjudligi		
4	Raqobatchilik ustuvorliklari		
5	Sanoat qayta ishlashni amalga oshirish		
<i>Tijoratlashtirish salohiyatini yakuniy baholash</i>			
Transfer salohiyati			
1	Uzatish uchun texnologiyani tayyorlash		
2	Texnologiyalarni ishlab chiqish yoki uzatish borasida yordam beradigan guruh mavjud		
3	Bozorda texnologiyalarga qiziqishning mavjudligi		
4	Tijorat muddatlarini qayta ishlash		
5	Texnologiyalarning potensial yoki haqiqatdagi		

⁸³ Оценка коммерциализируемости технологий: сб. науч. тр. / Коммерциализация технологий: мировой опыт рос. регионам; под ред. Н.М. Фонштейн. М.: Академия народного хозяйства при правительстве РФ, 1995. 228 с.

	xaridorlarini aniqlash		
	<i>Tijoratlashtirish salohiyatini yakuniy baholash</i>		
	Jami baholash		

Ko'rsatkichlar baholangan tashkilot uchun odatiy ball tizimiga muvofiq baholanadi. Har bir mezon uchun o'lchov omillarining kiritilishi, audit natijalarini bozor nuqtai nazaridan, imkon qadar ob'ektiv va to'g'ri yechishga imkon beradi. Hisob-kitoblarni jadvalga kiritgandan so'ng, har bir o'rganilayotgan sohalar uchun qiymatlar qo'shiladi va texnologiyaning potentsiali, shuningdek ularning umumiy ballari aniqlanadi, ularning asosida texnologiyalar bilan kelgusida ishlash bo'yicha qaror va taklif shakllanadi. Texnologik auditning yakuniy bosqichi yakuniy hisobotni yozish bo'lib, unda quyidagi bandlar bo'lishi kerak ⁸⁴:

- yetakchi texnologiyalar, kompetensiyalar (vakolatlar) va texnologiyalar haqida qisqacha ma'lumot;
- qo'shimcha texnologiyalar, kompetensiyalar va texnologiyalar haqida qisqacha ma'lumot;
- o'tgan va joriy bitimlar va sanoat bilan o'zaro aloqalarning qisqacha mazmuni;
- tadqiqot shartnomalari, moliyalashtirish manbalari va uyushmalarning qisqacha mazmuni;
- keyingi tadqiqotlar uchun ustuvor yo'nalishlar;
- o'quv dasturlarini yaratish va amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash;
- kompaniya ichida hamkorlik qilish imkoniyatlari;
- martaba potentsialini va xodimlarning motivatsiyasini aniqlash;
- qo'shimcha rivojlanish vektorlari va boshqalar.

Hisobot tashkilotda mavjud bo'lgan texnologiyalar va jihozlarning miqdori va sifatini; xodimlarning aniq bo'lmagan ko'nikmalari va tajribasini; kompaniyaning sanoat bilan o'zaro hamkorligi tajribasini va istiqbolli hamkorlik istiqbollarini prognozlashni; xodimlarning taqdirini aniqlash va ularning motivatsiyasini aniqlashni baholaydi, ushbu ma'lumotlar asosida xodimlarning martaba yo'nalishi bo'yicha tavsiyalar tayyorlanadi. Texnologik audit bizga yangi mahsulotni bozorga chiqarishda xatarlarni sezilarli darajada kamaytirgan holda loyihaning tijorat istiqbollarini va uni keyinchalik rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Texnologiyalarni uzatish universitet 3.0 modelining ajralmas qismidir, chunki uni tashkil etish uchun universitetlar ko'p sabablarga ega, masalan:

⁸⁴ Оценка коммерциализируемости технологий: сб. науч. тр. / Коммерциализация технологий: мировой опыт рос. регионам; под ред. Н.М. Фонштейн. М.: Академия народного хозяйства при правительстве РФ, 1995. 228 с.

- iqtidorli o'qituvchilarni jalb qilish va saqlash;
- universitet kashfiyotlari va ixtirolarini tan olish va tarqatish;
- qo'shimcha moliyalashtirishni jalb qilish;
- keyingi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash uchun litsenziyalash;
- iqtisodiy rivojlanish va boshqalar.

Texnologiyalarni uzatish variantlari:

- kompaniyalarni jalb qilish va ular bilan tadqiqotlar va ishlanmalar uchun shartnomalar tuzish;
- konsalting, muhandislik, konstruktorlik va tadqiqot xizmatlarini ko'rsatish;
- litsenziya shartnomalarini olish;
- o'quv kurslari va dasturlarini yaratish;
- tadqiqotlarni homiylik qilishga investorlarni jalb qilish;
- biznes va sanoat bilan birgalikda korxonalarni tashkil etish;
- spin-off kompaniyalarni tashkil etish;
- yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va boshqalar.

So'nggi yillarda mamlakatda texnologik uzatish infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradigan qonunchilik bazasi faol takomillashtirilmoqda. Texnologiyalarni uzatish markazlari, texnoparklar, ilmiy-texnologik parklari, biznes-inkubatorlar, axborot texnologiyalari markazlari tarmog'i, innovatsion klasterlar va boshqa infratuzilmalar yaratilmoqda.

Birinchi bo'limda tavsiflangan AQShda Bay-Dole qonuni qabul qilingandan so'ng, kafedralar universitetlarning intellektual mulkni litsenziyalash va patentlashga ixtisoslashgan universitetlarida va texnologiyalarni litsenziyalash idoralari, texnologiyalarni uzatish idoralari yoki texnologiyalarni rivojlantirish idoralari deb nomlana boshladilar. Patent berish va startaplarni yaratish uchun ma'lumot markazi Massachusetts texnologiya instituti bo'lib, u texnologiyani uzatish jarayonini "Massachusetts texnologiya instituti kuchlari tomonidan ishlab chiqarilgan bilim mahsulotlarining jamoat maydoniga harakati" sifatida belgilaydi⁸⁵ va 10 bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich - bu kashfiyot yoki ixtiroga olib kelgan tadqiqotlar. Ikkinchi bosqich - tadqiqotchi intellektual faoliyatning mumkin bo'lgan natijasini mulk huquqini baholash va himoya qilish uchun litsenziyalash markazi bilan muhokama qiladi. Uchinchi bosqich texnologiyani uzatish jarayonini to'g'ridan-to'g'ri ishga tushiradi - ixtiro haqidagi ma'lumotlarni ochib beradigan yozma ariza. To'rtinchi bosqich keyingi uzatish strategiyasini belgilaydi - kashfiyotning to'liq bahosi, shu jumladan patent tadqiqotlari va tijorat potensialini baholash uchun bozorni tahlil qilish. Kerakli tahlilni o'tkazgandan so'ng, mavjud bo'lgan kompaniyaga

⁸⁵ An Inventor's Guide to Technology Transfer at the Massachusetts Institute of Technology / MIT Technology Licensing office. Cambridge: 2010. 36 p.

texnologiyani sotish yoki startap yaratish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Beshinchi bosqich - tijoratlashtirish jarayonida, shu jumladan patentga talabnoma topshirishda huquqiy yordam.

Oltinchi bosqich - texnologiyani sotish yoki startap yaratish uchun munosib kompaniyani topish uchun marketing tadqiqotlari.

Yettinchi bosqich - yangi kompaniyani tashkil etish yoki potensial xaridorlarni qidirish va biznes-reja tuzishda huquqiy va boshqaruv yordami.

Sakkizinchi bosqich - bu startap yaratish yoki kompaniya texnologiyalarini sotishdan qat'iy nazar, universitet va uchinchi tomon o'rtasida litsenziya shartnomasini imzolash.

To'qqizinchi bosqich - bu texnologiyani tijoratlashtirish va takomillashtirish.

O'ninchi bosqich - bu universitet tomonidan foyda olish.

Massachusetts texnologiya institutining texnologiya uzatish modeli G'arb universitetlarida klassik hisoblanadi.

Texnologiyalarni uzatish ofislarining umumiy bosh maqsadi tadqiqotchilar, investorlar va texnologiyalarning iste'molchilari o'rtasidagi aloqani ta'minlash, idoralarning (ofislarning) vazifalariga shuningdek quyidagilar kiradi:

- universitetning keyinchalik tijoratlashtirishga yaroqli ilmiy va amaliy loyihalarini izlash va tahlil qilish;
- patent va bozor tadqiqotlarini o'tkazish;
- texnologiyalar transferi va intellektual mulk bilan bog'liq boshqa bitimlarni huquqiy qo'llab-quvvatlash;
- texnologik auditni o'tkazish;
- universitetning intellektual mulkini himoya qilish;
- investorlarni va qo'shimcha moliyalashtirishni izlash va jalb qilish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar uchun grantlarni jalb qilish va boshqalar.

Bilimlar va texnologiyalarni tijoratlashtirish modellarini va texnologiyalarni uzatish usullarini o'rganib chiqib, universitetlarning 3.0 modelida bilimlarni tarqatish, shakllantirish va tijoratlashtirishni axborot bilan ta'minlash bo'yicha universitetlarning mavjud tajribasini ko'rib chiqishimiz kerak.

2.3. Universitet 3.0 modelida bilimlarni tarqatish, generatsiyalash va tijoratlashtirish uchun axborot tizimlarini loyihalashtirish.

Tadbirkorlik universiteti modeliga mos kelishga intilayotgan zamonaviy universitetlar tomonidan bilimlarni tarqatish, shakllantirish va tijoratlashtirish bo'yicha muvaffaqiyatli axborot ko'magi uchun turli xil axborot tizimlari, platformalar, veb-saytlar va boshqa axborot vositalaridan foydalanish kerak. Amaldagi axborot tizimlarini baholash uchun "5-100-2020" dunyoning yetakchi

tadqiqot va ta'lim markazlari orasida "Rossiyaning yetakchi universitetlarining raqobatbardoshligini oshirish" dasturida ishtirok etgan universitetlar tanlab olindi⁸⁶, chunki dasturning asosiy ko'rsatkichlaridan biri universitetlar, sanoat va biznes o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishdir.

Ularning axborot resurslari tahlili maqsadli guruhlar, ya'ni talabalar, o'qituvchilar, sheriklar va investorlar uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlarning mavjudligi va sifati asosida amalga oshirildi. Asosiy mezonlar sifatida intellektual faoliyat natijalarini olish imkoniyati to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi tanlandi; investitsiya va homiylik uchun ochiq bo'lgan loyihalar to'g'risidagi ma'lumotlar; biznes bilan hamkorlik turlari to'g'risida ma'lumot; talabalar va o'qituvchilar o'rtasida texnologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash shakllari to'g'risidagi ma'lumotlar. Asosiy xizmat ko'rsatuvchi provayderlarni aniqlash uchun universitetlarning innovatsion va ilmiy infratuzilmasi ham o'rganiladi.

Tizimni yaratishdan asosiy maqsad universitetlar, sanoat va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining o'zaro hamkorligi uchun yagona platformani shakllantirish, ular tomonidan tegishli ma'lumotlarni o'z vaqtida joylashtirish, shuningdek, axborotdan foydalanuvchilar sonini ko'paytirishdan iborat. Shunday qilib, ishlab chiqilayotgan tizim elektron onlayn platforma (veb-sayt) sifatida joriy etilishi kerak.

Saytning maqsadi

Sayt universitetlar va biznes foydalanuvchilari uchun mo'ljallangan, shuning uchun har bir maqsadli guruh uchun tizimdan foydalanishning asosiy maqsadlari, universitet uchun:

- universitetlarning raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini oshirish;
- potensial sheriklar va investorlarni, shu jumladan xorijiy sheriklarni izlash;
- texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish jarayonini soddalashtirish;
- biznes va investorlar uchun tezkor va ob'ektiv ma'lumot etkazish kanali;
- o'tkazilgan tadqiqotlar to'g'risida, shuningdek, biznes bilan olib borilayotgan va muvaffaqiyatli hamkorlik to'g'risida xabardor qilish orqali universitetning ijobiy imijini shakllantirish;
- iqtidorli o'qituvchilar va talabalarni jalb qilish;
- olib borilayotgan tadqiqotlar, jalb qilingan sarmoyalar hajmi, shartnomalar hajmi va hokazolar to'g'risida jamlama tahliliy ma'lumotlarni olish;
- talabalar o'rtasida tadbirkorlik madaniyatini ommalashtirish va boshqalardan iborat.

⁸⁶ Список университетов // Проект повышения конкурентоспособности ведущих российских университетов среди ведущих мировых научно-образовательных центров. 2017. URL: [tps://5top100.ru/universities/](https://5top100.ru/universities/) (дата обращения: 06.11.2017).

Biznes uchun:

- universitetlarda ishlab chiqarilgan texnologiyalar va innovatsiyalarni sotib olish va joriy etish orqali kompaniyaning raqobatdoshligini oshirish;
- saytga bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish orqali ilmiy kashfiyotlar va dizayn ishlanmalarining potensial ijrochilarini izlash;
- texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish jarayonini soddalashtirish;
- biznesning tadqiqot va ishlanmalarga ehtiyojlari haqida jonli efir kanali;
- universitetlar bilan faol hamkorlik qilish orqali kompaniyaning ijobiy imijini shakllantirish;
- talabalar orasidan yangi iqtidorli kadrlarni izlash va jalb qilish va boshqalarni tashkil etadi.

Davlat uchun:

- universitet 3.0 tushunchasini rivojlantirish va ommalashtirishga ko'maklashish;
- universitetlar va biznes o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish;
- universitetlar va biznes o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida yig'ilgan tahliliy ma'lumotlarni olish va boshqalardan iborat.

Sayt tili: o'zbek, rus hamda ingliz tillarida bo'ladi. Ingliz tili 3.0 universitetlari va yirik kompaniyalar uchun asosiy foydalaniladigan tili hisoblanadi. Chet tilining mavjudligi ham chet ellik sheriklarni jalb qilishda yordam beradi va bilimlarni eshittirishni xalqaro darajadagi kanalga aylantiradi. Saytda ma'lumotlarni to'ldirganda, foydalanuvchi nafaqat, o'zbek va rus tilida, balki ingliz tilida ham ma'lumotlarni kiritishi talab qilinadi. Ingliz tilida ma'lumot kiritish qobiliyati majburiy emas, balki maslahatdir; "Ingliz tilida ma'lumot qo'shish" tugmachasi yordamida saytning har bir sahifasida ushbu funktsiya bajarilishi kerak.

Saytni qidiruv tizimlari tomonidan izlash kerak bo'lgan asosiy kalit so'zlar (ichki **SEO**): universitet, 3.0 universiteti, uchinchi avlod universiteti, texnologiya uzatish, ma'lumot (bilimlarni) uzatish, texnologiyani tijoratlashtirish, innovatsion tijoratlashtirish, intellektual faoliyat natijasi, o'qish, ishlanmani sotib olish, ixtironi (innovatsiyani) sotib olish, intellektual faoliyat natijalarini sotib olish, ixtiro haqidagi ma'lumotni qaerga joylashtirish, ixtironi qanday sotib olish biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar, fintech, bpla, katta ma'lumotlar, qaerda ixtiro haqida ma'lumot joylashtirilishi, innovatsiya sotib olish, fundamental tadqiqotlar, amaliy tadqiqotlar, ilmiy-texnik innovatsiyalar, 3.0 universiteti, texnologiya transferi, texnologiyani tijoratlashtirish, innovatsiyalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar, ilmiy-tadqiqot, aeronet, kompyutershunoslik, autonet, marinet, neyrotexnologiya, sog'liqni saqlash,

fintech, katta ma'lumotlar, va hokazo.

Sayt **SEO** ishtirokchilari haqida ma'lumot bilan to'ldirilganligi sababli, universitetlar va ishtirok etuvchi kompaniyalarning nomlari, shuningdek e'lon qilinadigan loyihalar ham qo'shilishi kerak.

Saytning tuzilishi.

Quyida saytning asosiy qismini ruxsatsiz foydalanuvchilar ko'rishi mumkin bo'lgan tuzilishi keltirilgan:

- loyiha haqida;
- loyihaning maqsad va vazifalari;
- tashkilotchilar va sheriklar;
- bilimlar bazasi;
- ishtirokchining maqolasi;
- aloqalar.

Nazorat savollari:

1. Zamonaviy universitetning bosh funksiyasini aytib bering?
2. Innovatsiya deganda nimani tushunasiz?
3. Tadbirkorlik universitetlari rivojlanishi orqali milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi nima?
4. Universitetda tijoratlashuv deganda nimani tushunasiz?
5. Texnologik qiymat yaratilishining o'zaro bog'liq beshta bosqichlarini sana bering.
6. Texnologiyalarni tijoratlashtirish nima?
7. Dunyodagi eng mashhur texnologiyani uzatish usuli nima?
8. Spin-off kompaniyalari deganda nimalarni tushunasiz?
9. Bilimlarni uzatishning (bilimlar transferining) maqsadi nimalardan iborat?
10. Variant (opsion) deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabr "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to'g'risida» gi O'RQ-630-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni,

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrda “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6097-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

Maxsus adabiyotlar:

11. Badeeva, Ye.A. (2012), Universitetskoe planirovanie v ramkax protsessnogo podxoda: monografiya, Moskva: Izdatelskiy dom Akademii Yestestvoznaniya. [xttp://econom.kxsu.ru](http://econom.kxsu.ru) [Dostup 24 marta 2010 g.]

12. Balmasova T.A. «Tretiya missiya universiteta» –novyy vektor razvitiya? // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2016. – № 8-9. – S. 48-55.

13. Vatagina M.V. Strategicheskie napravleniya v razvitii marketingovoy deyatel'nosti vuzov// Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta MVD Rossii№2(42)2009. S.113-116.

14. Veretennikova, O. B., Drantusova, N. V., Klyuev, A. K., Kortov, S. V., Maydanik, V. I., Malysheva, L. A., Popova, L. N. (2008), Razrabotka strategii obrazovatel'nogo uchrejdeniya: metodicheskie rekomendatsii, Yekaterinburg: Universitetskoe upravlenie: praktika i analiz.

15. Vissema Yoxan G. Universitet tretogo pokoleniya: upravlenie universitetom v perehodnyy period. – M.: Sberbank, 2016. – 422 s.

16. Volkova N. S. Analiz sistema dopolnitelnogo professionalnogo obrazovaniya Rossii i yego rol v sovremennykh usloviyax // Molodoy uchenyy. — 2012. — №5. — S. 412-415. — URL [xttps://moluch.ru/archive/40/4761/](https://moluch.ru/archive/40/4761/) (data obrasheniya: 28.08.2019).

17. Gafurov I.R., Vasilev V.L., Kashbieva R.R. Innovatsionnyye klasteryy i sotsialno-ekonomicheskoye razvitiye regionov: analiz metodicheskix podxodov. – M.: «Ankil», 2012. – 292 s.

18. Golovko N.V., Zinevich O.V., Ruzakina Ye.A. Universitet tretego pokoleniya: B. Klark i Y. Uisema // *Vыsshee obrazovanie v Rossii.* – 2016. – № 9. – S. 40-47.

19. Kargin D.B. Predprinimatelskoe obrazovanie, predprinimatelskiy universitet, kommersializatsiya texnologiy. Astana, 2016: [xttp://www.enu.kz/downloads/materials/Kargin.Predprinimatelskoe.obrazovanie.pdf](http://www.enu.kz/downloads/materials/Kargin.Predprinimatelskoe.obrazovanie.pdf).

20. Klaus Shvab «Chetvertaya promyshlennaya revolyusiya»: E. Moskva. 2016. 48 s.

21. Konstantinov G.N., Filonovich S.R. Chto takoe predprinimatelskiy universitet // *Voprosy obrazovaniya.* – 2007. – № 1. – S. 49-62.

22. Krasinskaya L.F. Modernizatsiya, optimizatsiya, byurokratizatsiya... Chto ojidaet vыsshuyu shkolu zavtra? // *Vыsshee obrazovanie v Rossii.* – 2016. – № 3. – S. 73-82.

23. Ksendzova G. F. Tendensii razvitiya marketingovogo upravleniya na rynke obrazovatelnykh uslug // *Istoricheskaya i sotsialno-obrazovatel'naya mysl.* – 2012. – № 3. – S. 118–121.

24. Xagurov T.A. Vыshe obrazovanie: mejdu sluzheniem i uslugoy // *Vыsshee obrazovanie v Rossii.* – 2011. – № 4. – S. 47-57.

25. Myagkov G.P., Buxaraev V.M. Transformatsiya klassicheskogo universiteta v usloviyax «tekuchey sovremennosti» // *Klassicheskiy universitet: istoriya i sovremennost: materialy Vseross. s mejdunarodnym uchastiem nauchno-prakticheskoy konferentsii, posvyashchennoy 85-letiyu Udmurtskogo gos. un-ta; Ijevsk, 3-4 fevralya 2016 g. /otv. red. i sost. V.V. Puzanov, D.V. Repnikov.* – Ijevsk: Izdat. sentr «Udmurtskiy universitet», 2016. – S. 56-61.

26. Samoilenko K.A. Perspektivy razvitiya innovatsionnopredprinimatelskix universitetov: [xttp://ir.znau.edu.ua/bitstream/123456789/1983/1/Nauk_chut_2014_3_177182.pdf](http://ir.znau.edu.ua/bitstream/123456789/1983/1/Nauk_chut_2014_3_177182.pdf).

27. Tazarbekov K.A. K razrabotke «Dorojnoj karty transformatsii universiteta «Turan» v innovatsionno-predprinimatelskiy universitet». Tezisy.-almaty: Universitet «Turan», 2016. -36 s.

28. Pasport prioritetnogo proekta «Vuzы kak sentry prostranstva sozdaniya innovatsiy». – URL: [xttp://government.ru/media/files/OnTUmegFLNj5Uqtac57yWG1EtMG9ABe.pdf](http://government.ru/media/files/OnTUmegFLNj5Uqtac57yWG1EtMG9ABe.pdf)

29. Shuklina Z. N., Eshonov R. R., Xadanovich N. V. Vыbor instrumentov i strategiy benchmarkinga v riskovoy konkurentnoy srede // *Molodoy uchenyy.* — 2017. — №12. — S. 387-392. — URL

30. Щелkunov M.D., Nikolaeva Ye.M. *Obrazovanie v XXI veke: pered lisom novyx vyzovov.* – Kazan: Kazan. gos. un-t, 2010. – 156 s.
31. Shadrikov V., Gevorkyan Ye. *O protsedure kompleksnoy otsenki vuza // Vysshee obrazovanie v Rossii.* 2001. № 1.
32. Shuls D.Ye., Tannenbaum S.S., Lauterborn R.F. *Novaya paradigma marketinga. Integrirovannyye marketingovyye kommunikatsii: Per. s angl. M.: INFRA–M, 2004.*
33. Щелkunov M.D. *Universitety pered lisom globalnykh vyzovov: rossiyskiy put // Poisk. Alternativy. Vyb. – 2016. – № 3. – S. 48-59.*
34. Щелkunov M.D., Nikolaeva Ye.M., Fursova V.V. *Na puti k mejdunarodnomu priznaniyu: Kazanskiy federalnyy universitet kak sub'ekt globalnogo prostranstva vysshego obrazovaniya.* – Kazan: Izd-vo Kazan. un-ta, 2016. – 140 s.
35. Clark B. *Creating Entrepreneurial Universities: Organization Patxways of Transformation.* – Guildford, UK: Pergamon, 1998. – 163 r.
36. Etzkowitz X., Leydesdor L. *Txe Triple Xelix University-Industry-Government Relations: a Laboratory for Knowledge-Based Economic Development // EASST Review.* – 1995. – Vol. 14. – № 1. – P. 14-19.
37. E3M-Project. (2012). *Green Paper «Fostering and Measuring Tthird Mission in Xigxer Education Institutions».* – URL: <http://www.e3mproject.eu/docs/Greenpercentage20paper-p.pdf>
- Sarax Lurman. *Txe Tradition of Need – Blind Admissions Is Starting to Die // Street Journal.* 1994. № 5 (Jan.).
38. Summarized from Sarax Lurman. *A Student of Value' Means a Student a no Can Pay txe Rising Cost of College // Wall Street Journal.* 1994. № 5 (Jan.).

Internet saytlar:

39. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
40. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
41. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
42. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.
43. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

3-MAVZU: OLIY TA'LIMDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINING JORIY ETILISHI VA RIVOJLANISH STRATEGIYASI

Reja:

- 3.1. Ta'limni boshqarishning zamonaviy paradigmalari.
- 3.2. Ta'limda sifat menejmenti tizimi.
- 3.3. Oliy ta'limda sifat menejmenti tizimining joriy etilishi va rivojlanish strategiyasi.
- 3.4. OTM bitiruvchilari sifatini oshirish muammolari va yechimlari.

Tayanch tushunchalar: paradigma, boshqarish paradigmasi, sifat, sifat menejmenti, sifat menejmenti tizimi, ta'limda sifat menejmenti tizimi, oliy ta'lim sifati, strategiya, sifatni ta'minlash strategiyasi, bitiruvchilar sifatini ta'minlash.

3.1. Ta'limni boshqarishning zamonaviy paradigmalari.

Ilmiy-texnik inqilob, axborot jamiyatiga o'tish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'zi bilan menejmentda an'anaviy yo'nalishni o'zgartirishga olib kelishi oqibatida yangi boshqaruv paradigmasining rivojlanishi uchun rag'bat bo'ldi⁸⁷. Axborot jamiyati – bu aksariyat ishlovchilarning ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va axborotlarni sotish, asosan uning oliy shakli - bilim bilan band bo'lishidir.

Paradigma (yunoncha παράδειγμα, «model, namuna») — ilmiy hamjamiyat va uning aksariyat a'zolari tomonidan qabul qilinadigan va taqsimlanadigan fundamental ilmiy tartib-qoidalar va iboralarning yig'indisi. Ilm-fan va ilmiy ijodiyotni rivojlanishining davomiyligini ta'minlaydi.

Paradigma – bu “ yirik olimlarning asos sifatidagi g'oyalari va ilmiy natijalaridan kelib chiqadigan, shuningdek tadqiqotchilarning, amaliyotchilarning va iqtisodchilarning asosiy qismigtgsh tafakkur sterjenini aniqlovchi yondashuvlar tizimi”⁸⁸.

Birinchi marta “paradigma” iborasi amerikalik faylasuf, tarixchi T.Kunom tomonidan ishlatilgan. Uning fikricha paradigma “ma'lum bir vaqt davomida ilmiy hamjamiyatga muammoni qo'yish va uning yechimi modelini beradigan hamma tomonidan tan olingan ilmiy yutuqlar”⁸⁹. Zamonaviy boshqaruv paradigmasi – bu boshqaruv tizimi va uning tashqarisidagi tizimlardagi ob'ekt, jarayonlar, hodislar to'g'risidagi tasavvurlarning yig'indisi, ruhiy shakllanish, hayol etish va fikrlash

⁸⁷ Соколов М. А., Беленкова Ю. С. Сущность новой управленческой парадигмы // Молодой ученый. — 2014. — №6.2. — С. 61-63. — URL <https://moluch.ru/archive/65/10851/> (дата обращения: 10.10.2019).

⁸⁸ Гончарова Н. Е. Теория управления: Конспект лекций. — М.: Приор-издат, 2006. — 224 с.

⁸⁹ Башкатова Ю. И., Бебрис А. О. Принятие эффективных управленческих решений в венчурных фирмах. Транспортное дело России. 2013. № 5. С. 160–163.

mahsuli. Bu ehtimoliy hodisalar, holatlar, oqibatlar ssenariylari. U o'z ichiga anglash, analitik, qadriyatli, ijodiy, tashkiliy-irodaviy komponentlarni oladi⁹⁰.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik faol rivojlana boshlandi. Bu o'z navbatida boshqaruv paradigmasining tubdan o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi davrda yangi boshqaruv paradigmasini tashkil etuvchi yondashuvlar tizimi quyidagi ko'rsatmalarga asoslanadi⁹¹:

- boshqaruv tizimini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni bozor va davlat tomonidan tartibga solishning o'zaro uyg'unlashuvi asosida nomarkazlashtirish;

- ko'psektorli iqtisodiyotga o'tish;

- korxonalarni boshqarishning bozor va ma'muriy usullarining o'zaro uyg'unlashuvi;

- bozor xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining ochiq, ijtimoiy yo'naltirilgan tizim sifatida shakllanishi va faoliyat yuritishi. Menejment yangi paradigmasining asosiy vazifasi "bilimni unumli qilish"⁹² dan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun boshqaruvning yangi paradigmasi quyidagi elementlarga asoslanadi:

- integrativ va o'zini namoyon qila oladigan insonga asosiy e'tibor qartiladi;

- tashkilot, hamkorlikdagi qadriyatlardan tarkib topgan insonlardan iborat tirik organizm sifatida qaraladi;

- tashkilot doimo yangilanishlarga, tashqi omillarga, ular ichida eng asosiysi bo'lgan iste'molchiga moslashishga mo'ljal olgan bo'lishi lozim.

Yangi paradigmasida tashkilot tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'ladigan ochiq tizim sifatida qaraladi. Energiya, axborot, turli turdagi materiallar tashkilot ichida ro'y beradigan barcha jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatishadi⁹³. Shu sababli tashkilot muvaffaqiyati to'g'ridan-to'g'ri uning tashqi muhitdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-texnik sohadagi o'zgarishlarga qanchalik moslashishiga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda fan va ta'lim tobora kuchliroq tarzda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanmoqda. Sababi oxirgi yillarda ilmiy hamjamiyatning inson kapitali nazariyasiga bo'lgan qiziqishi kuchaydi. Buning boisi raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish uning avvalo har bir mamlakat o'zida ta'lim, shu jumladan oliy ta'lim sifatini oshirishi lozim. Fan va ta'lim har qanday davlatning qudrati ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy resursi hisoblanadi.

⁹⁰ Козбаненко В. А. Государственное управление: основы теории и организации: учебник в 2-х т. Т. 1. М.: «Статут», 2002. 366 с.

⁹¹ Леонтьева Л. С., Кузнецов В. И., Конотопов М. Н., Орехов С. А., Башкатова Ю. И., Морева Е. Л., Орлова Л. Н. Теория менеджмента. Москва, 2013.

⁹² Приходько В. И., Иванова Т. Ю. Кибернетико-синергетический подход в теории управления. //Менеджмент в России и за рубежом. — 2004. — № 5.

⁹³ Решетько Н. И. Проблемы повышения конкурентоспособности отечественного инфокоммуникационного комплекса. Инновации в науке. 2013. № 28. С. 172–175.

Faqat eng yangi zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish hamda yuqori darajada ilm talab mahsulot yaratibgina iqtisodiyotni yuksaltirishga erishish mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari endi yolg'iz jismoniy kapital yoki insonlar malakasi (inson omili) bilangina emas, balki, bilimni bilimga tatbiq eta olish qobiliyati bilan belgilanadi.

O'rta asrlarda texnologiyalarning almashinuvi 100 yilda bir marta ro'y bergan bo'lsa, keyinchalik texnologiyalar va bilimlarning yangilanish sikli 50-20 yilga tushdi, bugungi kunda esa 3-5 yilni, ba'zi tarmoqlarda esa undan ham qisqa. Natijada, bugun o'qishga kirgan talabaning olgan bilimlari biturgunga qadar o'z qiymatini yo'qotishi mumkin.

Insoniyatning jamiyatining oliy ta'limga bo'lgan ehtiyoji o'zgarish dinamikasi quyidagicha:

- antik jamiyat-0,01%;
- industrialgacha jamiyat-0,05%;
- industrial jamiyat-3%;
- postindustrial jamiyat-20%;
- bilimlar iqtisodiyoti-60%.

Dunyo bo'ylab 2000-2014 yillar oralig'ida oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 19%dan 34%ga oshdi. Ushbu ko'rsatkich Markaziy va Janubiy Afrika davlatlarida o'rtacha 8% bo'lsa, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida 75% atrofida.

192 ta davlat misolida tadqiqot olib borgan Jahon banki shunday xulosaga keldi: o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiy o'sishning 16% jismoniy kapital, 20% tabiiy kapital va 64% inson va ijtimoiy kapital bog'liq.

Jahon banki tomonidan (92ta mamlakatda) inson kapitali milliy boylikda 67 foizni, rivojlangan davlatlarda 75 foizni tashkil etgan bo'lsa, Rossiyada- 50%, tabiiy resurs-32%, asosiy kapital18%ni tashkil etgan.

Xitoyda bilimlar iqtisodiyoti rasmiy ravishda davlat strategiyasi sifatida tan olingan.

3.1.1-rasm. Oliy ta'limning zamonaviy paradigmasidagi asosiy trendlar



Boshqaruv paradigmasi bir vaqtning o'zida menejment nazariyasining o'zisha xos tushunchalari bilan bir qatorda menejment fanida markaziy bo'lgan muammolar va ularning yechimlarini shakllantirishning konseptual asosidir.

Umuman olganda, oxirgi yillarda butun dunyo oliy ta'limini boshqarish borasidagi zamonaviy paradigma rivojlanishining asosiy trendlarini sxema tarzida ifodalash ham mumkin (3.1.1-rasm).

Ta'limning roli milliy o'ziga xosliklarga qaramasdan butun mamlakatlar uchun namuna hisoblanadi. Birinchidan, oliy maktab kelgusi avlodga jamiyatning ma'naviy va ahloqiy normalarini yetkazishni ta'minlaydi, ikkinchidan-korxonalar jamoasi, butun mamlakat uchun eng muhim bo'lgan vazifalarni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladigan jamiyat elitasini tayyorlaydi. Oliy maktabning uchinchi funksiyasi – malakali mutaxassislarni hammasiga tayyorlashdan iborat.

3.2. Ta'limda sifat menejmenti tizimi.

Butun jahon miqyosida “Oliy ta'lim sifati” so'z birikmasi XIX asrlarda ishlatila boshlanib, ushbu iboraning tavsifi faqatgina o'tgan asrning o'rtalaridan keng qo'llanila boshlandi. Lekin, shu kungacha ta'lim sifati tushunchasi borasida umumqabul qilingan ibora mavjud emas.

1995 yilda YuNESKO tomonidan ishlab chiqilgan “Oliy ta'limni isloh etish va rivojlantirish” nomli dasturiy hujjatga ko'ra, ta'lim faoliyatining oliy ta'lim sifatiga bir muncha sezilarli darajada ta'sir etuvchi uchta qirrasini mavjud: personal sifati, talabalarni tayyorlash va OTM infratuzilmasi.

1998 yilning 9 oktabrida YuNESKO tomonidan Parijda tashkil etilgan oliy ta'lim bo'yicha “XXI asr uchun oliy ta'lim to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi: yondashuvlar va amaliy chora-tadbirlar” deb nomlangan butunjahon konferensiyasida barcha fikr-mulohazalarni jamlagan tarzda quyidagicha ta'rif berilgan: “Oliy ta'lim sohasida sifat ko'pqirrali konsepsiya hisoblangan holda u o'zida barcha funksiyalar va faoliyat turlarini qamrab olishi lozim: o'quv va akademik dasturlarni; ilmiy tadqiqotlar va stipendiyalarni; kadrlar bilan ta'minlangan; ta'lim oluvchilar; binolar; moddiy-texnik baza; asbob-uskunalar; jamiyat va akademik muhit uchun ishlashni”.

Ta'lim – bu iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy turmush sohasida yuqori unumdorlikni ta'minlashga imkon beruvchi kapital qo'yilma bo'lib, inson hayot sifatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Jahon hamjamiyatining ko'pgina mamlakatlari aynan ta'lim jamiyatning rivojlanish istiqbollarini ta'minlaydi degan fikrga kelishgan. Bunda asosan bozor munosabatlari sharoitida oliy kasbiy ta'lim sifatini boshqarishga bo'lgan mavjud yondashuvlarni takomillashtirish muammosi paydo bo'ladi.

Shuningdek, ta'lim — davlat, jamiyat, fuqarolar manfaatini ko'zlovchi maqsadga yo'naltiruvchi o'quv va tarbiya jarayoni bo'lib, uni ta'lim oluvchilarning davlat ta'lim standartlari va talablari bilan belgilangan natijalariga, yutuqlarga erishishini ta'minlashga qaratilgan jarayondir.

XX asrning 90-yillaridan boshlab ta'lim sifati, intellektual resurslar sifati, inson hayoti sifati - asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi.

Ta'lim sifati - ijtimoiy kategoriya hisoblanib, jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasi hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy – faoliyatini turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish shakli va uslublari, material-texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi.

Oliy ta'limda ta'lim sifati – ta'lim modelining kontekstual ko'rsatkichlari, institutsional maqsad va vazifalari hamda ta'lim tizimining aniq standartlari, ta'lim muassasalari, o'quv dasturlari va fanlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali, ko'p darajali dinamik tushunchadir.

Shu sababli ta'lim muassasalarida ta'lim sifati muammosiga ikki xil nuqtai nazardan qarashlari talab etiladi:

- ta'lim muassasasi nuqtai nazaridan. Bunda marketing tadqiqotlar yunalishi – ta'lim jarayonini davlat ta'lim standartiga mosligi bilan belgilanadi;

- ta'lim tizimi iste'molchilari nuqtai nazaridan. Marketing tadqiqotlar yo'nalishi - ta'lim tizimi iste'molchilari talablarini qondirilish darajasi orqali baholanadi.

Ta'lim oluvchilar sifatining ko'rsatkichlarini baholashda o'qiyotgan yo'nalishi bo'yicha kasbiy bilim darajasi, axborot (kompyuter) texnologiyalarini bilish darajasi, chet tili bo'yicha bilimi, muayyan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha o'qishga ishtiyoqi, qiziqishi, intellekti (aql, idrok va zakovati), ma'naviyati, iqtidori, xotira qobiliyati, tartib – intizomi, talabchanligi, ish qobiliyati, kuzatuvchanligi, o'z mavqeini rejalashtirishi kabi omillar muhim hisoblanadi.

Bitiruvchilarga bo'lgan talab, ularning mehnat bozorida raqobatbar- doshligi va yutuqlari kabi omillar bevosita bir-biri bilan bog'liq va bir- birini to'ldiradi.

Shu sababli, bitiruvchining bilim darajasi va malakasini belgilashda ishlab chiqarish korxonalarini rahbarlarining xulosalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasasi reytingini baholash maqsadida bitiruvchilarning ishlab chiqarishdagi mavqei bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va monitoringini yuritish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan istalgan mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish dolzarb vazifa ekanligi, ushbu tizimni rivojlantirish masalalari xususida katta hajmda tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

Ta'lim sifatini zamonaviy boshqarishdagi asosiy hujjatlardan biri standartlashtirish hisoblanadi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) ta'rifiga ko'ra standartlashtirish - ma'lum sohada tartiblashtirish maksadida qoida va talablarni o'rnatish, umumiy maksimal iqtisodga erishishda xavfsizlik va funksional shartlarga rioya qilish jarayonidir.

Standartlashtirishning asosiy funksiyalari:

- turli mamlakatlarda insonlar tomonidan yaratiladigan ob'ektlarni tartiblashtirish (mahsulot, xizmatlar, ishlar, jarayonlar);
- tartiblashtirilgan ob'ektlarga qo'yiladigan talablarni normativ hujjatlarda tasdiqlash;
- normativ hujjatlarni qo'llash qoidalarini o'rnatish.

Xalqaro standartlashtirishning tamoyillari:

Standartlashtirishning kompleksligi. Komplekslik tamoyili-tegishli talablarga javob beradigan mahsulot sifatini belgilovchi omillarni tizimlashtirish va optimallashtirish xolda bir-biriga bog'lash asosida normativ hujjatlarni o'rnatish, tasdiqlash va qo'llash.

Standartlashtirishning ilgarilab rivojlanishi. Bu tamoyil mahsulot sifatiga bo'lgan talablarning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, mahsulotni takomillashtirish bilan bog'liqdir. Zamonaviy texnika vositalarini ishlab chiqilishi, masofaviy boshqarish, innovatsion texnologiyalar yangi ob'ektlarni paydo bo'lishi, yangi standartlarning qabul qilinishini taqozo qiladi.

Tavsiflash (klassifikatsiyalash). Ushbu tamoyil standartlanuvchi ob'ektning tavsiflash va tizimlashtirishni nazarda tutadi.

ISO faoliyati. ISO nizomi tashkiliy strukturani asosiy organlar faoliyati va ish usullarini belgilaydi. ISOning asosiy faoliyati bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- xalqaro standartlarni ISO ning barcha a'zolari kelishuviga ko'ra qabul qilish;
- yangi mukammallashtirilgan standartlarni joriy etishga ta'sir o'tkazish (yordam berish);
- texnik qo'mitalar va tashkilot a'zolari to'g'risida axborot almashinuvini tashkil etish;
- boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatish.

Ta'limda zamonaviy sifat menejmenti - bu rahbarlik va qo'llab-quvvatlashning samarali tarkibi bo'lib, qo'yilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. OTMda sifat menejmenti g'oyalari va usullaridan foydalanish barcha bo'g'inlarda: OTM darajasida, uning bo'limlarida, fakultet va kafedralarida,

talabalar bilimi, malakasi va ko'nikmalari shakllanadigan va iste'molchilar uchun "qadriyatlar, qiymatlar" yaratiladigan auditoriyalarida amalga oshirilishi zarur.

Oliy ta'lim sifatini ta'minlashga ta'lim jarayonining har bir sub'ekti (professor-o'qituvchi, talaba, ota-onalar, ma'muriyat, ish beruvchilar va h.k.lar) manfaatdordir.

Ta'lim jarayonida "sifat" tushunchasini qo'llash mazmunan boshqacha ma'no kasb etadi. "Yuqori sifat" mutlaq tushunchasi ta'limda sifatni boshqarish tizimi bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Sifatni boshqarish borasidagi munozaralarda tez-tez uning yuqori maqomlilikining mutlaq ahamiyati borasidagi savollar paydo bo'lib turadi. Ushbu mutlaqlashtirilgan tushunchalarni qo'llash ta'lim muassasasining imidjini yaxshilash hamda ijtimoiy aloqalari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Ta'limda sifat menejmenti tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta'limga bo'lgan talablarni ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda anglash;
- iste'molchiga mo'ljal olish, mehnat bozoridagi keskin raqobat menejment tizimidan safarbarlik va dinamiklikni talab etadi;
- monitoring natijalarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini doimiy takomillashtirib borish.

Ta'lim sohasida sifat standarti shuningdek, 4 ta quyidagi qo'shimcha tamoyillarni o'zida namoyon etadi:

1. Ta'lim oluvchilar uchun qadriyat. Ta'limdan qoniqqanlik darajasi ta'lim oluvchi ehtiyojlari va kutishlarining mosligi ko'rsatkichi hisoblanadi. Ta'lim muassasasi ta'lim qadriyatlarini oshirish hisobiga sifatni boshqarish jarayonlarini takomillashtiradi.

2. Ijtimoiy qadriyatlarga asosiy e'tiborni qaratish. Kasbiy malakalarni sifatli shakllantirishda ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarda, axloqiy normalarni, atrof-muhit va jamiyat xavfsizligi to'g'risida qayg'urishni singdirish borasida qo'shimcha qadriyatlarni yaratishlari lozim.

3. Tezda o'zgaruvchan ta'lim muhitida o'zgarishlarga tezkor (operativ) ravishda javob berish, tashkilotning barqaror rivojlanishi uchun ta'lim sifatini doimiy (uzluksiz) ravishda takomillashtirib borish zarur.

4. U yoki bu chora-tadbirlar va usullarning foydaliligi haqida qarorlar qabul qilishda ta'lim muassasasining avtonom (mustaqil)ligi.

Ta'lim sifati konsepsiyasini ishlab chiqishda quyidagi savollarga javob berish zarur:

- 1) ta'lim sifati deganda nima tushuniladi?

2) ta'lim sifatini oshirishning umumiy vazifalarini yechishda OTMning sifat tizimi qanday rol o'ynashi lozim?

3) bunday tizimni yaratish qanchalik zarur?

Ta'limning o'ziga xosligi bu avvalo mahsulotlar, iste'mol tuzilmalariga nisbatan juda murakkab hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni natijalari iste'molchilari sifatida ham talabalarning o'zlari ham ularning oilasi, ular ishlaydigan tashkilotlar va nihoyat umumiy tarzda ularning salohiyatidan foydalanadigan jamiyat va davlat hisoblanadi.

Hozirgi davrda jamiyat tomonidan tashkilotning, shu jumladan OTMning sifat sohasidagi muvaffaqiyatini tan olishi o'z ichiga uchta bosqichni oladi:

1. Tashkilot mahsuloti sifati (OTM bitiruvchilari sifati).

2. Tashkilotning ishlab chiqarish (operatsion) tizimi sifati (ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayoni va OTM bitiruvchilari sifati).

3. Umuman tashkilot sifatini oshirish (takomillashtirish) (OTMning menejment sifati, professor-o'qituvchilar tarkibi sifati, ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayoni sifati, OTM bitiruvchilari sifati).

Ta'lim sifati **“Quality of Education”** - bu ta'limning (natija sifatidagi, jarayon sifatidagi, ta'lim tizimi sifatidagi) belgilangan ehtiyojlar, qadriyatlar va normalar (standartlar)ga muvofiq kelishidir. U shunday tushunchalarda namoyon bo'ladi: ta'lim berish sifati (o'quv jarayoni, pedagogik faoliyat); ilmiy-pedagogik kadrlar sifati; ta'lim dasturlari sifati; moddiy-texnika bazasi sifati; talabalar, ta'lim oluvchilar, abituriyentlar sifati; ta'limni boshqarish sifati; ilmiy tadqiqotlar sifati va hokazolar.

Sifat maqsadlarga mos kelish darajasi sifatida hozirgi kundagi eng ko'p ishlatiladigan kategoriyalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sifati va xususan oliy ta'lim sifati bo'yicha adabiyotlar tahlillarining ko'rsatishicha, OTMlarda sifat menejmenti tizimi(SMT)ni qo'llashda o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

-OTM xodimlari uchun ta'lim muassasida sifat menejmenti tizimining zarurligini anglash murakkab;


- aniq xatti-harakatlarda rahbariyatning hal etishi qiyin;

-professor-o'qituvchilar tarkibidagi boshqaruvning yangi tamoyillarini qabul qilishning murakkabliligi;

-ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tamoyillarini joriy etish bo'yicha zaruriy uslubiy qo'llanmalarining mavjud emasligi;

“Ta'lim sifati” fenomeni turli tadqiqotchilar tomonidan ko'p yillar davomida sinchkovlik bilan o'rganilib kelinayotgan tushunchalardan hisoblanadi. Lekin, shunga qaramasdan shu kungacha ushbu tushuncha to'g'rsida tadqiqotchi olimlar va amaliyotchi-mutaxassislar orasida, hamfikrlik mavjud emas. Sababi, ta'lim

sifati yuqori bo'lganligi bilan u amaliyotda kutilgan natijani bermasa, tayyorlangan mutaxassis amaliyotdagi muammolarni yecha olmasa uni to'la to'kis sifatli mutaxassis deb atash mumkin emas.



3.2.1-rasm. Ta'lim sifati tushunchasini tashkil etuvchilar

Shunday ekan ta'lim sifati avvalo, davlat ta'lim standartlarining bajarilish sifatiga, asosan jamiyat va iste'molchilar (mehnat bozori) tomonidan qo'yilgan talablarga, OTM maqsadlari, me'yorlari, unga yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim jarayoni va yakuniy natijalar sifatiga bog'liq (3.2.1-rasm).

Ta'lim sifatini aniqlash borasidagi yondashuvlarning turli-tumanligini ta'kidlab, ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Ta'lim sifati mutlaq baholash sifatida. Mazkur talqinda ta'lim sifati ustuvorlik, mukammallik sinonimi hisoblanadi; o'zida ma'lum bir talabalarga mutlaq muvofiqlik belgisini anglatadi. Ushbu yondashuvga asosan ta'lim sifatini o'lchash murakkab. Ammo, mukammallik – kategoriyasi abstrakt va sub'ektiv bo'lib, uni qabul qilish sezilarli darajada bir-biridan farq qilishi mumkin.

2. Ta'lim sifatining o'ziga xosliklari yig'indisi sifatida. Ushbu ma'noda ta'lim sifati ta'lim xizmatlarining qandaydir o'lchanadigan miqdoriy parametrlari bo'yicha ixtiyoriy hisoblanadi. Ammo, mazkur yondashuv judayam tor hisoblangan tarzda ta'lim xizmatlaridagi uning iste'molchilari uchun bo'lgan ahamiyatini o'zida aks ettirmaydi.

3. Ta'lim sifatining unga qo'yilgan talablarga mos kelishi sifatida. Mazkur izohlashga asosan sifat ko'rib chiqilayotgan sohaga nisbatan qo'llanganda ta'limning o'zida ijtimoiy funksiyalarini bajarish imkoniyatlarini namoyon etadi.

4. Ta'lim sifatining standartlarga mos kelishi sifatida. Mazkur an'anaviy yondashuv uzoq vaqt ta'lim sohasida keng qo'llanilgan. Ushbu yondashuvga muvofiq ta'lim sifati DTS talablari va shartlariga mos kelishi sifatida aniqlanadi.

5. Ta'lim sifati iste'molchilar va boshqa manfaatdor tomonlar talablarini qondirish darajasi sifatida. Aynan ushbu yondashuvning bozor munosabatlari sharoitida keng tarqalayotganligi tasodifiy emas. Bunday yondashuv amalda ishlab

chiqarish sohasidan olingan bo'lib, keyinchalik kasbiy oliy ta'lim sohasiga tarqalgan.

Oliy ta'lim rivojlanishining jahon tajribasini tadqiq etish keyingi vaqtlarda ta'lim sifati borasidagi javobgarliklarni universitetlarning o'ziga yuklash, bu borada ular vakolatlarining kengayib borish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Masalan, Xitoy, Sharqiy Yevropa, Janubiy Amerika va Skandivaniya davlatlari oliy ta'lim tizimlarida sifat bo'yicha javobgarlik vakolatlari borasida ushbu mamlakatlarning oliy maktablarining o'zini-o'zi boshqarish tomoniga o'zgarishlar kuzatilayotganligini ko'rsatmoqda. Ammo, ushbu tendensiyaning ijobiy tomoni ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish uchun universitet mas'ulligi ahamiyatining o'sib borishini keltirib chiqarmoqda.

Hisobotlilik aspektining muhimligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) oliy ta'limning ommaviyligi va sarf-xarajatlarning o'sishi davlat va xususiy sarf-xarajatlarni taqsimlashning ochiq-oydinligini talab etadi;
- 2) talabalar sifatli akademik dasturlarni talab qiladilar;
- 3) jamiyat universitetlar ta'lim dasturlari sifati to'g'risidagi axborotlarni kuchaytirishni talab etmoqda.

Sifatni ta'minlashning keyingi muhim mexanizmi bo'lib, oliy ta'lim tizimini akkreditatsiyalash hisoblanadi. Oldinlari akkreditatsiyalash AQShda ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan va yetarlicha Markaziy va Janubiy Amerika, Sharqiy Yevropada keng tarqalgan. 1980 yillarda akkreditatsiya ta'lim jarayoni sifatini nazorat qilish shakli sifatida Hidistonda, keyinroq esa, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida keng tarqaldi. Akkreditatsiyalash oliy ta'lim sifatini oshirish usuli sifatida AQShda paydo bo'lib, keng tarqalgan. AQShda oliy ta'limni akkreditatsiyalash sohasi bo'yicha Kengashda to'plangan tajribalarni hisobga olish muhim hisoblangan.

Shunday qilib, bugungi kunda sifat jahondagi yuqori rivojlangan mamlakatlar hayot faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, ta'limda taraqqiyot ustuvorligini aniqlovchi asosiy omilga aylanib bormoqda.

- OTMlarni davlat tomonidan moliyalashtirishning qisqarishi;
- akademik ta'limning mehnat bozorida tezda o'zgarayotgan talabalarga noqodirligi;
- oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojning shiddat bilan ortishi;
- davlat va tijorat OTMlar sonining ortishi, bitiruvchilar va talab etilayotgan mutaxassislar sonining bir-biriga nomuvofiqliligi;
- jamiyatning barcha qatlamlari uchun oliy ta'limni olishga bo'lgan imkoniyatlarning ortishi natijasida abituriyentlarga bo'lgan talablarning pasayishi;
- talabalar, mutaxassislar va professor-o'qituvchilar tarkibi safarbarligining ortishi.

3.3. Oliy ta'limda sifat menejmenti tizimining joriy etilishi va rivojlanish strategiyasi.

Yaxshi strategiya va strategiyani a'lo darajada amalga oshirish - yaxshi boshqaruvning eng ishonchli belgisi. Shunday ekan, istiqbolni aniq bashorat qilish uchun strategiya zarurdir. Chunki, strategiya - bu istiqbolni tadqiq qilish, turli ssenariyalarni tahlil etish san'ati hamda istiqbolda raqobat kurashida afzallik beruvchi g'oyadir. Boshqaruv strategiyasi - bu strategik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatdir.

Tashqi muhitdagi oshib borayotgan o'zgaruvchanlik va ushbu noaniqliqlar bilan bog'liq sharoitda tashkilot rivojlanishini boshqarishning zamonaviy dastagi bo'lib strategik boshqaruv metodologiyasi hisoblanadi.

Strategik boshqaruv metodologiyasi-strategik boshqaruvning asosiy uslublari, usullari va shakllarining yagona dinamik tizimidir.

Endi umuman strategik boshqarishning asosini tashkil etuvchi strategiya tushunchasining mohiyatiga keladigan bo'lsak, "strategiya" tushunchasi boshqaruv nazariyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategiya yunoncha ("strategos") so'z bo'lib, "general san'ati" degan ma'noni bildiradi. Hozirda strategiya tushunchasi insonlar dunyoqarashining ajralmas elementi bo'lib hisoblanadi.

Strategik boshqarish bo'yicha taniqli olim I.Ansoff strategiyaning to'rtta asosiy komponentlarini shakllantiradi:

O'zaro bog'liq strukturalar "mahsulot"- "bozor";

O'sish vektori (ya'ni, ushbu strukturaning rejalashtirilgan o'zgarishi);

Raqobat ustuvorligi (ya'ni ushbu strukturalarning xususiyatlaridan tarkib topgan ustuvorlik);

Sinergiya.

R.Metyuz strategiyani tashkilot maqsadlarining ma'lum strukturasining uning imkoniyatlariga mosligida deb hisoblaydi.

Strategik boshqaruvning vazifalari va rolining o'zgarishi uchun asos bo'lib bir tomondan AQSh va Yevropaning yetakchi davlatlarida iqtisodiyotning gurkirab rivojlanishi, boshqa tomondan esa insonning amaliy faoliyatiga bilim talab etadigan texnologiyalarning keng ko'lamda kirib kelishi sabab bo'ldi.

Zamonaviy menejment klassiklaridan biri bo'lgan Piter Druker uni qonuniyatlarga ega bo'lmagan bosqich deb hisoblaydi. Iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ushbu bosqichida nafaqat yangi korxonalar yoki firmalarning boshqarish tizimini tashkil etish, balki strategik va operativ marketingni o'z ichiga oluvchi boshqaruvning sifat va mohiyati o'sib borayotganligi muhim hisoblanadi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, strategik boshqarish (menejment)ning mohiyati quyidagi uchta muhim savolga javob berishdan iborat:

- tashkilot hozirgi vaqtda qaerda turibdi?
- kelajakda u qanday yo'nalishlarda rivojlanishi lozim?
- u rahbariyat ko'rishni xohlagan holatga qanday qilib erishadi?

Ushbu savollarga strategik menejmentning uchta asosiy davrlari mos keladi: strategik tahlil, strategik tanlash (yoki xususiy strategik rejalashtirish) va strategiyani amalga oshirish.

Strategik rejalashtirish strategik boshqarishning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Yoki bo'lmasa, yanada aniqroq qilib aytganda, "Strategik rejalashtirish-bu rejalashtirishlar bo'yicha boshqarish bo'lsa, strategik menejment-bu natijalar bo'yicha boshqarishdir". Strategik menejment-o'z ichiga ham ishlanmani ham strategiyani amalga oshirishni qamraydigan tashkilotlar barcha vazifalarini qamraydi.

Marketing strategiyasi an'anaviy tarzda «4R» - tovar (product), narx (price), taqsimlash(joylashuv) kanallari (place) va kommunikatsiya (promotion) asoslanadi. 1981 yilda Bums va Bitner uchta qo'shimcha R marketing-miksni taklif etishgan.

Ushbu modelni xizmatlarga qo'llagan holda "7R" gacha kengaytirishdi, ya'ni jarayon (process), moddiy ashyoviy dalillar (physical evidence) va insonlar (people). Bunda shunga e'tibor qaratish kerakki, qo'shilgan 3R(jarayon, moddiy ashyoviy dalillar va insonlar) ta'lim muassasi ishining ichki muhitiga to'g'ridan-to'g'ri munosabatda bo'ladi. Shunga muvofiq OTMlar aynan ushbu marketing strategiyasiga asosiy e'tiborini qaratishlari kerak bo'ladi.

Ta'lim xizmatlari bozoriga nisbatan qo'llaniladigan marketingning asosiy tushunchalari borasidagi har xil yondashuvlarni o'rganish hozircha turli xil muammolar borasida aniq bir yondashuvning mavjud emasligini ko'rsatadi. Ba'zi bir holatlarda asosiy diqqat "OTM-talaba" va boshqalarida "davlat-OTM" yoki "OTM-mehnat bozori" munosabatlariga qaratiladi.

Aniq sinchovlik bilan ishlab chiqilgan strategiya tashkilotga o'z faoliyat yuritishidagi asosiy maqsadga mo'ljal olishga imkon beradi. Bu o'z navbatida oliy talim muassasalariga ham taalluqli.

Asosan bilimlar iqtisoditiga o'tish sharoitida OTMlar tomonidan strategiyani shakllantirish masalalarining dolzarbligi ortib boradi. Kotsepsiya harakatlar strategiyasini aniqlashga imkon beradi.

Shu sababli OTMlarning strategiyasini shakllantirishning konseptual asoslarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati kelib chiqadi.

OTM strategiyasining mazmun-mohiyatining tashkil etuvchi asosiy komponentlar bo'lib, missiya, kelajakni ko'rish, asosiy qadriyatlar, strategik maqsadlar hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan elementlarning ayrimlarini kengroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, missiya tushunchasi quyidagi konsepsiyalarni o'z ichiga oladi:

- maqsad(tashkilot erishishi rejalashtirilayotgan yakuniy natija);
- tashkilotning ushbu maqsadga erishishdagi ishtirok etish usuli;
- ahamiyati-missiyaga erishishni tasdiqlash.

Shunday qilib, OTM missiyasini shakllantirishda OTMning yakuniy maqsadini belgilashi, ya'ni unga qanday xatti-harakatlar orqali erishiladi, shuningdek qo'yilgan maqsadlarga erishish borasidagi ustuvorliklarni aniqlashi zarur bo'ladi.

Kelajakni tassavvur etish OTM strategiyasi elementi sifatida o'zida OTMning uzoq muddatli istiqbolda qabul qilishi lozim bo'lgan shaklini o'zida namoyon etadi. Kelajkn ko'rish OTM rahbariyatiga qanday faoliyat turlarini amalga oshirish, hudud rivojlanishida OTMning o'rnini, qaysi yo'nalishlarda rivojlanishini, shuningdek, uzoq muddatli davrda OTM xizmatlarining iste'molchisi kim bo'lishini aniqlash imkonini beradi.

3.4. OTM bitiruvchilari sifatini oshirish muammolari va yechimlari.

Zamonaviy dunyoda barcha mamlakatlar ta'limning rolini davlatning rivojlanishidagi bilimlar jamiyatining asosiy komponentlari sifatida angladi. Bundan tashqari ta'lim tarmog'i rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu yerda mazkur tarmoqning ikkita iqtisodiy salohiyatini tashkil etuvchisini-oliy ta'limning ichki bozorini va xalqaro bozori (oliy ta'lim eksporti)ni ajratish lozim.

Bilimga asoslangan jamiyat iqtisodiy faol kishilarning oliy ma'lumotli bo'lganlarining ulushi taxminan 60 foizni tashkil etishini talab etadi. Bu har qanday mamlakat ta'lim bozori salohiyatini baholashga imkon beradi.

Klassik iqtisodiyot nazariyasi mehnat, kapital, yer va tadbirkorlikni resurs deb hisoblaydi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida vaziyat boshqacha. So'z bu yerda mehnat to'g'risida emas, balki yuqori malakali xodim mehnati haqida boradi. Bugungi kunning o'zidayoq jamiyat va iqtisodiyotda hal qiluvchi rolni yangi turdagi – intellektual xodimlar (intellectual employees) o'ynamoqda. Hattoki eng zo'r kompaniyalarda ham ular kamchilik (12-15 foiz)ni tashkil etishib, ammo aynan shularning mehnatidan globallashuv sharoitida kompaniyalarning nafaqat raqobatbardoshligini, balki ularning faoliyat yuritishi bog'liq bo'lib bormoqda.

Bugun innovatsion iqtisodiyotdagi resurs - bu g'oya. G'oya bu eng asosiy

resurs. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat va kapital faqat g'oya paydo bo'lgandan keyingina namoyon bo'ladi. Masalan, avvalo uyali(mobil) aloqa g'oyasi paydo bo'lgan, keyinchalik ushbu g'oyani real uyali telefonga aylantiradigan ishlab chiqarish yaratilgan.

Innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining asosiy sharti intellektual resurslar ta'lim tizimi va ilmiy baza hisoblanadi. Oldinlari ko'pgina faylasuflar tomonidan jamiyatning oliy maqsadi borasida shaxsning rivojlanishi (nafaqat ta'lim berish, qayta o'qitish, malakasini oshirish) ta'kidlangan.

Yuqori malakali boshqaruvchilar, muhandislar, iqtisodchilar, vrachlarning mavjudligi ijtimoiy-iqtisodiy o'sish tezlashishining muhim sharti bo'lib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mutaxassislar tayyorlash borasida mana shunday sifatli sakrashlar o'z vaqtida ko'pgina yuqori rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ro'y bergan.

Mutaxassislarni tayyorlash vazifalarini hal etish ta'limga ajratiladigan sarf-xarajatlarni oshirishni talab etadi. Masalan, 2013 yilda ta'limga ajratilgan xarajatlar Buyuk Britaniyada jami xarajatlar tarkibida 5,6 foizni, Fransiyada-5,6 foizni, Shvesiyada-6,7 foizni AQShda-5,5 foizni va Rossiyada-4,1 foizni tashkil etgan.

Masalan, ba'zi bir eksportdan keladigan daromadlarni baholashlarga ko'ra AQSh budjetiga iqtisodiyot tarmoqlaridan keladigan daromadlar orasida oliy ta'lim eksportidan keladigan daromadlar ulushi bo'yicha 5 o'rinda turadi. Avstraliya va Yangi Zelandiyada boshqa mamlakatlar fuqarolariga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlaridan keladigan daromadlar ularning eng muhim eksport tovari bo'lgan jun eksportidan keladigan daromadlar bilan teng bo'ladi.

A.Meddison tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan aholi ta'lim darajasi orasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Shu narsa aniqlanganki, ta'lim ajratilgan mablag'lar 1 foizga ortsa bu o'z navbatida mamlakat YaIMning 0,35 foizga ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, ba'zi bir baholashlarning ko'rsatishicha, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim davomiyligining 1 yilga ortishi YaIMning 5-15 foizga ortishiga olib keladi.⁹⁴

Ta'limning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish shuningdek, YeI mamlakatlarida ham olib borilgan. Natijada, hayratlanarli tasdiqlar olindi, ya'ni ta'lim darajasining ortishi makroiqtisodiy unumdorlikni oshiradi. Xususan ushbu tadqiqotlarning ko'rsatishicha:

1) o'rta maktabga borishning 1 foizga ortishi YaIMning aholi jon boshiga yiliga 1 foizdan 3 foizgacha ortishga olib keladi;

2) bir yilga o'rtacha statistik ta'limning ortishi aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarishni 6 foizga ko'taradi;

⁹⁴ Angus Maddison. "Historical Statistics on World Population, GDP and Per Capita GDP, 1 – 2008 AD".

3) Oliy ma'lumotlilar orasida inson kapitalining yiliga 1 foizga ortishi aholi jon boshiga YaIMning 5,9 foizga o'sishini ta'minlaydi.

Oliy ta'limning yangi siyosati va yangi paradigmasi insonning butun hayoti davomida ta'lim olishida o'zining konseptual asosiga ega bo'lishi lozim. Buning uchun o'z ishini yangilab turishni o'rganish kerak bo'ladi, ya'ni bunda yangi kasblarni o'rganish, qo'shimcha tayyorlashni ta'minlash, shuningdek, asosiy fanlar bo'yicha fundamental tayyorlanishlar bilan bir qatorda keng va ko'p tomonlama dasturlarni taklif qilish lozim. Turli o'quv kurslari va fanlari orasida "ta'lim zanjirlari"ni yaratish va oraliq diplomlar berishni yo'lga qo'yish zarur.

Yangi ta'lim tizimining yana bir o'ziga xos jihati bo'lib mustaqil ta'lim, mustaqil o'qish ta'limning yetakchi shakli sifatida qaror topishidir. Yangi ta'lim tizimining bosh yo'nalishi — bilimni bunyodga keltiruvchi ta'limga o'tish. Bu ta'lim sifati masalasini tubdan o'zgartirishga imkon beradi. Yangi ta'lim tizimi yana bir xususiyati butun umr mobaynida bilim olishga qaratilganligidir.

An'anaviy ta'lim tizimi, asosan, insonni yosh vaqtida o'qitishga yo'naltirilgan edi.

Xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda mehnatni aqliylashtirish strategiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va u uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1) yuqori kasbiy darajaga ega xodimlar faoliyatining mazmuni tarzidagi ijodiy mehnatni (ijodiy qobiliyatga ega xodimlar: mutaxassislar, ma'muriy boshqaruv xodimlari, yuqori malakali ishchilar, fermer va boshqalar, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniyada ish bilan band bo'lganlar umumiy sonining 40-50 foizni tashkil etadi);

2) yarim qoidaviy, andozadagi faoliyat turi xos bo'lgan kasblar sohasida ijodiy unsurlarni mustahkamlash (ma'muriy-yordamchi xodimlar, savdo va xizmat sohasi xodimlari). Yuqorida nomlari keltirilgan davlatlarda bular 25-30 foizni tashkil etadi;

3) o'rta va past malakali ishchilar, shunday toifadagi xizmat ko'rsatuvchi xodimlar orasidagi malakasiz, jismoniy og'ir bo'lmagan, bir tahlitdagi ishlarni minimal darajaga keltirish. Bu guruh sanoati rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar umumiy sonining 20-30 foizni tashkil etadi.

Shuni qayd etish lozimki, mehnat bozorida malakasiz ishchi kuchlar asta-sekin kamaymoqda. Buning birinchi bosqichi XX asrning 50-yillarda sodir bo'ldi, ikkinchi bosqich - ijtimoiy mehnatni akliylashtirish 60-70-yillarda boshlandi va hozirgacha davom etmoqda. Mehnat bozorida malakasiz ishchi kuchlarning chiqib ketishiga bir qator omillar sabab bo'ldi, lekin shulardan asosiysi ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish hisoblanadi. Mehnat

resurslarini kasbiy ta'lim tayyorlashni tezlashtirishi va uning darajasini kollej darajasiga ko'tarish mehnatni aqliylashtirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Buni, masalan, Yaponiya singari mamlakatlar yaxshi anglab yetadi, bu davlatda «Xalq xo'jaligini intellektlashtirish va aholi qobiliyatini rivojlantirish to'g'risida»gi keng konsepsiya qabul qilingan. AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya va Shvesiyada ham shunday dasturlar qabul qilingan. Bu mamlakatlarda davlat boshchiligidagi mehnat resurslari siyosati, ikki bosqichda olib boriladi: an'anaviy rasmiy ta'lim tizimida (maktablar, kollejlari, OTMlar, doktoranturada) va keyingi bosqichda, ya'ni ilmiy va o'quv markazlari, maxsus kurslar va shu kabilar orqali keyingi ixtisoslashuv va kadrlarni qayta tayyorlashda. Bunda barcha ta'lim muassasalarining asosiy e'tibori shaxs qobiliyatlarini aniqlashga, uning o'ziga xos xislatlarini e'tiborga olishga qaratiladi.

Demak, bugungi davrda har bir mamlakat jahon hamjamiyatidagi o'z o'rnini saqlab qolishi, mustahkamlashi uchun avvalo, ta'lim sifatini ta'minlashi va uni doimiy ravishda oshirib borishi lozim. Bu o'z navbatida ushbu mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligini ta'minlashdagi eng muhim omil hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy sifat menejmentini joriy etish boshqa tarmoq va sohalarda faoliyat yurituvchi tashkilotlarda ishlab chiqilgan va joriy etilgan o'xshash tizimlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanishadigan tashkilotlar qator o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan bog'liq va bular quyidagicha:

*Birinchi*dan, masalan, sanoat korxonasi bilan farqli ravishda ular jonsiz mahsulot ishlab chiqarishmaydi. Xizmat iste'moli ularni ishlab chiqarish jarayonidan oq boshlanadi.

Bu sifatga talabni oshirishni taqozo etadi sababi ta'limda "nuqsonlar"ni to'g'irlash juda qiyin yoki umuman iloji yo'q.

*Ikkinchi*dan, ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotlardagi mutlaq ko'pchilik xodimlar (professor-o'qituvchilar tarkibi va yordamchi tarkib) bevosita iste'molchilar (talabalar) bilan aloqa qilishadi. Xizmatlarni ko'rsatish jarayonida iste'molchi qabul qiladi va baholaydi ba'zan ongli tarzda, bunda akademik darajada, kasbiy bilimlar, ta'lim muassasalari xodimlarining ijtimoiy ko'nikmalari va boshqa parametrlari ta'sir etadi.

Bu ta'lim sifatining integral iste'mol bahosiga ta'sir etadi, uni barqaror etadi, faqat o'quv jarayonining sifatini oshirishga yo'naltirilgan hatti-harakatlar hisobiga uning qisqa muddatlar ichida o'zgarishini qiyinlashtiradi.

*Uchinchi*dan, OTM tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar chegaralari keng diapozonda amalga oshiriladi. Ular ta'lim standartlari yoki o'quv rejalari asosida amalga oshirilishi mumkin. Ko'pgina holatlarda xizmatlar ta'lim muassasalari va

iste'molchilar (korporativ yoki xususiy) o'rtasidagi kelishuvlar asosida etilib, bu o'z navbatida sifatni kompleks boshqaruv zaruriyatini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, OTMning mutaxassislari (shu jumladan professor-o'qituvchilari) ta'lim dasturlari va o'quv rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ma'lum bir darajalarda erkinlikka egaliklari bois, ularning shaxsiy kompetensiyalari talab etilayotgan natijalarni olishda muhim ahamiyatga ega. Boshqa tomondan u ta'lim sifatiga hal etuvchi darajada ta'sir etishi mumkin. Muvofiq ravishda aynan sifatni "total" boshqarish talab etiladi. Bitta OTMda samarali bo'lgan yondashuv boshqa bir OTMda mazkur yondashuv samarasiz ham bo'lishi mumkin.

Beshinchidan, ko'pgina ta'lim xizmatlarining bajarilishini boshqarish loyihani boshqarishga o'xshash tavsifga ega. Bu sharoitlarda oraliq va yakuniy natijalarni olish bosqichlari aniqlangan, sifatli ta'lim olishda ularning ulushi baholangan va alohida ishbilarmonlik jarayonlari aniq ajratilgan va qayd etilgan bo'lishi lozim.

Ta'lim jarayoni va uning mahsuloti sifatini oshirish uchun nafaqat yangi tizimlarni, balki mos dastaklar bilan mustahkamlangan kompleks boshqaruv texnologiyalarini joriy etish talab etiladi.

Oxirgi paytlarda OTMlarda amalda beriladigan ta'lim darajasi bilan xodimlarga kerak bo'ladigan bilim va malakalar orasida chuqur farqlar namoyon bo'lib bormoqda. Ta'lim tizimining o'zida judayam ko'p yetishmovchiliklar va xarajatlar ko'p. Ko'pgina talabalar o'qishlarini tashab ketishmoqda, shu jumladan OTM bitiruvchilarida ko'pincha kerakli malakalar yetishmaydi. Bugungi kunda sanoat korxonalarini zaruriyat sezayotgan malakaning o'zi nima?

Albatta akademik bilim bugungi kunda kerak. Aynan tayyorlashning ushbu qismi bo'yicha e'tirozlar yo'q. Boshqa narsa tashvishlantiradi - tabiiy va texnik bilim sohalarida ta'lim oluvchi talabalar sonining qisqarishi. Yaxshi tayyorlangan injenerlarga bo'lgan talablar ortib bormoqda.

Akademik muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda bugungi kunda mutaxassislarning bir qator sifatlariga ega bo'lishi muhim bo'lib, ular asosan:

- og'zaki va yozma kommunikatsiyalarda yaxshi shakllangan malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari;
- matematika va tabiiy fanlarning asoslarini tushunishlari;
- axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari;
- tanqidiy fikrlash;
- uzluksiz ta'lim olishga ehtiyoj sezish;
- guruhlarda ishlay olishi;
- ijodiy va tashabbuskor bo'lishlari; doimiy ishlash, shaxsiy intizom, ma'lum bir xatti-harakatlarni talab etuvchi qobiliyatga ega bo'lishi;

- sog'lom raqobat sharoitida ishlashdan huzur olishlari;
- o'zining madaniy qabul etuvchanligini namoyon eta olishlari, shu jumladan xalqaro darajalarda;
- natijaga yo'naltirilgan bo'lishlari va mustaqil qaror qabul qilishdan qo'rqmasliklari.

Bilimlar jamiyatiga kirish uchun xodimlar bilan ishlay olish malakasiga, doimiy rahbarlik qilib turishlariga ehtiyoj sezmaydigan, noaniqlik sharoitlarida harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, murakkab muammolarni hal etishda mustaqil ravishda yo'llarini topa oladigan har tomonlama rivojlangan, doimiy o'z bilimlarini oshirib boradigan kishilar kerak bo'ladi.

Albatta sanoat mutaxassis-professionallarga ehtiyoj sezadi. Lekin sof professionalni boshqalar qiziqitirmaydi, guruhlarda ishlay olmaydi, bilimlarni hamkorlikda foydalanish qobiliyatiga ega emas, aksariyat hollarda zamonaviy korxonalariga foyda olib kelishdan ko'ra zarar olib keladi.

Aytilganlar talab va taklifning mos kelmasligi - faqat oliy ta'limning muammosi deganni anglatmaydi. Bunday holatning sababi ko'pincha-ta'lim zanjirining oldingi bo'g'inlarining qoldiqlaridir. Aksariyat OTMlarda kamdan-kam hollarda ta'lim berish shaklining guruhlarda jamoa bo'lib ishlash imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Aynan oliy ta'lim mazkur "qo'shimcha ko'nikmalar"ga ega bo'lish borasida asosiy javobgarlikni oladi.

Nazorat savollari.

1. Paradigma nima?
2. Hozirgi davrda yangi boshqaruv paradigmasini tashkil etuvchi yondashuvlar tizimi qanday ko'rsatmalarga asoslanadi?
3. Yangi paradigmada qanday tizim sifatida qaralmoqda?
4. Bugungi kunda fan va ta'lim tobora kuchliroq tarzda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanmoqda. Buning sababi nima deb o'ylaysiz?
6. Oxirgi yillarda butun dunyo oliy ta'limini boshqarish borasidagi zamonaviy paradigma rivojlanishining asosiy trendlarini sanab o'ling.
7. Jahon miqyosida "Oliy ta'lim sifati" so'z birikmasi qachondan ishlatila boshlangan?
8. Ta'lim va ta'lim sifati deganda nimalarni tushunasiz?
9. Xalqaro standartlashtirishning tamoyillari sanab bering.
10. Ta'limda zamonaviy sifat menejmenti deganda nimalarni tushunasiz?
11. Ta'limda sifat menejmenti tizimi qanday tamoyillarga asoslanadi?
12. Ta'lim sifati tushunchasini tashkil etuvchilarni sanab o'ling.
13. Strategik boshqaruv metodologiyasi deganda nimalarni tushunasiz?

14. An'anaviy ta'lim tizimi, asosan nimaga yo'naltirilgan edi?
15. Innovatsion ta'lim deganda nimalarni tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabr "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to'g'risida» gi O'RQ-630-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni,
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrda "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

Maxsus adabiyotlar:

11. Badeeva, Ye.A. (2012), Universitetskoe planirovanie v ramkax protsessnogo podxoda: monografiya, Moskva: Izdatelskiy dom Akademii Yestestvoznaniya. <http://econom.kxsu.ru> [Dostup 24 marta 2010 g.]
12. Balmasova T.A. «Tretya missiya universiteta» –novyy vektor razvitiya? // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2016. – № 8-9. – S. 48-55.

13. Vatagina M.V. Strategicheskie napravleniya v razvitii marketingovoy deyatel'nosti vuzov // Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta MVD Rossii №2(42)2009. S.113-116.

14. Veretennikova, O. B., Drantusova, N. V., Klyuev, A. K., Kortov, S. V., Maydanik, V. I., Malysheva, L. A., Popova, L. N. (2008), Razrabotka strategii obrazovatel'nogo uchrejdeniya: metodicheskie rekomendatsii, Yekaterinburg: Universitetskoe upravlenie: praktika i analiz.

15. Vissema Yoxan G. Universitet tretego pokoleniya: upravlenie universitetom v perehodnyy period. – M.: Sberbank, 2016. – 422 s.

16. Volkova N. S. Analiz sistemy dopolnitelnogo professional'nogo obrazovaniya Rossii i yego rol v sovremennykh usloviyax // Molodoy uchenyy. — 2012. — №5. — S. 412-415. — URL <https://moluch.ru/archive/40/4761/> (data obrasheniya: 28.08.2019).

17. Gafurov I.R., Vasilev V.L., Kashbieva R.R. Innovatsionnyye klasteryy i sotsialno-ekonomicheskoye razvitiye regionov: analiz metodicheskikh podkhodov. – M.: «Ankil», 2012. – 292 s.

18. Golovko N.V., Zinevich O.V., Ruzakina Ye.A. Universitet tretego pokoleniya: B. Klark i Y. Uisema // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2016. – № 9. – S. 40-47.

19. Kargin D.B. Predprinimatelskoye obrazovanie, predprinimatelskiy universitet, kommersializatsiya texnologiy. Astana, 2016: http://www.enu.kz/downloads/materials/Kargin.Predprinimatelskoye_obrazovanie.pdf.

20. Klaus Shvab «Chetvertaya promyshlennaya revolyusiya»: E. Moskva. 2016. 48 s.

21. Konstantinov G.N., Filonovich S.R. Chto takoye

22. predprinimatelskiy universitet // Voprosy obrazovaniya. – 2007. – № 1. – S. 49-62.

23. Krasinskaya L.F. Modernizatsiya, optimizatsiya, byurokratizatsiya...Chto ojidaet vysshuyu shkolu zavtra? // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2016. – № 3. – S. 73-82.

24. Ksendzova G. F. Tendentsii razvitiya marketingovogo upravleniya na rynke obrazovatel'nykh uslug // Istoricheskaya i sotsialno-obrazovatel'naya mysl. – 2012. – № 3. – S. 118–121.

25. Xagurov T.A. Vysshee obrazovanie: mejdu sluzheniem i uslugoy // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2011. – № 4. – S. 47-57.

26. Myagkov G.P., Buxaraev V.M. Transformatsiya klassicheskogo universiteta v usloviyax «tekuchey sovremennosti» // Klassicheskii universitet: istoriya i sovremennost: materialy Vseross. S

27. mejdunarodnym uchastiem nauchno-prakticheskoy konferensii, posvyashchennoy 85-letiyu Udmurtskogo gos. un-ta; Ijevsk, 3-4 fevralya 2016 g. /otv. red. i sost. V.V. Puzanov, D.V. Repnikov. – Ijevsk: Izdat. sentr «Udmurtskiy universitet», 2016. – S. 56-61.
28. Samoilenko K.A. Perspektivy razvitiya innovatsionnopredprinimatelskix universitetov: http://ir.znau.edu.ua/bitstream/123456789/1983/1/Nauk_chut_2014_3_177182.pdf.
29. Tazarbekov K.A. K razrabotke «Dorojnoy karty transformatsii universiteta «Turan» v innovatsionno-predprinimatelskiy universitet». Tezisy.-almaty: Universitet «Turan», 2016. -36 s.
30. Pasport prioritetnogo proekta «Vuzы kak
31. sentry prostranstva sozdaniya innovatsiy». – URL: <http://government.ru/media/files/OnTUMegFLNj5Uqtac57yWG1EtMG9ABe.pdf>
32. Shuklina Z. N., Eshonov R. R., Xadanovich N. V. Vыbor instrumentov i strategiy benchmarkinga v riskovoy konkurentnoy srede // Molodoy uchenyy. — 2017. — №12. — S. 387-392. — URL
33. Щелkunov M.D., Nikolaeva Ye.M. Obrazovanie v XXI veke: pered lisom novyx vyzovov. – Kazan: Kazan. gos. un-t, 2010. – 156 s.
34. Shadrikov V., Gevorkyan Ye. O protsedure kompleksnoy otsenki vuza // Vыsshee obrazovanie v Rossii. 2001. № 1.
35. Shuls D.Ye., Tannenbaum S.S., Lauterborn R.F. Novaya paradigma marketinga. Integrirovannyye marketingovyye kommunikatsii: Per. s angl. M.: INFRA–M, 2004.
36. Щелkunov M.D. Universitety pered lisom globalnykh vyzovov: rossiyskiy put // Poisk. Alternativы. Vыbor. – 2016. – № 3. – S. 48-59.
37. Щелkunov M.D., Nikolaeva Ye.M., Fursova V.V. Na puti k mejdunarodnomu priznaniyu: Kazanskiy federalnyy universitet kak sub'ekt globalnogo prostranstva vыsshego obrazovaniya. – Kazan: Izd-vo Kazan. un-ta, 2016. – 140 s.
38. Clark B. Creating Entrepreneurial Universities: Organization Patxways of Transformation. – Guildford, UK: Pergamon, 1998. – 163 r.
39. Etzkowitz X., Leydesdor L. Txe Triple Xelix
40. University-Industry-Government Relations: a Laboratory for Knowledge-Based Economic Development // EASST Review. – 1995. – Vol. 14. – № 1. – P. 14-19.
41. E3M-Project. (2012). Green Paper «Fostering and Measuring Txird Mission in Xigxer Education Institutions». – URL: <http://www.e3mproject.eu>

docs/

Greenpercentage20paper-p.pdf

Sarax Lurman. The Tradition of Need – Blind Admissions Is Starting to Die // Street Journal. 1994. № 5 (Jan.).

42. Summarized from Sarax Lurman. A Student of Value' Means a Student a no Can Pay the Rising Cost of College // Wall Street Journal. 1994. № 5 (Jan.).

Internet saytlar:

43. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

44. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

45. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

46. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet

47. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI


1-MAVZU. TADBIRKORLIK UNIVERSITETI - UNIVERSITET-3.0 KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH CHORA-TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH

(2 soat)

Amaliy mashg'ulotda ta'lim muassasining ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritishi uchun ta'sir etadigan muhim tashqi va ichki omillarni tahlili, oliy ta'lim muassasi faoliyatini takomillashtirish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish, oliy ta'limning marketing muhitini baholash va prognoz qilish kabi masalalar o'rganiladi.


Har qanday tashkilot(OTM)ning bozor muhitidagi faoliyatini prognoz qilish uchun STEP–tahlili, shuningdek, mintaqaning ta'lim xizmatlari bozori jozibadorligini reyting baholash keng qo'llaniladi. Ushbu usulning mohiyati har qanday tashkilot (OTM)ga ta'sir etuvchi tashqi, ijtimoiy-demografik, texnologik, iqtisodiy va siyosiy-huquqiy omillarni aniqlash hisoblanadi. Mazkur tahlil usuli orqali kelajak uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish mumkin. Mazkur tahlil usulining muhim elementlarini quyidagicha izohlash mumkin.

Siyosiy-huquqiy muhit. Ta'lim muassasi tomonidan qabul qilinadigan marketing qarorlari siyosiy va qonunchilik sohalarida ro'y berayotgan sezilarli darajadagi hodisalar ta'sirida qabul qilinadi(1-rasm).



1-rasm. Siyosiy-huquqiy muhit.

Iqtisodiy muhit. Ta'lim tizimidagi inqirozni aniqlovchi jamiyat iqtisodiy muhitining bir muncha o'ziga xos muhim xususiyati korxonalar daromadi umumiy darajasining va aholi xarid qobiliyatining pasayishi hisoblanadi. Iqtisodiy muhit o'zgarishi nafaqat miqdoriy balki ta'limda, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabda tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan qator muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi(2-rasm).




2-rasm. Iqtisodiy muhit.

Shubhasiz mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat barcha faoliyat sohaslariga, shu jumladan ta'lim sohasiga ham sezilarli darajada ta'sir etadi. Respublikamizda ta'lim tizimi chegaralarini o'zgartirish, yangi davrga moslashtirish davri ancha oldin paydo bo'lgandi.


Avvalo bu yerda so'z ta'limga investitsiyalar kiritish borasida bo'lib, bunda nafaqat davlat tomonidan, balki mutaxassislar iste'molchilari-korxonalar tomonidan kiritiladigan investitsiyalar haqida bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasiga investitsiyalar eng ishonchli va yuqori qaytimli sohalardan hisoblanadi. Masalan, amerikalik ekspertlar baholashlariga ko'ra, ta'lim tizimiga 1 dollar sarflash 3 dan 6 dollargacha foyda olish imkoniyatini beradi.

Demografik muhit. Demografik omillar va aholining rivojlanish tendensiyalari qisqa va o'rta muddatli davrlarda o'ziga xos barqarorlik bilan farqlanadi va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab kon'yunkturasida muhim rol o'ynaydi(3-rasm).



3-rasm. Demografik muhit.

Ijtimoiy-madaniy muhit. Ta'lim boshqa xizmat turlaridan farqli o'laroq madaniyatga ancha yaqin va undan ajralmasdir. Madaniyat- bu shaxsning muomala qilishiga yordam beradigan qadriyatlar, g'oyalar artefakt(su'niy qilingan)lar va boshqa ramzlar yig'indisidan iborat bo'lgan, shuningdek bir-birini jamiyat a'zolari sifatida tushuntirish va baholashning murakkab majmuadir(5-rasm).



4-rasm. Madaniyat tarkiblari

Ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab madaniyat darajasi bilan bevosita bog'liq, sababi madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa yangi bilimlarga va qo'shimcha ta'limga bo'lgan ehtiyojlar ham shunchalik katta bo'ladi. Madaniyat darajasiga mos ravishda iste'molchining anglagan tarzda o'z ta'lim ehtiyojlarini qondirishga qaratadigan budjetdagi xarajatlar ulushi ortadi.

O'zbekistonda ta'lim insonlar xulq-atvori(lekin ta'lim, faqat oila, pul, do'stlik, adolat, barqarorlik kabilardan keyin turadi)ni aniqlovchi asosiy qadriyatlar deb ataladigan guruhga kiradi. Bu o'z navbatida ta'lim xizmatlariga bo'lgan yuqori talabning hattoki iqtisodiy tanazzul paytlarida ham saqlanib qolishini anglatadi. Bizda ahloning ta'lim darajasi ancha yuqori.

Shunday qilib ta'lim xizmatlari bozori aksariyat hollarda jamiyatda yuqori turuvchi qadriyatlarga, me'yor va an'nalarga, ijtimoiy-iqtisodiy muhitga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, turmush tarzining aniq ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabga sezilarli darajada ta'sir etadi. Hozirgi davrda respublikamizda ta'limda yangi madaniyat, yangi ahloq, yangi talab yaratilmoqda. Ushbu jarayon davlatning, turli jamoatchilik tashkilotlarining qo'llab-quvvatlashlarini talab etadi va bu ayniqsa, ta'lim muassasalarining faol ishtirokida ancha darajada sezilarli bo'lishi mumkin.

Ta'lim muassasining ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritishi uchun yon atrofda bo'layotgan voqealarni kuzatib borishi, bundan tashqari unga muhim bo'lgan tashqi va ichki muhitdagi barcha o'zgarishlarni prognoz qilishi lozim. O'z

vaqtida qabul qilingan chora-tadbirlar ta'lim muassasiga qator muammolardan qochishga yoki mavjud vaziyatda foydali qo'llash imkonini beradi.

Amaliyotda ta'limning marketing muhitini baholash va prognoz qilish uchun STEP-tahlili, shuningdek, mintaqaning ta'lim xizmatlari bozori jozibadorligini reyting baholash keng qo'llaniladi. Tashqi muhit(makromuhit)ni ilmiy o'rganish kompleks ijtimoiy, texnik, iqtisodiy va siyosiy tahlil(ingliz tilida qisqartirilgan STEP) asosida amalga oshiriladi.

STEP-tahlil uslubiyoti ta'lim muassasiga potensial tahidlarni va kutilayotgan yangi imkoniyatlarni aniqlash uchun holatni baholashga va makromuhitdagi muhim omillarning rivojlanishini bashorat qilishni amalga oshirishga imkon beradi. Ta'lim muassasalari ushbu omillarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir eta olishmaydi, ammo ular ta'lim muassasining o'ziga va uning atrof-muhitiga juda kuchli darajada ta'sir etadi. STEP-tahlilni olib borish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lib quyidagilar hisoblanishi mumkin:

- Konstitutsiya va qonunchilik xujjatlari.
- Prezident farmonlari va qarorlari.
- Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari.
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hay'at qarorlari va buyruqlari.
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
- Tarmoq vazirliklari buyruq va qarorlari.
- ilmiy jurnallar va markaziy gazetlar(mas. xalq so'zi).
- Ta'lim sohasida aholi va ekspertlar sotsiologik so'rovlarining natijalari va h.k.lar.

Topshiriq.

Sizdan STEP - tahlilning tashqi muhitning tizimlashtirilgan omillarini jadval shaklida va ularni o'zingiz faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasining asosiy rivojlanish ssenariylari bilan keltirgan holda to'ldirib chiqishingiz lozim (1.1-jadval).

1.1-jadval.

STEP-tahlil usuli bo'yicha ta'limning tashqi muhiti omillari tahlili.

Omillar	Rivojlanish ssenariysi		
	pessimistik	realistik	optimistik
Ijtimoiy			
Turmush darajasi			
Ijtimoiy qadriyat va ahloq			

Ta'lim darajasi			
Jamiyatning ijtimoiy qatlamlashuvi			
Jamiyatga ijtimoiy guruhlarining ta'siri			
Milliy omillar			
Shahar va qishloq aholisi nisbati			
Millatlararo munosabatlar			
Aholi migratsiyasi			
Ijtimoiy-madaniy omillar			
Texnologik			
Tarmoqlar uchun mutaxassislarni tayyorlash			
Resurstejamkor texnologiyalar			
Texni taraqqiyotning umumiy darajasi			
Global informatsion texnologiyalar			
Ekologik-yo'naltirilgan texnologiyalar			
Konversiya (lat. conversio — «murojaat», «o'zgarish» va «ikkitalik(mas.ishlab chiqarish, loyihalash)» texnologiyalar			
ITTKIni moliyalashtirish			
Ta'limning multimediya texnologiyalari (CD-ROM, internet va b.q.lar)			
Ochiq(masofaviy) ta'limning rivojlanishi			
Shaxsning rivojlanish darajasidan kelib chiqib ta'limning insoniylashuvi va texnologiyalashuvi			
Iqtisodiy			
Davlatning kredit siyosati			
Soliq siyosati			
Iqtisodiy o'sish dinamikasi			
Aholining xarid qobiliyati			
Davlatning investitsiya siyosati			
Mintaqalararo va hududiy tashkil etilganlik			
Davlat budjeti defitsiti			
Mamlakatdagi inflyatsiya darajasi			
Energiya to'lovchilarga jahon narxlari, xom ashyo va materiallar manbalari			
Milliy bozorlar holati			
Tashqi savdo aylanmasida importning ulushi			

Xarajatlardagi (mahsulotlar va xizmatlar tannarxi) o'zgarishlar			
Milliy bozorda bozor munosabatlarining rivojlanishi			
Siyosiy			
Xalqaro vaziyat			
Davlatdagi ichki siyosiy vaziyat			
Qonunchilik hokimiyatining samarali ishlashi			
Prezident va uning hududlardagi vakillari			
Hududlar rahbariyati va hokimlarning ta'siri			
Aholi siyosiy simpatiyasining qutblashuvi			
Siyosiy ziddiyatlar			
Partiyalar va harakatlar			
Jamiyat faolligi			
Umumiy va shaxsiy xavfsizlik			

Joriy holat matritsasi makro muhitning salbiy, neytral va ijobiy omillarini belgilash bilan mavjud holatni aks ettiradi. Rivojlanish istiqboli matritsasi mumkin bo'lgan rivojlanish ssenariylari asosida ta'lim muassasining barcha tashqi muhitdagi holatni bashorat qilishga imkon beradi.

STEP–tahlilni ta'lim muassasining strategik rivojlanish rejasini ishlab chiqishda yoki beshta omillar guruhidan bittasi ta'sirining keskin o'zgarishi ro'y bergan holatda amalga oshirish maqsadga muvofiq. STEP–tahlil natijalari ta'lim muassasining kelgusidagi 3-7 yillik rivojlanish ssenariylarini baholash va ta'lim xizmatlari bozorining istiqbolli segmentlarini tanlash uchun qo'llaniladi.

Topshiriq.

Sizdan yuqorida keltirilgan jadvaldagi ma'lumotlarni chuqur o'rgangan va tahlil etgandan keyin o'zingiz faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasangizning universitet 3.0 modeli bo'yicha faoliyat yuritishi uchun ta'sir etadigan omillarni **STEP–tahlil usuli bo'yicha tashqi muhiti omillari tahlili amalga oshiring(1.2-jadval).**

1.2-jadval.

STEP–tahlil usuli bo'yicha ta'limning tashqi muhiti omillari tahlili.

Omillar	Rivojlanish ssenariysi		
	pessimistik	realistik	optimistik
Ijtimoiy			

Texnologik			
Iqtisodiy			
Siyosiy			

2-MAVZU: UNIVERSITET 3.0 MODELINI ASOSIDA “ILMIY MAKTABLAR, TRANSFER VA INNOVATSIYALAR” BO‘YICHA OLIY TA’LIM MUASSASASI ICHKI MUHITI TAHLILI (4 soat)

Amaliy mashg‘ulotda oliy ta’lim muassasi ichki muhiti tahlilini amalga oshirish, oliy ta’lim muassasining maqsadlarini amalga oshiradigan komponentlari, oliy ta’lim muassasi faoliyatini strategik rejalashtirish doirasida ichki muhitni tahlil etish, **SWOT**- tahlilini qo‘llash orqali ichki muhit keltirib chiqaradigan tahdidlar, xavflar, risklarni aniqlash kabi masalalar tahlil qilinadi.

Ichki muhit – bu ta’lim jarayoni ishtirokchilarining va ularning funksional o‘zaro aloqalari jarayonida ta’lim muassasining maqsadlarini amalga oshiradigan komponentlar yig‘indisidir. Strategik rejalashtirish doirasida ichki muhitni tahlil etishning mashhur usullaridan biri – bu **SWOT**- tahlili hisoblanadi. Bu yerda, “S” tashkilotning kuchli tomonlari, “W” – uning ojiz tomonlari, “O” bizning tashkilotimiz uchun tashqi muhit yaratadigan qulay imkoniyatlar va uning kutilayotgan o‘zgarishlari, “T”- tashkilot uchun ushbu muhit keltirib chiqaradigan

tahdidlar, xavflar, risklardir.

Ushbu vaziyatda tahlilning mazmuni va ko‘lami u amalga oshiriladigan vazifaning ko‘lamiga bog‘liq bo‘ladi. Faraz qilaylik, ushbu vazifa - OTMda tizimli o‘zgarishlarning imkoniyatlarini umumiy baholash - yetarlicha katta(murakkab) va mavhum(abstrakt).

1-topshiriq.

O‘z ta‘lim muassasangizning muammoli (dolzarb) vaziyatiga e‘tiborni qaratgan holda, masalan, Siz faoliyat yuritayotgan OTMning **“Ilmiy maktablar, transfer va innovatsiyalar”** SWOT-tahlil bo‘yicha uning kuchli va o‘z tomonlarini, imkoniyatlari va unga bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni aniqlangan. Keyinchalik OTM tashqi muhiti tahlilining barcha omillarining ijobiy tomonlaridan foydalangan holda ular orasidan OTM ushbu yo‘nalish bo‘yicha rivojlanishining salbiy tomonlarini bartaraf etishga qodir imkoniyatlarni tanlang.

Quyidagi **OTM ning “Ilmiy maktablar, transfer va innovatsiyalar”** SWOT-tahlil ichki muhiti tahlili deb nomlangan 2.1-jadvalda keltirilgan ma‘umotlarni diqqat bilan o‘rganing, tahlil qiling va shu asosida o‘zingiz faoliyat yuritayotgan OTMdan kelib chiqib shunga o‘xshagan jadval chiqing va mos grafalarni to‘ldiring.

2.1-jadval.

OTM ning “Ilmiy maktablar, transfer va innovatsiyalar” SWOT-tahlil ichki muhiti tahlili.

<p style="text-align: center;">SWOT-TAHLIL “Ilmiy maktablar, transfer va innovatsiyalar”</p>	<p style="text-align: center;">IMKONIYATLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Hududiy sanoat-ta'lim klasterlari asosida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ishtirok etish 2. Texnologik platformalar doirasidagi ustuvor ITIni bajarishda ishtirok etish 3. Startap loyihalarida ishtirok etish orqali moliyaviy mablag'lar topish 4. OTMda impakt-faktorga ega yoki OAK ro'yxatiga kirgan ilmiy jurnalning mavjudligi 5. Xo'jalik shartnomalarini bajarish va turli grant loyihalarida ishtirok etish imkoniyatiga ega IPKning mavjudligi. 6. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bajariladigan ishlarga jahon darajasidagi olimlarni yoki mavjud ilmiy maktablarni jalb etish 7. Iqtisodiyotning real sektoriga ilmiy(innovatsion) ishlanmalarni joriy etishni DXSh asosida rivojlantirish 	<p style="text-align: center;">TAHDIDLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Doktoranturaga qabulning kamayishi yoki ba'zi bir ixtisosliklar bo'yicha doktoranturaning mavjud emasligi 2. Davlat buyurtmalari doirasidagi ITI moliyalashtirishning qisqarishi va bekor bo'lishi 3. Ilmiy amaliy ishlanmalarning qisqarishi 4. Biznes tuzilmalarning ilmiy ishlanmalarni qabul qilish borasida motivatsiyaning past darajadali 5. Ilmiy kadrlar boshqa mintaqalarga chiqib ketishi
<p style="text-align: center;">KUCHLI TOMONLAR</p>	<p style="text-align: center;">KUCH-IMKONIYATLAR.</p>	<p style="text-align: center;">KUCH-TAHDIDLAR</p>

<ol style="list-style-type: none"> 1. Texnik, tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha ilmiy maktablarning mavjudligi 2. Ilmiy-texnik va innovatsion muammolarni yechish tajribasi 3. ITI olib borishni tartibga soluvchi ichki normativ bazaning mavjudligi 4. Kafedarlarning laboratoriyalarini yangilash imkoniyati 5. Doktorantura dasturlari bo'yicha IPKlarni tayyorlash imkoniyati 6. Doktorlik dissertatsiyasini yakunlashi uchun ijodiy ta'vil berish imkoniyati 7. Oraliq attestatsiya natijalari bo'yicha doktorantlarga oshgan stipendiya to'lash imkoniyati 8. PO'Tga ilmiy faoliyat natijadorligi uchun rag'batlantiruvchi to'lovlar to'lash 9. Ilmiy yutuqlar asosida lavozimda o'sish imkoniyati 10. Texnopark va biznes inkubatorlar negizda innovatsion infratuzilmaning mavjudligi 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Hududiy sanoat-ta'lim klasterlari, respublika texnologik platformasi doirasida korxonalar va tashkilotlar, shahar va hududiy tuzilmalarning o'zaro xatti-harakatlarining samarali tizimini yo'lga qo'yish 2. Budjet va budjetdan tashqari moliyalashtirishdan ITTKI moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ko'pkanalligi tizimini yaratish 3. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos ilmiy-tadqiqotlarni shakllantirish 4. Texnopark, biznes-inkubatorlar, kichik innovatsion korxonalar bazasida innovatsion infratuzilmani takomillashtirish 5. Laboratoriya kompleksini budjetli va boshqa moliyalashtirish shakllarini qo'llash orqali modernizatsiyalash dasturlarini ishlab chiqish. 6. Ilmiy jurnal nufuzini oshirish va.h.k.lar 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Doktorantura samaradorlik ko'rsatkichlarini o'z vaqtida dissertatsiyalarini himoya qilganlar foizini oshirish orqali ta'minlash 2. OTM xodimlarining boshqa OTMlar ilmiy kengashlaridagi a'zolarining ma'lumotlar bazalarini yaratish. 3. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bajariladigan ITIning bajarishda ishtirok etish 4. Ilmiy tadqiqot faoliyati natijalari bo'yicha IPKlarni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish 5. Doktorlik dissertatsiyasini yakunlagan PO'T yuklamalarni optimallashtirish
<p>OJIZ TOMONLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Fan, texnologiya va texnika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga ITI mavzularining mos kelmasligi 2. OTM olimlarining innovatsion loyihalar va ilmiy ishlanmalarni 	<p>OJIZ TOMONLAR-IMKONIYATLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ekspert kengashni (Ilmiy Kengash tarkibida) yaratish. 	<p>OJIZ TOMONLAR-TAHDIDLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Boshqa OTMlar bilan doktorantura va magistratura dasturlari bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashning tarmoq shakli bo'yicha shartnomalarni tuzish 2. ITTKI olib borish borasida OTM ichidagi

<p>tijoratlashtirish darajasining pastligi</p> <p>3. Dissertatsiya Kengashlarining yo'qligi</p> <p>4. Doktoranturaning yo'qligi</p> <p>5. Doktorantura dasturlari bo'yicha ilmiy-pedagog xodimlarni tayyorlash shaklining yo'qligi</p> <p>6. Doktoranturaning past samaradorligi</p> <p>7. ITTKI uchun talab darajasidagi laboratoriya jihozlarining yo'qligi va moddiy-texnik bazasi darajasining pastligi</p> <p>8. Moliyalashtirishning yetishmasligi(shtatlar, jihozlar) sababli yuqori texnologik jihozlardan jamoaviy foydalana oladigan markazning yo'qligi</p>	<p>2. Texnika, tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha dissertatsiyalar himoyasining birlashgan kengashini ochish bo'yicha xujjatlarni tayyorlash</p> <p>3. OTM turli tarkibiy tuzilmalari (kafedlar, laboratoriyalar) uchun fanmetrik (naukometrik) ko'rsatkichlarni ishlab chiqish</p> <p>4. Zamonaviy ilmiy jihozlar va sarf-xarajat materiallarini sotib olishni moliyalashtirish</p> <p>5. Yuqori texnologik jihozlardan jamoaviy foydalanish markazini yaratish</p> <p>6. Mavjud ilmiy jihozlarni tizimli metrologik nazorat qilish</p> <p>rish</p>	<p>tanlov grantlarni o'tkazish va moliyalashtirish.</p> <p>3. OTM olimlarining intellektual faoliyati natijalarini hisobga olish, marketing va reklama tizimini ishlab chiqish</p> <p>4. Professor-o'qituvchilarni nashriy faolligi ko'rsatkichlari uchun moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish</p>
--	--	--

2-Topshiriq

Siz yuqoridagi 2.1-jadvalda keltirilgan OTM ning “Ilmiy maktablar, transfer va innovatsiyalar” SWOT-tahlil ichki muhiti tahlili namunasi asosida o‘zingiz faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasi misolida “Iqtidorli yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb etishni rivojlantirish masalalari”, “OTMda ilmiy-pedagog kadrlar ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari”, “OTMlarda ilmiy salohiyatni oshirish yo‘llari” va “Doktorantlarning o‘z muddatlarida himoya qilishlarini ta’minlash” kabi boshqa mavzular bo‘yicha SWOT-tahlilini amalga oshirib o‘z fikr-mulohazalaringizni bayon eting.

3-mavzu. UNIVERSITET-3.0 MODEL ASOSIDA OTM MAVJUD MUAMMOLARINI HAL ETISH BORASIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQUISH(4 soat)

Ushbu amaliy mashg‘ulotda universitet-3.0 modeli asosida OTM kuchli tomonlarni yanada kuchaytirish hamda ojiz tomonlarni yo‘qotish, universitet-3.0 modeli asosida OTMga tashqi qulay ta’sirlarni kuchaytirish borasida amalga oshiriladigan ishlar, universitet-3.0 modeli asosida tashqi xavflar, tahdidlar va risklarga qarshi turish kabi masalalar tahlil qilinadi.

OTMning ichki muhiti tahlili topshirig‘i tahlilining birinchi natijalari olingandan keyin, ular bilan quyidagilarni aniqlash maqsadida keyingi ishlarni amalga oshirish lozim:

- universitet-3.0 modeli asosida OTM mavjud qaysi kuchli tomonlarni yanada kuchaytirish mumkin va buning uchun nima qilish kerak?

- universitet-3.0 modeli asosida qanday ojiz tomonlarni yo‘qotish mumkin, kelgusida ularga yo‘l qo‘ymaslik, ularning ta’sirini kamaytirish, o‘rnini qoplash va aynan qanday qilib?

- universitet-3.0 modeli asosida OTMga tashqi qulay ta’sirlarni kuchaytirish uchun nimalar qilish kerak, ularni o‘z vaqtida aniqlash va ulardan OTM manfaati yo‘lida qanday foydalanish mumkin?

- universitet-3.0 modeli asosida tashqi xavflar, tahdidlar va risklarga qanday qilib qarshi turish mumkin?

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun OTM rahbari bajarish muddatlarini va istalayotgan natijani aniq aniqlagan holda buyruq bilan ishchi guruhi tuzadi.

1-topshiriq

1. Siz ishlayotgan OTMning universitet-3.0 modeli asosida mavjud qaysi kuchli tomonlarini yanada kuchaytirish mumkin va buning uchun nima qilish kerak?

2. Sizning fikringizcha, universitet-3.0 modeli asosida qanday o'jiz tomonlarni yo'qotish mumkin, kelgusida ularga yo'l qo'ymaslik, ularning ta'sirini kamaytirish, o'rnini qoplash va aynan qanday qilib?

3. Fikringizcha, Siz faoliyat yuritayotgan OTMga universitet-3.0 modeli o'tishda tashqi qulay ta'sirlarni kuchaytirish uchun nimalar qilish kerak, ularni o'z vaqtida aniqlash va ulardan OTM manfaati yo'lida qanday foydalanish mumkin?

4. Universitet-3.0 modeli o'tishda Siz ishlayotgan OTM tashqi xavflar, tahdidlar va risklarga qanday qilib qarshi turish mumkin?

«Zamonaviy jamiyatda ta'lim va fanning o'zaro aloqasi».

Sizdan “Zamonaviy jamiyatda ta'lim va fanning o'zaro aloqasi” mavzusi bo'yicha kengaytirilgan tarzda o'z fikrlaringizni bayon etishingiz so'raladi. Buning uchun Siz o'zingizning fikringiz bo'yicha ushbu mavzuni yoritishga mos keladigan reja tuzing. Reja uchta punktdan kam bo'lmagan va ularning har biri kamida yana 2 ta bir muncha detallashtirilgan punkt ostilaridan iborat bo'lishi lozim.

Mazkur mavzuni yoritish borasidagi reja variantlaridan biri quyidagicha:

1. Fan va ta'lim ma'naviy madaniyat sohasi sifatida.
2. Fan va ta'lim jamiyatning ijtimoiy instituti sifatida:
 - a) zamonaviy jamiyatda ta'limning funksiyalari (ijtimoiy-madaniy; ijtimoiy-iqtisodiy; ijtimoiy-siyosiy);
 - b) fanning ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida rivojlanishi;
 - v) fan va ta'limni davlat tomonidan tartibga solish.
3. Ta'limning fanga ta'siri:
 - a) oliy ta'limda ilmiy kadrlarni tayyorlash;
 - b) yoshlarda ilmiy faoliyat va olim maqomi to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish.
4. Fanning ta'limga ta'siri:
 - a) fanning asoslarini maktab predmetlari doirasida o'rganish;
 - b) universitetlarni ilmiy markazlarga aylantirish.
5. Kelajakda fan va ta'limni yaqinlashtirish istiqbollari.

Yuqorida keltirilgan reja punktlari va punkt ostidagilaridan boshqa shakldagi rejalarni ham keltirishingiz mumkin.

Oliy ta'limni modernizatsiyalashni amalga oshirish bo'yicha keyslarni ishlab chiqish.

Keys uslubi (inglizcha Sase method – keys-uslub, “Case-ctudy” - keys stadi, aniq vaziyat uslubi, vaziyatli tahlil uslubi) – real iqtisodiy, ijtimoiy va biznes vaziyatlarning tavsiflaridan foydalangan holda o'quvchilarda aniq ko'nikmalarni shakllantirish texnikasidir. Dastlab keys usulidan foydalanish XX asrning boshlarida Garvard biznes Maktabida biznes-keyslar sifatida paydo bo'lgan. 1908 yilda maktab tashqil etilgan paytda biznes-kurslarni olib borish borasida adabiyotlarning yo'qligi sababi o'sha davrdagi yetakchi biznesmentlardan ularning faoliyatlarini darsliklarda bayon etish qaror qilingan. Shundan keyin ushbu usul keng tarqalib birinchi biznes keyslar to'plami(The Case Methodat the Harvard

Business School) 1921 yilda nashr ettirilgan. O'tgan asrning o'rtalariga kelib ushbu amaliyot Yevropada ham keng tarqaldi.

1991 yilda oliy ta'lim muassasalari orasida keys usullarning tarqalishiga sabab bo'lgan European Case Clearing House (ECCH) notijorat tashkiloti tashkil etilgan. Hozirgi davrda uning tarkibiga 340 atrofidagi tashkilotlar kiradi. Ushbu tarkibga faqatgina jahondagi yetakchi maktablardan Richard Ivey School of Business biznes maktabi kirmaydi qolgan maktablar keys-uslubini faol qo'llashadi.

Bugungi kunda biznes-keysarlarni o'rganishning ikkita klassik maktablari mavjud: Garvard (amerikacha) va Manchester (yevropacha). Birinchisi o'zida yagona to'g'ri qarorni izlashni, ikkinchisi muammo yechimining ko'pvariantligini namoyon etadi. An'naviy ravishda amerika keysarlari 25-30 betlarga mo'ljallangan bo'lsa, yevropacha keyslar 2-3 marta qisqaroq bo'lishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozim, oliy ta'lim muassasalari biznes tashkilotlari emas balki notijorat tashkilotlari bo'lganligi sababli biznes-keys usulida qo'llaniladigan elementlar to'liq foydalanishning iloji yo'q. Lekin shunga qaramasdan oliy ta'lim sohasida yetakchi mutaxassislar fikrlaridan foydalangan holda chora-tadbirlar(loyihalar, yo'l xaritalari) ishlab chiqish borasida foydalanish mumkin.

2-topshiriq.

“Bugungi kunda respublikamiz OTMlari oldida turgan muammolardan qaysi birlarini Sizlar eng asosiylari deb hisoblaysiz? ”.

Quyidagi jadvalda keltirilgan savollarga javob bering (o'z fikringizni asoslagan holda) va ularni muhimligi bo'yicha ketma-ketlikda raqamlab chiqing. Shuningdek, jadvalning muammolar ustunidagi “-“ bo'sh joylarni to'ldiring.

Muammo	Javob (ha, yo'q yoki qisman)	Muhimligi
OTMlar kadrlar salohiyatining pastligi		
Byurokratiya va samarasiz boshqaruv		
Maktab ta'limi sifatining pastligi va abituriyentlar bilimining kamligi		
Ilmiy tadqiqotlarga talabning yo'qligi		
Iqtisodiyotning real sektori bilan aloqalarning yo'qligi		
OTM joylashgan hududdagi turli muammolar: - -		

Boshqa muammolar:		
-		
-		
-		

Yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarni Siz faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim muassasida har bir quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha hal etish borasidagi chora-tadbirlarini ishlab chiqing:

1. OTMning kadrlar salohiyatini rivojlantirish.
2. OTM va biznesning o‘zaro aloqalarini rivojlantirish
3. OTMlar va hududlarning o‘zaro xatti-harakatlarini(hamkorliklarini) rivojlantirish
4. Tadqiqotlarni tijoratlantirish
5. Boshqaruvni isloh etish
6. Abituriyentlar va maktab(litsey, kollej) o‘quvchilari bilan ishlashni jadallashtirish

1. OTMning kadrlar salohiyatini rivojlantirish.

Maqsadga erishish uchun motivatsiyalangan va strategik maqsadlar va joriy vazifalarni ajrata oladigan personal doimo tashkilotning samaradorligini oshirishga, raqobatbardoshligini va muvaffaqiyatini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi

Ta’lim muassasalarida personal sifati boshqa tashqilotlarga qaraganda ancha muhim rol o‘ynaydi. Oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligi ko‘pincha unda faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar tarkibi (PO‘T) kategoriyasi faoliyati bilan aniqlanadi.

Professor-o‘qituvchilar faoliyatining samaradorligi har qanday OTMning raqobatbardoshligi va muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi.

PO‘T faoliyatining natijadorligi quyidagi baholashning predmeti hisoblanishi mumkin:

- ta’lim muassasi turi va shaklini aniqlash;
- ta’lim muassasi samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- oliy ta’lim muassasi samaradorligi monitoringini olib borish.

Shuningdek, kadrlar salohiyatini rivojlantirishning asosiy vazifalari sifatida yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ta’lim berish texnologiyasini o‘zgartirish, oliy ta’lim infratuzilmasini yangilash, ta’lim berishning amaliy tarkibiy qismini va ta’lim dasturlari ro‘yxatini kengaytirish, oliy ta’lim fanini

kuchaytirish, xalqaro ta'lim makonidagi integratsiya, akademik safarbarlik (mobillik)ni kengaytirish kabilarni kiritish mumkin.

Hozirgi davrda OTMlarda kadrlar salohitini oshirish uchun boshqaruv tarkibini va professor-o'qituvilar tarkibini rivojlantirish borasida qator chora-tadbirlar takliflar etilgan bo'lib, xususan ular quyidagilardan iborat:

- samarali rektorlarni tayinlash;
- kuzatuv kengashlari (ish beruvchilar, xalqaro akademik muhit bilan teskari aloqalarni ta'minlash) rolini kengaytirish;
- ilmiy kengashlarni shakllantirish (ilmiy faoliyat yo'nalishlarini aniqlash);
- akademik safarbarlik (mobillik) dasturini amalga oshirish;
- yuqori xalqaro akademik bozor talablariga mos tayyorlangan bir muncha malakali kadrlarni jalb etish bo'yicha faol ishlash;
- qo'shma (yetakchi xorijiy OTMlar bilan) ta'lim va tadqiqot dasturlarini amalga oshirish.

Buni quyidagi tarzda amalga oshirish mumkin:

Keysning tuzilishi:

Annotatsiya

OTM ixtisosligi. Umumiy axborot

Tarixi

Joriy holati

Rivojlanish strategiyasi

Keys: OTM loyihasi

Manbalar

Maqsadlar

Loyihani yozish

Natijalar

O'ziga xosliklari

Ojiz nuqtalari

Kelajakda rivojlanish istiqbollari

Xulosalar

V. GLOSSARIY

V. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
"Akademik tadbirkorlik" -	bu tadqiqotchilar va olimlarning rivojlanishini tijoratlashtirishda ishtirok etishini (o'z ishlanmalari bilan tijoratlashtirishda ishtirok etishini) anglatadi.	
Benchmarking (ingl. Benchmarking) -	bu o'z tashkiloti (o'z mamlakatida yoki xorijda faoliyat ko'rsatayotgan tarmog'iga yoki tarmoqqa taalluqligidan qat'iy nazar jarayonlari o'xshash tashkilotlardan) faoliyatini yaxshilash uchun boshqa tashkilotlarning ilg'or tajribasini o'rganish, amaliyotiga moslashish jarayoni.	
Boshqaruv strategiyasi -	bu strategik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatdir.	
Davlat ilmiy-texnik dasturlari -	resurslar, ijrochilar va ularni bajarish bo'yicha kelishilgan fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar, innovatsion ilmiy-texnik ishlar va boshqa dasturiy faoliyat(loyiha)larni amalga oshirish majmui, qo'yilgan masalada zarur maqsad va yechimlarga erishishni ta'minlovchi ilmiy tadqiqot shakli.	
Zamonaviy boshqaruv	bu boshqaruv tizimi va uning tashqarisidagi tizimlardagi	

paradigmasi -	ob'ekt, jarayonlar, hodislar to'g'risidagi tasavvurlarning yig'indisi, ruhiy shakllanish, hayol etish va fikrlash mahsuli.	
magistratura -	bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim	
Idoralararo ilmiy texnik kengash -	har bir fan yo'nalishi bo'yicha vazirlikning ilmiy-texnik siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashadigan, davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajariladigan ilmiy-texnik loyihalarni baholash, ekspertiza qilish va monitoringdan o'tkazish bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradigan, tegishli fan sohasining yetakchi olimlari va mutaxassislaridan iborat, jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan ilmiy-texnik jamoa.	
Ijtimoiy innovatsiya -	bu sotsium hayot faoliyatini yangilashning yangi usuli: ta'lim, xizmat ko'rsatish, boshqaruv tizimi, ijtimoiy yordam va ijtimoiy nizolarni hal etish.	
Innovatsiya -	fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta	

	ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma.	
Innovatsion infratuzilma -	innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi ular birlashmalarining majmui.	
Innovatsion loyiha -	yangi ishlanmalar yaratish uchun bajarish muddatlarini, ijrochilarni, moliyalashtirish manbalarini va tegishli infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmui.	
Innovatsion tabirkorlik -	texnik-texnologik va sotsioijtimoiy yangiliklarni yaratish va tijoratlashtirish maqsadida foydalanish jarayoni.	
Innovatsion faoliyat -	yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat.	
Innovatsiyalar yaratish uchun davlat buyurtmasi -	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga innovatsion loyihani bajarish uchun topshiriq.	

Innovatsion ekotizim -	bu o'zini saralash tizimi, samarali "o'zgartirishlar jamoasini" shakllantirish, strategik boshqaruvga o'tish	
Marketing -	inglizcha "market" degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib aynan "bozor faoliyati" degan ma'noani anglatadi.	
Marketing strategiyasi -	an'anaviy tarzda «4R» - tovar (product), narx (price), taqsimlash(joylashuv) kanallari (place) va kommunikatsiya (promotion) asoslanadi.	
Maqsadli davlat ilmiy-tadqiqot dasturlari -	Respublika iqtisodiyoti tarmoqlarining aniq muammolarini hal qilish, raqobatbardosh ilmiy hajmdor mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar shakli.	
Oliy ta'limda ta'lim sifati -	ta'lim modelining kontekstual ko'rsatkichlari, institutsional maqsad va vazifalari hamda ta'lim tizimining aniq standartlari, ta'lim muassasalari, o'quv dasturlari va fanlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali, ko'p darajali dinamik tushunchadir.	
OTMlarni boshqarish modellari -	davlat tomonidan boshqarilish; qisman avtonomlik; qisman mustaqillik; mustaqillik.	
OTM strategiyasi -	ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish vositasi. OTM strategiyasi samaradorligi va	

	<p>raqobatbardoshligi boshqa tashqi va ichki omillar bilan birgalikda ta'lim sohasidagi belgilangan siyosat yo'nalishlari va holatlar strategiyasiga muvofiqligini aniqlaydi.</p>	
Paradigma -	<p>(yunoncha παράδειγμα, «model, namuna») — ilmiy hamjamiyat va uning aksariyat a'zolari tomonidan qabul qilinadigan va taqsimlanadigan fundamental ilmiy tartib-qoidalar va iboralarning yig'indisi. Ilm-fan va ilmiy ijodiyotni rivojlanishining davomiyligini ta'minlaydi.</p>	
Samaradorlik -	<p>to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni minimallashtirish bilan bog'liq. Har qanday universitetning ilmiy va o'quv faoliyatini olib borish uchun uning faoliyati qanchalik keng va boy bo'lmasin, ular hamisha resurslar (moliyaviy, jihozlar, maydonlar, intellektual ish kuchi va h.k.lar) yetishmasligiga duch kelishadi va hamisha shunday bo'ladi.</p>	
Strategiya -	<p>yunoncha (“strategos”) so'z bo'lib, “general san'ati” degan ma'noni bildiradi. Hozirda strategiya tushunchasi insonlar dunyoqarashining ajralmas elementi bo'lib hisoblanadi.</p>	
Strategiya -	<p>bu istiqbolni tadqiq qilish, turli ssenariyalarni tahlil etish</p>	

	san'ati hamda istiqbolda raqobat kurashida afzallik beruvchi g'oyadir.	
Strategik menejment -	o'z ichiga ham ishlanmani ham strategiyani amalga oshirishni qamraydigan tashkilotlar barcha vazifalarini qamraydi.	
Strategik rejalashtirish -	strategik boshqarishning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Yoki bo'lmasa, yanada aniqroq qilib aytganda, "Strategik rejalashtirish-bu rejalashtirishlar bo'yicha boshqarish bo'lsa, strategik menejment-bu natijalar bo'yicha boshqarishdir".	
Tadbirkorlik universiteti -	bu: <i>birinchidan</i> , universitet-o'z missiyasi doirasida tadbirkor; <i>ikinchidan</i> , universitet-innovator. Uning sub'ektlari innovatsion, uning faoliyati innovatsion, uning mahsuloti innovatsion; <i>uchinchidan</i> , universitet-integrator. Uning barcha sub'ektlari faoliyati yakuniy natijaga yo'naltirilgan bo'lib mintaqaviy hamjamiyatga hamohang tarzda amalga oshiriladi. U yetakchi mahalliy va xorijiy OTMLar bilan hamkorlikdagi "strategik birlashmalar"ning ishtirokchisi hisoblanadi.	
Tadbirkorlik universitetining mazmun-mohiyati -	yangiliklar (innovatsiyalar)ga intilish; tavakkalchilikni bilish; o'z kuchiga ishonish; o'z	

	mustaqilligini his etish.	
Tadbirkorlik universiteti(TU) missiyasi -	madaniy-ta'lim; ilmiy-tadqiqot; innovatsion-tadbirkorlik.	
Ta'lim -	bu iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy turmush sohasida yuqori unumdorlikni ta'minlashga imkon beruvchi kapital qo'yilma bo'lib, inson hayot sifatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi	
Ta'limda zamonaviy sifat menejmenti -	bu rahbarlik va qo'llab-quvvatlashning samarali tarkibi bo'lib, qo'yilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. OTMda sifat menejmenti g'oyalari va usullaridan foydalanish barcha bo'g'inlarda: OTM darajasida, uning bo'limlarida, fakultet va kafedralarida, talabalar bilimi, malakasi va ko'nikmalari shakllanadigan va iste'molchilar uchun "qadriyatlar, qiymatlar" yaratiladigan auditoriyalarida amalga oshirilishi zarur.	
Ta'limda marketing -	bu budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish bo'yicha faoliyatning eng muhim yo'nalishlaridan biri.	
Ta'lim sifati "Quality of Education" -	bu ta'limning (natija sifatidagi, jarayon sifatidagi, ta'lim tizimi sifatidagi) belgilangan ehtiyojlar, qadriyatlar va normalar (standartlar)ga	

	muvofiq kelishidir.	
Ta'lim xizmatiga yo'naltirilgan marketing -	ta'lim muassasi faoliyati yangi ta'lim xizmatlarini yaratishga yoki mavjudlarini takomillashtirishga qaratilgan.	
Texnologiya -	1) ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo, material yoki yarim fabrikatlar holati, xossasi shaklini o'zgartirish, ularga ishlov berish, tayyorlash usullarining majmui; 2) xom ashyolar, materiallar yoki yarimfabrikatlarga tegishli ishlab chiqarish qurollari yordamida ta'sir etish usullari haqidagi fan.	
Texnologiyalarni tijoratlashtirish -	bu iste'molchi (xaridor) bilimlardan foydalanish huquqini olgan va o'z egasiga (texnologiyalarni ishlab chiquvchisiga) u yoki bu shaklda litsenziya (yoki boshqa) bitim shartlarida belgilangan miqdorda haq to'laydigan texnologik uzatish shakli.	
Texnologiyalar transferi -	bu ko'nikmalar, bilimlar, texnologiyalar, ishlanmalar, ishlab chiqarish usullari, ishlab chiqarish namunalari va vositalarini ishlab chiqaruvchilardan foydalanuvchilarning keng doirasiga yetkazish jarayoni.	
Texnologiyalar transferi -	yangi ishlanmani u olinadigan (ishlab chiqariladigan) sohadan	

	amalda qo'llash sohasiga o'tkazishga qaratilgan tadbirlar majmui.	
Tijoratlashtirish -	ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, texnologik ishlar hamda innovatsion ishlanmalar natijalarini iqtisodiy aylanmaga (fuqarolik muomalasi)ga kiritish.	
“To'rtinchi spiral” tamoyili g'oyasi -	universitetning davlat, biznes va texnoparklar (iste'molchi buyurtmachilarning manfaatlarini ifodlovchi sifatidagi) bilan hamkorligi.	
Universitet -	bu fundamental va ko'pgina amaliy fanlar bo'yicha mutaxassislar tahsil olishadigan oliy ta'lim muassasi.	
Universitet - 1.0 -	bu asosiy funksiyasi bilimlar yetkazilishi va kadrlar tayyorlash, ya'ni ta'lim berishdan iborat bo'lgan muassasa.	
Universitet - 2.0 -	bu ta'lim xizmatlari va ilmiy izlanishlarni taqdim etish bilan cheklangan, ixtirolarni tijoratlashtirish talab qilinmagan - amaliy tadqiqotlar va ilmiy-texnik ishlanmalar bilan bog'liq vazifalarni amalga oshiruvchi muassasa.	
Universitet 3.0 (Tadbirkorlik universiteti) -	bu: birinchidan, universitet-o'z missiyasi doirasida tadbirkor; ikinchidan, universitet-innovator. Uning sub'ektlari innovatsion, uning faoliyati	

	innovatsion, uning mahsuloti innovatsion; uchinchidan, universitet-integrator.	
Unumdorlik -	bu avvalo faoliyat yo‘nalishini tanlash masalasi: fundamental ilmiy tadqiqot ishlariga yoki bir muncha daromadliroq intellektual elitalarni yoki ommaviy o‘qitishga asosiy e‘tiborni qaratish.	
“Uchala spiral” modelining asosi -	biznes, hukumat va universitetning o‘zaro hamkorlikdagi tadbirkorlik faoliyati imkoniyati tamoyili; hukumat, biznes va ta’lim modelida ular bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, innovatsion iqtisodiyotda universitet bosh rolni o‘ynaydi; ko‘rsatilgan sub’ektlar orasidagi o‘zaro munosabatlar borgan sari yaqinlashib, chegaralar bosqichma-bosqich yo‘qolib bormoqda.	
Fan -	bizni qurshab turgan dunyo to‘g‘risida ob’ektiv aniq bilimlarni ishlab chiqish bo‘yicha inson samarali faoliyatining alohida sohasi bo‘lib, borliq haqidagi ob’ektiv bilimlarni ishlab chiqish va nazariy tomondan sistemalashtirish uning vazifasi hisoblanadi.	
Fan va	jahon fanining ilg‘or	

<p>texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlari -</p>	<p>yutuqlari, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalar asosida mamlakatni jadal rivojlantirish, iqtisodiyotining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, shuningdek, davlat siyosatining mazmun-mohiyati va davlat budjeti mablag'laridan oqilona foydalanish zaruratidan kelib chiqadigan ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlanmalarning fan sohalari;</p>	
<p>yangi ishlanma -</p>	<p>mavjud o'xshash intellektual faoliyat natijalariga nisbatan yangi belgilarga ega bo'lgan, amalda qo'llash mumkin bo'lgan va amaliyotda undan foydalanganda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlay oladigan intellektual faoliyat natijasi (ishlab chiqarish, ma'muriy, tijorat yoki boshqa xususiyatga ega yangi yoki mukammal texnologiya, xizmat va tashkiliy-texnik yechim).</p>	
<p>spin-off -</p>	<p>spinoflar (“<i>reklama, xabar jo'natish</i>”, “hamkorlikdagi natija”) -tijorat maqsadidagi tadbirkorlik kompaniyalarini yaratish. Spin-off kompaniyalari universitet sharoitida texnologiyalarni</p>	

	tijoratashtirishning eng muvaffaqiyatli va samarali shakli deb hisoblanadi.	
star-up -	startaplar (“ <i>jarayonning boshlanishi</i> ”) asosan yoshlardan iborat bo‘lgan yangi jamoalar muvaffaqiyati	
SWOT- tahlili -	bu strategik rejalashtirish doirasida ichki muhitni tahlil etishning mashhur usullaridan biri.	

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabr “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida» gi O‘RQ-630-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni,
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrda "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-sonli Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

III. Maxsus adabiyotlar.

45. Бадеева, Е.А. (2012), Университетское планирование в рамках протессного подхода: монография, Москва: Издательский дом Академии Естествознания. [хтп://эсоном.кхсу.ру](http://эсоном.кхсу.ру) [Доступ 24 марта 2010 г.]

46. Балмасова Т.А. «Третья миссия университета» –новый вектор развития? // Высшее образование в России. – 2016. – № 8-9. – С. 48-55.

47. Ватагина М.В. Стратегические направления в развитии маркетинговой деятельности вузов// Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России №2(42)2009. С.113-116.

48. Веретенникова, О. Б., Дрантусова, Н. В., Ключев, А. К., Кортков, С. В., Майданик, В. И., Малышева, Л. А., Попова, Л. Н. (2008), Разработка стратегии образовательного учреждения: методические рекомендации, Екатеринбург: Университетское управление: практика и анализ.

49. Виссема Ёхан Г. Университет третьего поколения: управление университетом в переходный период. – М.: Сбербанк, 2016. – 422 с.

50. Волкова Н. С. Анализ системы дополнительного профессионального образования России и его рол в современных условиях // Молодой ученый. — 2012. — №5. — С. 412-415. — УРЛ [хтпс://moluch.ru/архиве/40/4761/](http://moluch.ru/архиве/40/4761/) (дата обращения: 28.08.2019).

51. Гафуров И.Р., Василев В.Л., Кашбиева Р.Р. Инновационные кластеры и сotsиально-экономическое развитие регионов: анализ методических подходов. – М.: «Анкил», 2012. – 292 с.

52. Головки Н.В., Зиневич О.В., Рузакина Е.А. Университет третьего поколения: Б. Кларк и Ё. Уисема // Высшее образование в России. – 2016. – № 9. – С. 40-47.

53. Исправление расширением. Гуманитарному образованию вернули право на развитие // Поиск. – 2017. – № 5(1443). – С. 8.

54. Каким должен быть университет будущего? – УРЛ: <http://индикатор.ливежоурнал.com/24905.html>. Движение имиджей. Российские вузы крепнут в борьбе // Поиск. – 2016. – № 25(1411). – С. 6.

55. Каргин Д.Б. Предпринимательское образование, предпринимательский университет, коммерциализация технологий. Астана, 2016: <http://www.эну.кз/> download/ материалс/ Каргин. Предпринимательское образование.pdf.

56. Касаткина Е. А. Градобоев В. В. Место бенчмаркинга в международной конкурентной среде // Научная электронная библиотека «КИБЕРЛЕНИНКА». — 2012. — № 6–1

57. Клаус Шваб «Четвертая промышленная революция»: Э. Москва. 2016. 48 с.

58. Константинов Г.Н., Филонович С.Р. Что такое предпринимательский университет // Вопросы образования. – 2007. – № 1. – С. 49-62.

59. Красинская Л.Ф. Модернизация, оптимизация, бюрократизация...Что ожидает высшую школу завтра? // Высшее образование в России. – 2016. – № 3. – С. 73-82.

60. Ксендзова Г. Ф. Тенденции развития маркетингового управления на рынке образовательных услуг // Историческая и социально-образовательная мысль. – 2012. – № 3. – С. 118–121.

61. Луман Н. Введение в системную теорию. – М.: Изд-во «Логос», 2007. – 360 с.

62. Хагуров Т.А. Высшее образование: между служением и услугой // Высшее образование в России. – 2011. – № 4. – С. 47-57.

63. Лагутина Е. Е., Леонгардт В. А., Шапошников В. А. Профессиональное образование по специальности «маркетинг» как товар в системе маркетинга // Вестник ЮУрГУ. – 2010. – № 7. – С. 98–101.

64. Мамонтов, С.А. (2001), Сфера образования как многоуровневая маркетинговая система, Москва: Финпресс.

65. Мягков Г.П., Бухараев В.М. Трансформация классического университета в условиях «текущей современности» // Классический университет: история и современность: материалы Всеросс. с международным участием научно-практической конференции, посвященной 85-летию Удмуртского гос. ун-та; Ижевск, 3-4 февраля 2016 г. /отв. ред. и сост. В.В. Пузанов, Д.В. Репников. – Ижевск: Издат. центр «Удмуртский университет», 2016. – С. 56-61.

66. Николаева Е.М., Щелкунов М.Д., Ившина О.Я. Феноменология потребительства. Личностное и институциональное измерения. – Казан: Изд-во Казанский ун-т, 2014. – 160 с.
67. Панкрухин А. П. Маркетинг образовательных услуг в высшем и дополнительном образовании: учебное пособие. – М.: Интерпакс, 1995.
68. Самойленко К.А. Перспективы развития инновационно-предпринимательских университетов: [хттп://ир.знау.эду.уа/битстрем/123456789/1983/1/Наука_чут_2014_3_177182.pdf](http://ир.знау.эду.уа/битстрем/123456789/1983/1/Наука_чут_2014_3_177182.pdf).
69. Тазарбеков К.А. К разработке « Дорожной карты трансформации университета «Туран» в инновационно-предпринимательский университет». Тезисы.- алматы: Университет «Туран», 2016. -36 с.
70. Паспорт приоритетного проекта «Вузы как центры пространства создания инноваций». – УРЛ: [хттп://government.ru/media/fles/ОнТУмегФЛНж5Уктас57йWG1ЕтМГ9АБе.pdf](http://government.ru/media/fles/ОнТУмегФЛНж5Уктас57йWG1ЕтМГ9АБе.pdf)
71. Шуклина З. Н., Эшонов Р. Р., Хаданович Н. В. Выбор инструментов и стратегий бенчмаркинга в рискованной конкурентной среде // Молодой ученый. — 2017. — №12. — С. 387-392. — УРЛ
72. Щелкунов М.Д., Николаева Е.М. Образование в ХХИ веке: перед лицом новых вызовов. – Казан: Казан. гос. ун-т, 2010. – 156 с.
73. Эфендиев, А.Г., Кратко И.Г., Латышова Л.С. (2004), Маркетинговая активность вуза на рынке образовательных услуг и рынке труда, Москва: АНО «Академия менеджмента и бизнес-администрирования», ИД «Экономическая газета».
74. Хершген ГД. Маркетинг: Учебник для вузов. М.: ИНФРА–М, 2000.354 с.
75. Хрусский В.Е. Современный маркетинг: Настольная книга по исследованию рынка: Учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 2003.
76. Черчилл Г.А. Маркетинговые исследования: Маркетинг для профессионалов. СПб. Питер, 2000.
77. Шадриков В., Геворкян Е. О процедуре комплексной отсенки вуза // Высшее образование в России. 2001. № 1.
78. Шульс Д.Е., Танненбаум С.С., Лаутерборн Р.Ф. Новая парадигма маркетинга. Интегрируемые маркетинговые коммуникации: Пер. с англ. М.: ИНФРА–М, 2004.
79. Щелкунов М.Д. Университеты перед лицом глобальных вызовов: российский путь // Поиск. Альтернативы. Выбор. – 2016. – № 3. – С. 48-59.

80. Щелкунов М.Д., Николаева Е.М., Фурсова В.В. На пути к международному признанию: Казанский федеральный университет как субъект глобального пространства высшего образования. – Казан: Изд-во Казан. ун-та, 2016. – 140 с.

81. Эванс Дж. Р., Берман Б. Маркетинг. М.: Сирин, 2004.

82. Энджел Д., Миннард П.У. Поведение потребителей. СПб. Питер Ком, 2000.

83. Эриашвили НД. Маркетинг: Учебник. М.: ЮНИТИ, 2003.

84. Ядин Д. Маркетинговые коммуникации: современная креативная реклама. М.: Фаир-Пресс. 2003.

IV. Internet saytlar.

7. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

8. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

9. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

10. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

11. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

12. <http://tmetod.uz> – TDPU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi